



TA'LIM FIDOYILARI

RESPUBLIKA ILMIIY-USLUBIY JURNALI

2022

PHILOLOGICAL SCIENCES

PEDAGOGICAL SCIENCES

SOCIAL SCIENCES AND
HUMANITIES

EXACT SCIENCES

NATURAL SCIENCES

ECONOMICS

ART AND CULTURE

MEDICAL SCIENCES

TECHNICAL SCIENCES



VOLUME 1



ISSN: 2181-2160

+998 97 277 78 01

WWW.REANDPUB.UZ

INFO@REANDPUB.UZ



CYBERLENINKA



BASE



OpenAIRE



Google
Scholar



«TA'LIM FIDOYILARI»

ILMIY-USLUBIY JURNALI

BARCHA SOHALAR BO'YICHA

11-SON, 1-JILD NOYABR 2022 1-QISM





EDITOR IN CHIEF

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

PREPARING FOR PUBLISHING

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

BOSH MUHARRIR

ABDURAHMONOV ABDUSHOKIR ABDUKARIMOVICH

NASHRGA TAYYORLOVCHI

HAKIMOVA AZIZA XAYDARALIYEVNA

TAHRIR KENGASH A'ZOLARI

МАДРАХИМОВА ГУЛШАНОЙ СОТИБОЛДИЕВНА

ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ҚУРОЛЛИ КУЧЛАРИ АКАДЕМИЯСИ ГУМАНИТАР ФАНЛАР
КАФЕДРАСИ ДОЦЕНТИ

РАХМАТУЛЛАЙЕВ ИЗАТУЛЛА

TOSHKENT TIBBIYOT AKADEMIYASI FARGONA FILIALI BIOFIZIKA VA BIOKIMYO
KAFEDRASIDA DOTSENT

MIRZABDULLAYEVA GULNORA MUHAMMADJON QIZI

NAMANGAN MUHANDISLIK-QURILISH INSTITUTI MENEJMENT

SOLIYEV HAYITBOY MIRZADAVLATOVICH

NAMANGAN MUXANDISLIK-QURILISH INSTITUTI TRANSPORT FAKULTETI TRANSPORT
LOGISTIKASI KAFEDRASI TEXNIKA FANLAR BOYICHA FALSAFA DOKTORI PHD DOTSENTI

MATYAKUBOVA YULDUZXON AMANBAYEVNA

URGANCH DAVLAT INIVERSITETI TABIIY FANLAR FAKULTETI BIOLOGIYA KAFEDRASI
QISHLOQ HOJALIGI FANLAR NOMZODI DOTSENT

МАДРАХИМОВА ГУЛШАНОЙ СОТИБОЛДИЕВНА

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI QUROLLI KUCHLARI AKADEMIYASI GUMANITAR FANLAR
KAFEDRASI DOTSENTI

АЛЛАБЕРГАНОВА ГУЛЧЕХРА МАШАРИПОВНА,

НАВОИЙ ДАВЛАТ КОНЧИЛИК ВА ТЕХНОЛОГИЯЛАР УНИВЕРСИТЕТИНИНГ “УМУМИЙ
ФИЗИКА” КАФЕДРАСИ ДОЦЕНТИ

SHAMSHIYeva HULKAR

TOSHKENT SHAHRI OLMAZOR TUMANI ABDULLA QODIRIY NOMIDAGI IJOD MAKTABI
MATEMATIKA O'QITUVCHISI

USTABOYEV ABDULLO RAXIMJONOVICH

NAMANGAN MUXANDISLIK-QURILISH INSTITUTI TRANSPORT FAKULTETI TRANSPORT
LOGISTIKASI KAFEDRASI, TEXNIKA FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI PHD, KATTA
O'QITUVCHI



Бошланғич синф ўқувчиларининг математик саводхонлигини оширишда матнли масалаларнинг шаклини ўзгартиришнинг аҳамияти ҳақида.

Эшбекова Дилноза. ЖДПУ.Ўқитувчи

Аннотация: Ушбу мақолада Бошланғич синф ўқувчиларинг математик саводхонлигини оширишда матнли масалаларнинг шаклини ўзгартиришнинг аҳамияти ҳақида сўз боради. “болалар ва ёшларни ҳар томонлама ва ўз вақтида ривожлантириш, уларнинг ижодий қобилиятларни ривожлантириш, мустақил таълим кўникмалари, шахснинг ўз мавқеини аниқлай олиш кўникмасини шакллантириш” ҳисобланади. Ўқувчиларнинг ижодий ишларидан бири берилган масалаларнинг шаклини ўзгартиришдир. Масалаларнинг шаклини ўзгартириш ўқувчиларнинг кузатувчанлигини, зехнини тараққий эттириши уларнинг активлигини ошириши, таффақурини ва фаҳмини ривожлантириши ҳақида сўз боради.

Таянч сўзлар: бошланғич синф, матнли масала, шакл ўзгартириш, қобилият, ижодий ишлар, тараққий еттириш, захн, активлик, фикр еркинлиги, фаҳм ривожланиши.

Бу ёруғ дунёга келган ҳар бир инсон орзу умидлар билан яшайди, келажак ҳақида турли туман режалар тузади, хайрли ниятлар қилади. Худди шундай ҳар бир халқнинг ҳам тинч тотив яшаш, фаровон ҳаёт, барқарор тараққиёт билан боғлиқ орзулари бўлиши табиий. Жаҳон халқлари сиёсий луғатларида “Америка орзуси”, “Британия орзуси”, “Россия орзуси”, “Япония орзуси”, “Хитой орзуси” деган тушунчалар мавжудлиги буни яққол тасдиқлайди. Улар бесабаб ва тасодифан шаклланмаган. Ушбу тушунчаларнинг ҳар бири ўша халқнинг умумий орзу умидлари, улар яшаётган давр ва келажакка доир мақсад муддаоларини ифода этади. Муайян халқ ёки худуд аҳолисининг асрлар давомида шаклланган ва умумижтимоий орзуларини ифодаладиган бундай тушунчалар замирида ниҳоятда теран маъно мазмун мажассам экани шубҳасиз. Бугунги кунда Янги Ўзбекистон стратегияси худди шундай ҳаётбахш хусусият касб етмоқда, халқимизни ёруғмақсадлар йўлида бирлаштириб турадиган яхлит маънавий асос ва мезонга

айланиб бормоқда. Ўз куч имкониятларимизга бўлган ишонч бизни Янги Ўзбекистонни барпо етиш ва Янги Уйғониш даври пойдеворини яратишдек улуғ мақсад йўлида бирлаштириб янада кучли мустаҳкам қилмоқда.

Шундай экан бошланғич синф ўқувчиларининг билими, тафаккури , дунёқараши муҳим ҳисобланади. Бу ўринда Давлат таълим стандарти доирасида белгиланган асосий таълим тизими мақсадларидан бири “болалар ва ёшларни ҳар томонлама ва ўз вақтида ривожлантириш, уларнинг ижодий қобилиятларни ривожлантириш, мустақил таълим кўникмалари, шахснинг ўз мавқеини аниқлай олиш кўникмасини шакллантириш” ҳисобланади .

Ўқувчиларнинг ижодий ишларидан бири берилган масалаларнинг шаклини ўзгартиришдир. Масалаларнинг шаклини ўзгартириш ўқувчиларнинг кузатувчанлигини, зехнини тарақий эттиради уларнинг активлигини оширади, таффақурини ва фаҳмини ривожлантиради. Биринчи синфда болалар содда ва мураккаб масалаларнинг шаклини кўрсатма қуроллар ёрдамида қандай ўзгартиришларни кўрсатамиз. Ўқитувчининг тўртбурчакли қирқимлари бўлган жадвал тузгани маъқул. Ундан ташқари у 1 дан 10 гача рақамлар кесиб олиб уларнинг орқасига савол ишоралари қўйиб чиқади кейинчалик сонларни 100 гача ошириш ва савол ишорасини хҳарфи билан алмаштиришга тўғри келади. Булардан ташқари тўртбурчакли қирқимларга қистириш қулай бўлган картонлар олиниши ва унга ҳар хил нарсаларнинг суръатларини ёпиштирилиши керак. Болаларга жадвал бўйича масала тузиш ва уни ечиш буюрилади. Кейин савол ишораси бўлган тарқатмалар айлантиради (болаларга 4 рақами кўринади) ва кетма кет 3сўм; 1сўм сонлари бўлган карточкалар айлантиради (ва савол ишоралари билан алмаштирилади).

Болаларга янги масалани ўқиб, уни мустақил ечиш буюрилади. Учинчи масалани болалар мустақил равишта тузадилар ва ечадилар. Ҳар хил нарсалар суратларини қўйиб, кўпкина қизиқ масалалар тузиш ва шаклини ўзгартириш мумкин. Сўнгра схема билан ифодаланган масалаларнинг шаклини ўзгартиришга ўтилади.



Юқоридаги каби болалар куйидаги масалани ечадилар. $5+4=9$ (бодринг). Ўқитувчи савол ишораси бўлган полоскани айлантиради; полосканинг орқасида масаланинг жавоби бор, 5 бодринг ва 4 бодринг ёзилган полоскаларни аста-секин савол ишораси билан алмаштиради. Тайёр масалалар ҳам худди шу хилда ўзгартирилади. «Мактаб боғига 10 туп олча ва 9 туп ўрик кўчати ўтказилди». Мактаб боғига ҳаммаси бўлиб неча туп кўчат ўтказилган? «Ўқитувчи: - боққа қандай кўчатлар ўтказилган? Деб сўрайди (Олча ва ўрик кўчатлари)» Ёзамиз: Олча кўчатлари. Ўрик кўчатлари. Неча туп олча ва ўрик кўчати ўтказилади? Ёзамиз: Олча кўчатлари 10 туп, ўрик кўчатлари 9 туп. Масалада нимани билиш керак? Номалум сонни қандай ишора билан белгилаймиз. Ёзамиз: Олча кўчатлари Ўрик кўчатлари Ҳаммаси 10 туп, 9 туп, x туп. Масалани қандай ечиш керак? Ҳаммаси бўлиб неча туп кўчат ўтказилди? (19.) Масаланинг шаклининг ўзгартирамиз. Неча туп олча кўчати ўтказилганини билмаймиз? Ёзамиз:

Олча кўчатлари Ўрик кўчатлари Ҳаммаси

10 туп 9 туп 19 туп

Болалар юқоридаги қисқа ёзувдан масала шартларини тузадилар ва унинг ечимини айтадилар. Иккинчи тескари масаланинг қисқача шартини улар ўзлари мустақил равишда ёза оладилар.

Шундай қилиб, ҳар қандай содда масалани йиғинди ва айирмани топишга доир масала тарзида ўзгартириш мумкин.

Бор эди $-x$ м

Ишлатилди -4 м

Қолди -10 м

Масалани болалар тенглама тузиш билан ечадилар: $x-4=10$.

Илгаригидек, ўқитувчи номаълумни топилган сон билан алмаштиради, берилганлардан биттасини эса номаълум деб қабул қилади. Натижада иккита тесқари масала ҳосил бўлади.

Бор эди-14 м

Ишлатилди- х м |

Қолди- 10 м

|Бор эди-14 м

Ишлатилди-4 м

Қолди –х м

Шундай қилиб, бу масалалани айрилувчи ва қолдиқни топишга келтирилади. Биринчи синфда масалаларни ўзгартириш одатда ўқитувчи раҳбарлигида коллектив равишда бажарилади. Масалан ечилгандан кейин ўқитувчи берилган сонлардан ҳар бирини номаълум билан алмаштириш мумкинлигини тушунтиради. У ҳолда берилган ҳар бир масалага тесқари 3та масала тузиш мумкин. («Тесқари» термини болаларга айтилмайди. Унинг ўрнига янги масала тузамиз дейилади.) Бу хил масалаларни ечишда болалар масалани ўзгартиришнинг умумий принципини ўзлаштирадilar, янги масала ҳосил қилиш учун ечилган масаланинг жавоби қолган ҳамма ҳолларда сон маълумот деб қаралади.

ФОЙДАНИЛГАН АДАБИЁТЛАР:

1.Sh.Mirziyoyev.”Yangi O’zbekiston strategiyasi”.Toshkent.O’zbekiston nashriyoti.2021 yil.

2.Ergasheva M, “The Role Of Mathematical Issues In Improving The Methodological Training Of Future Mathematics Teachers” 2021

3. Ergasheva M.B. “Feature of methodological preparation of future yelementary school teachers in teaching mathematical problems”. Boston.USA. april 11-12.2019.



4. Ergasheva M."Bo'lajak boshlang'ich sinf o'quvchilarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida shakllantirish metodlaring amaliyotga joriy etilishi"CARJIS.181-186.bet.

5.Ergasheva M."Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarini rivojlantiruvchi ta'lim asosida shakllantirish metodlarini integratsiyalashning ta'lim metodlari".CARJIS.195-201 betlar.

Ona-Yaratganning buyuk mo'jizasi

Buxoro davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti yo'nalishi

talabasi Mubinova Aziza

Annotatsiya:Ushbu maqolada o'zbek onalarining fazilatlarini:ularning farzandlari uchun qilgan mehnati,tarbiyasi, va ularni ezgulikka yetaklashi,ona nigohidagi samimiy mehr haqida so'z boradi .Onaning inson hayotidagi o'rni va ahamiyati ta'kidlanadi.Ona allasidagi qudratni his etmoqlikka da'vat etiladi.

Annotation:This article talks about the qualities of Uzbek mothers:what they do for their children, their upbringing and leading to goodness,sincere

love in a mother's eyes.It was emphasized that the role and importance of mother in human life is important.

Kalit so'zlar:ona,mehnatsevarlik,ezgulik,inson,bola,hurmat,duo,o'zbek ramz,hayot.

Keywords:mother,hard worker,goodnes,human,child,respect,prayer,uzbek,symbol,life.

O'zbek onasi hamisha mehnatkashligi, mehnatsevarligi va zahmatkashligi bilan boshqa millat onalariga ibrat bo'lib kelayotir. O'zbek onasi mehnat oldida tiz cho'kmaydi, aksincha mehnat ustidan hamisha g'alaba qozonadi.Mehnat undan chekinadi. Ona har qanday mehnat va yumushni ezgulikka aylantiradi. Mehnatga saxovat bag'ishlaydi. Onaning harakatida barakat va saxovat bor.

Bu tabarruk so'zni aytish, yoki eshitish bilan yuragimizda bexosdan cheksiz mehr paydo bo'ladi. Va har safar vujudimizda onamizning munis va mehribon siymosi aks eta boshlaydi. Tomirlarimizda samimiyat va yaxshilik daryoday jo'sh uradi. Ona, deyish bilan tilimiz ham, dilimiz ham beqiyos insoniy mehr-muhabbatga, ezgulikka to'lib-toshib boraveradi, boraveradi...



Bolaligimizda, aniqrog‘i esimizni taniy boshlagan kezlarda bizga; “Onangni yaxshi ko‘rasanmi yoki otangni yaxshi ko‘rasanmi”, deya sizga savol berishadi. Va tabiiyki, ko‘pchilik, “onamni”, deb javob beradi. Bu aslo otamni yomon ko‘raman, degani emas. Aksincha, bu onaga bo‘lgan mehr-muhabbatning yuksak ramzi, onaga bo‘lgan samimiyatning bebaho izhori ekanligini otalarimiz ham tushunadi. Onalarimizni yaxshi ko‘rishimiz, ardog‘lashimiz va hurmat qilishimiz otalarimizga hech mahal og‘ir botmaydi. Chunki, otalarimizning ham onalari bor. Onani e‘zozlash, qadr-qimmatini o‘rniga qo‘yib, boshga toj kabi ko‘tarish bizlarga ota-bobolardan meros. Mashhur qo‘shiqda aytilganidek: “Bu olamda ulug‘ zot kim, desang, doim onam derman”.

"Jamiki ezgu fazilatlar inson qalbiga,avvalo,ona allasi,ona tilining betakror jozibasi bilan singadi". Haqiqatan ham inson hayotida ona allasi ,uning ilk jarangi,undagi hech qachon so'nmaydigan ohang uning ong-u shuuriga o'zgacha ta'sir ko'rsatadi,uni tarbiyalashda yordam beradi.

Har bir inson bu yorug' dunyoga kelganida,ilk marotaba ko'rgan insoni bu uning onasidirOna farzandi tug'ilmasidan , uning vujudga bo'lgan paydo bo'lgan paytdan boshlab,unga g'amxo'rlik qila boshlaydi,uni turli xil kasalliklardan asrab-avaylaydi.Farzandi uchun jonini berishga ham tayyor bo'ladi.Farzandi tug'ilganidan keyin ona tunlarini bedor,kunlarini uyqusiz o'tkazib farzandini parvarishqila boshlaydi.Farzandi ulg'aygandan keyin esa unga tarbiya berib,hayotga o'rgata boshlaydi.Har bir insonning onasi oldida to'lab bo'lmas qarzi bor.Bu shunday qarzki , farzand uni boylik,moldunyo,hashamat,dunyoning o'tkinchi vositalari bilan to'lab bilmaydi.Ona faqat bir narsani orzu qiladi.Bu orzu-farzandining ilm-ziyoli bo'lishini,yuqori malakali kadr bo'lib yetishishini,uning baxt-u iqbolini ko'rishdir.U farzandining eliga,yurtiga,xalqiga xizmat qilishini ,hayotda o'z o'rnini topishini,moddiy jihatdan boy inson bo'lmasa ham ,ma'naviy jihatdan har tomonlama kamolga yetgan inson bo'lishini,mashhur shaxs bo'lolmasa ham,inson dardini tushunuvchi,insonning qadriga yetuvchi, chin inson bo'lishini istaydi.Har bir inson hayotining mazmuni ,yaratganning buyuk tuhfasini bo'lmish onajonini asrashi,e'zozlashi,qadriga yetib yashashi kerak .Axir ,onajonlarimizning, bolam ,deb



bizni chaqirishlarining o'zi katta baxt. Dunyoda kimlardir ona degan zotga, uning birgina farzandim degan so'zini eshitishga muhtoj. Lekin, afsuski, oramizda shunday insonlar borki, ular o'z onasi hayot bo'la turib, holidan xabar olishga haftada 1 marta ham bormaydilar. Bunday insonlar jamiyatimizda, taassufki, uchrab turadi. Inson hayotda hamma narsaga, boylikka, o'tkinchi hoy-u havasga, sevgiga to'yishi mumkin, ammou mehrga, ona mehrga hech qachon to'ymaydi. Onaning beradigan mehrini, u aytadigan so'zlarni, uning ko'zlaridagi farzandiga bo'lgan muhabbatni hech kim sizga berolmaydi. Ona jamiyatda barkamol va yuksak salohiyatli, ma'rifatli va ma'naviyatli, kelajagi porloq bo'lgan avlodni tarbiyalashda katta ahamiyatga ega. Ularning biz uchun qilgan xizmatlarini, chekkan zahmatlarini, qiyinchiliklarini, bizga bergan tarbiyalarini hech qachon unutmasligimiz kerak. Onajonlarimizga shirin so'zlar bilan muomala qilib, ularning duo-larini olishimiz kerak. Hech bir ona o'z farzandiga yomonlikni ravo ko'rmaydi. Hamisha farzandi to'g'riso'z, rostgo'y bo'lishini xohlaydi. Onajonlarimiz qilgan duolarida, aytgan so'zlarida o'zgacha bir sehr, farzandiga bo'lgan samimiy mehr -muhabbat yaqqol sezilib turadi. Onalarimizning tag'in biz bilmaydigan o'ziga xos olami bor.

Bu olamda onalar bolalarining kamolini, yaxshi kunlarini, muvaffaqiyatlarini ko'rishadi. Ona borki, hayot bor, hayot borki, bu olamda insonlar yashaydi, o'z orzu-umidlari, maqsadlariga erishish uchun intiladi, harakat qiladi. Hech bir inson farzandiga onachalik yaqin, sirdosh, hamdam bo'lolmaydi. Ona farzandini yaxshisini oshirib, yomonini yashirib, kamolotga yetkazadi. Aziz insonlar, onajonlarimiz oldidagi uzib bo'lmas qarzarimizni unutmaylik, ular istagandek farzand bo'laylik!!!

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:



- 1.I.Karimov "Adabiyotga e'tibor-ma'naviyatga ,kelajakka e'tibor".T:O'zbekiston,2009
- 2.I.Karimov"Yuksak ma'naviyat-yengilmas kuch".T:Ma'naviyat,2008
- 3.A.Jo'rayev "Onajon".T:O'zbekiston,2013
- 4.Saviya uz.sayti



YOSH KITOBXON

Yashnobod tuman 69-maktab kutubxona mudirasi

Shaxakimova Shaxnoz Raushandjanovna

Kutubxonachi: Axmedova Shaxzoda Abdulxamidovna

Annotatsiya: Ushbu maqolada o`quvchi va o`qituvchilarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirish, ularni kitobxonlikka undash masalalari qonunlar va mutafakkirlarning fikrlari asosida muhokama etiladi.

Kalit soʻzlar: kitobxonlik, tarbiya, madaniyat, psixologiya, metod.

KIRISH

Bugungi kunda har bir maktabda kitobxonlikka yuqori darajada e`tibor qaratilmoqda, jumladan Toshkent shahar, Yashnobod tuman 69-maktabda o`tkazilajak “Yosh kitobxon” tanlovi ham shu islohotlarning bir qismi bo`lishi shubhasiz. Bu kabi tadbirlar o`quvchilarning kitobxonlikka bo`lgan qiziqishlarini oshirib, ma`naviy dunyosini o`stiradi, dunyoqarashini kengaytirib, kelajakka bo`lgan ishonchini mustahkam etadi. Nafaqat bizning maktabimizda, balki butun Respublika maktablarida shu kabi tanlovlarni tashkil etish bugungi kun ta`lim tizimining yetakchi vazifalaridan biri desak mubolag`a bo`lmaydi.

Yoshlarning axloqiy rivojlanishi, ularni insonparvarlik ruhida tarbiyalash masalasiga O`zbekistonda katta e`tibor qaratilgan. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyev tomonidan taklif etilgan mamlakatimizni rivojlantirish va uning mustaqilligini mustahkamlashning strategik vazifalarida ma`nan yetuk, barkamol avlodni va raqobatbardosh kadrlarni tayyorlash hamda ijtimoiy vazifalarni hal etishda jamiyatga yordam ko`rsata oladigan ko`ngilli, milliy g`urur hissi ustun bo`lgan yoshlarni tarbiyalash muhim vazifalardan biri sifatida belgilab berilgan. Bu vazifalarni amalga oshirishda “biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an`analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz” [1] va o`sib kelayotgan yosh



avlodni Sharqona tarbiya asosiga qurilgan umuminsoniy qadriyatlar ruhida tarbiyalash jamiyat oldiga ulkan mas'uliyat yuklamoqda.

ADABIYOTLAR SHARHI

Mazkur belgilangan vazifalarni hal etishda esa albatta, maktab ta'limining o'rni beqiyosdir. Davlatimiz rahbari bu borada maktab o'qituvchilarining oldiga o'quvchi va o'qituvchilarda milliy xususiyatlardan bo'lmish kitobxonlik madaniyatini shakllantirish masalasiga urg'u bermoqdalar. Ma'naviy jasorat sohibi deb ardoqlangan atoqli adabiyotshunos olim va tarjimon Ozod Sharafiddinov dunyodagi yetti mo'jizaga ta'rif berib "...yetti mo'jiza inson aqlining, tafakkurining, qalbining otashin madhiyasi, inson dahosining ulug'ligiga qo'yilgan mangu obida bo'lib kelmoqda. Biroq, shunday bo'lsa-da, olamda yana bir mo'jiza borki, uning buyukligi, muqaddasligi yetti mo'jizaning jamiki ulug'vorligi, go'zalligidan kamlik qilmaydi. Bu mo'jiza – kitob. Kitobning mo'jiza, mo'jiza bo'lganda ham birinchi mo'jizaekanligini ko'pgina buyuk odamlar qayd qilgan", – deb yozadi. Jumladan, yozuvchiva dramaturg C.Sveyg "Qaerdaki kitob bor ekan, u yerda odam o'zi bilan o'zi uzlatda, o'z ko'lami doirasida qolib ketmaydi, u o'tmish va bugungi kunning barcha olamshumul yutuqlariga, butun insoniyatning fikr va tuyg'ulariga oshno bo'ladi", – deb yozadi. Yozuvchi va faylasuf J.Svift "Kitoblar aql farzandlaridir" desa, pedagog va yozuvchi Ya.Komenskiy "Kitoblardonishmandlikni yoyish qurolidir", – deydi, faylasuf va tarixchi F.Bekon esa "Kitoblar zamon to'lqinlarida suzuvchi va o'zining qimmatbaho yukini avlodlardan-avlodlarga avaylab eltuvchi tafakkur kemalaridir", – deb yozadi. Shu tariqa buyuk allomalar, donishmandlar va yozuvchi-yu, olimlar kitobning mo'jizaga, nurga, tafakkur quvvati va ustuniga, mangulik va ma'naviyat timsoliga, bilim manbaiga, sodiq do'stga, davr ko'zgisiga o'xshatganlar. Eng muhimi, kitob jaholatga qarshi ma'rifat bilan kurashda yengilmas kuchdir.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL


O'quvchi yoshlar orasida kitobxonlik madaniyatini targ'ib qilish ko'pgina zararli illatlarni oldini olishga sabab bo'ladi. I.S.Zbarskiy shaxsdakitobxonlik madaniyatini shakllantirishning uch muhim komponenti bor ekanligini ta'kidlab o'tgan [2]:

- 1) Kognitiv komponent – o'quvchi va o'qituvchilardama'naviy ongini,

badiyeruditsiyani, dunyoqarashini shakllanishi bilan tavsiflanadi.

2) Emotsional komponent – o`quvchi va o`qituvchilarda estetik hislar, emotsionalqadriyatlar tizimi, oliy hislarning shakllanishi bilan belgilanadi.

Xulq-atvor komponenti – o`quvchi va o`qituvchilarning ijtimoiy xulq me'yorlariga rioya etish ko'nikmasi, axloqiy dunyoqarashi tarbiyalanadi.



1-rasm. I.S.Zbarskiy bo'yicha kitobxonlik madaniyatini shakllantirishning komponentlari.

Umuman olganda kitob mutoalasi shaxsning kompleks taraqqiyotiga ta'sir etadi. Ye.P.Suvorov, M.P.Voyushina, Ye.A.Kupirovalar [5] kitobxonlik faoliyat yo'nalishiga qarab shaxsning taraqqiyotiga ta'sir etishini asoslab berganlar. Jumladan, kitobxonlik o`quvchi va o`qituvchida konstruktiv, tarbiyaviy, qadriyatli, kommunikativ, analitik faoliyatni jadallashtiradi. Birgina "Sinchalak" qissasini oladigan bo'lsak, "o'zi kichkina, nimjon bo'lsa ham osmonni ko'targulik quvvati, g'ayrati bor" Saida Alieva va "xotin kishi rahbarlik qilsa kalavasi uchini yo'qotib qo'yadigan" Arslonbek Qalandarov, "gapga kelganda burganing yo'talidan bo'ron qo'porishga qodir" [4] bo'lgan Eshonobrazlari o`quvchilarda shaxslararo munosabatlarni konstruktiv asosda qurish, jamiyat va shaxs orasidagi munosabatlarda axloqiy tamoyillarni, milliy qadriyatlarni tahlil qilish asosida ratsional altruistik pozitsiyaning shakllanishida ichki motiv vazifasini bajaradi. Badiiy asarlarda keltirilgan qaxramonlarning o'zaro ta'siri va munosabatlarini aks ettirgan syujetlar o`quvchida dastlab badiiy idrokni faollashtirib, o`quvchining kuzatuvchanligi, empatiya qobiliyati, ijodiy xayolini, emotsional obrazli xotira va ravon nutqini faollashtiradi hamda shaxsning ichki altruistik qarashlarini yuzaga kelishiga olib keladi.

Altruizm motivlarini o'rganishga qaratilgan tadqiqotlar barcha fan sohalari doirasida uch yo'nalishda olib borilgan. Bular:

a) Dj.Rayt qarashlariga asoslangan axloqiy xulq mezoni sifatida o'rganuvchi yo'nalish;

b) L.Kolberg va T.Laykon tadqiqotlariga asoslangan shaxstaraqqiyotining eng oliy namunasi sifatida tadqiq etuvchi yo'nalish;

v) Sharq allomalari, faylasuflarning g'oyalariga asoslangan komil inson xususiyatlari yo'nalishidagi tadqiqotlar[3].

Yana bir sevimli yozuvchimiz O'tkir Hoshimovning "Urushning so'nggi qurboni" hikoyasini olsak. Hikoya o'quvchilarda urushning nafaqat front maydonlarida, balki har bir qishloqda, har bir xonadonda kechgani, urush qurbonlari esa har bir oilada topilgani haqida tasavvurlarni shakllantiradi[6]. Shu bilan bir qatorda asar qahramoni Shoikrom urushga bormagan bo'lsa-da, uning dahshatini, achchig'ini o'z uyida turib totishiga to'g'ri kelganligi bayon qilingan. Oilasi koriga yarab turgan birgina sigiri o'g'irlab ketilgan, ukasi og'ir betob bo'lib to'shakka mixlanib yotibdi, bu ham yetmagandek, bolalarining so'nggi rizqi – hovli chetidagi bir hovuch qulupnayga ham o'g'ri oralagan. Yetishmovchilik va xudbinona xarakteri Shoikromni qaltis qaror qabul qilishga majbur qiladi. Shoikromning xudbinligi ayanchli holatni keltirib chiqaradi. Asar qahramonining ayanchli taqdiri orqali o'quvchilarda o'z muammolariga o'ralib yashash oqibatida atrofidagi yaqinlarining holidan xabar olmaslik, ularga yordam bermaslik qandaynatijalarga olib kelishi targ'ib qilinadi. Adib hikoyadagi voqealar syujeti orqali o'quvchilarni hudbinlikdan qochib, altruist bo'lishga, yaqinlariga himmatli bo'lishga undaydi.

XULOSA VA MUNOZARA

Umuman olganda yuqoridagi fikrlar asosida xulosa qiladigan bo'lsak:

1. O'quvchi va o'qituvchilardagi kitobxonlik madaniyati ularning ma'naviy dunyoqarashi, axloqiy ongining oshishiga xizmat qiladi;
2. Sharq allomalari asarlari, afsonalardagi futuvvat ilmi negizida altruistik



motivlarning namoyon bo'lishini kuzatishimiz mumkin;

3. Altruizm o'zgalarga beg'araz yordam ko'rsatishga asoslangan milliy xususiyatlardan biridir;

4. Maktablarda murabbiylik soatlarida badiiy asar mutoalasini targ'ib qilish orqali o'quvchilarda altruistik xulq motivlarini shakllantirish mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Mirziyoev Sh.M. Qonun ustuvorligi va inson manfaatlarini ta'minlash –yurt taraqqiyoti va xalq farovonligining garovi. – T.: O'zbekiston 2017. B.48.

2. Zbarskiy I.S. Vnekalassnaya rabota po literature(4-8): posobie dlya uchitelya. - M.: Prosveshenie, 2010. – 208 s.

3. ALIMOVA, G. (2020). KICHIK MAKTAB YOSHIDA O'QUVCHI SHAXSINING PSIXOLOGIKPEDAGOGIK RIVOJLANISH XUSUSIYATLARI. *Pedagogik mahorat*, 103-107.

4. Alimova, G., & Alimova, A. (2020). SOCIO-ECONOMIC CONDITIONS FOR EFFECTIVE ENTREPRENEURIAL ACTIVITY. *IMPERATIV SOSIALNOGO PARTNERSTVAV OSVITNO-NAUKOVOMU PROSTORI: CVROINTEGRASIYNI TA REGIONALNI VIKLIKI SOGODENNYa*, 246-250.

5. Jalilova, S. X. (2020). SHAXS ISTE'MOLCHILIK XULQINING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI. *TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI ILMIY AXBOROTLARI ILMIY-NAZARIY JURNALI*, 240-244.

6. Taskarayevna, N. Z. (2020). Maktabgacha yosh davridagi bolalarda milliy xususiyatlarni shakllantirish yo'llari. *Oriental Art and Culture*, (II), 79-85.

METABOLIK SINDROM MAVJUD BEMORLARDA GEMOSTAZ BUZILISHLARI TAHLILI

Allamurodova Feruza Yoqubovna

Buxoro davlat tibbiyot institute, Buxoro, O`zbekiston

Annotatsiya. Metabolik sindrom – bu murakkab simptomokompleks bo`lib, arterial gipertenziya, abdominal-vitseral semizlik, dislipidemiya, glukozaga tolerantlikning buzilishi, insulinorezistentlik, giperinsulinemiya, giperurikemiya, mikroalbuminuriya, gemostaz buzilishlari bilan birgalikda namoyon bo`ladi.

Tadqiqotda shahar va qishloq aholisining laborator tahlillari va undagi normadan og`ishlar tahlil qilinib, metabolic sindrom rivojlanishi va asoratlanishida aholining yashash joyi ahamiyati o`rganildi.

Kalit so`zlar. Metabolic sindrom, qandli diabet, gipertoniya, gepatomegaliya, giperkoagulyatsiya.

АНАЛИЗ НАРУШЕНИЙ ГЕМОСТАЗА У БОЛЬНЫХ С МЕТАБОЛИЧЕСКИМ СИНДРОМОМ

Алламуродова Феруза Якубовна

Бухарский государственный медицинский институт, Бухара,
Узбекистан

Аннотация. Метаболический синдром представляет собой сложный симптомокомплекс, проявляющийся совместно с артериальной гипертензией, абдоминально-висцеральным ожирением, дислипидемией, нарушением толерантности к глюкозе, инсулинорезистентностью, гиперинсулинемией, гиперурикемией, микроальбуминурией, нарушениями гемостаза.

В ходе исследования были проанализированы лабораторные анализы городских и сельских жителей и их отклонения от нормы, а также изучено значение места проживания населения в развитии и осложнениях метаболического синдрома.

Ключевые слова. Метаболический синдром, сахарный диабет, артериальная гипертензия, гепатомегалия, гиперкоагуляция.

ANALYSIS OF HEMOSTASIS DISTURBANCES IN PATIENTS WITH METABOLIC SYNDROME

Allamurodova Feruza Yakubovna

Bukhara State Medical Institute, Bukhara, Uzbekistan

Annotation. Metabolic syndrome is a complex symptom complex that manifests itself together with arterial hypertension, abdominal-visceral obesity, dyslipidemia,



impaired glucose tolerance, insulin resistance, hyperinsulinemia, hyperuricemia, microalbuminuria, hemostasis disorders.

During the study, laboratory analyzes of urban and rural residents and their deviations from the norm were analyzed, and the importance of the place of residence of the population in the development and complications of the metabolic syndrome was studied.

Keywords. Metabolic syndrome, diabetes mellitus, arterial hypertension, hepatomegaly, hypercoagulation.

Tadqiqot dolzarbligi. Metabolik sindrom- tibbiyotning eng muhim muammolaridan biri hisoblanadi. Buning sababi birinchidan, dunyo aholisining 25-35 % ida bu sindrom uchraydi, [1] ikkinchidan, metabolik sindromi bo`lmagan bemorlarga solishtirilganda bu sindrom bo`lgan bemorlarning yurak-qon tomir kasalliklaridan o`lim xavfi 2-3 marta, 2-tip qandli diabetga chalinish xavfi esa 5-9 marta yuqori bo`ladi. [2,9,11,15] Metabolik sindrom – bu murakkab simptomokompleks bo`lib, arterial gipertenziya, abdominal-vitseral semizlik, dislipidemiya, glukozaga tolerantlikning buzilishi, insulinorezistentlik, giperinsulinemiya, giperurikemiya, mikroalbuminuriya, gemostaz buzilishlari bilan birgalikda namoyon bo`ladi. [3,16] Arterial gipertenziya 92 % holatda yuqoridagi patologiyalarning 2-3 tasi bilan birgalikda kelishi aniqlangan. Arterial gipertenziya hayot davomiyligini erkaklarda 8-10 yil, ayollarda esa 5-6 yilga qisqartiradi. Bularning barchasi koronar xavfni oshiradi.[4,5,12,13]

Shuningdek, tana massasining har 10 % ga oshishi plazmada xolesterin konsentratsiyasining 0,3 mmol/l ga oshishi bilan kechadi; har ortiqcha 4,5 kg tana vazni sistolik qon bosimini erkaklarda 4 mm.sim.ust.ga, ayollarda esa 4,2 mm.sim.ust. ga oshishiga olib keladi. Semizlikning arterial gipertenziya bilan birgalikda kelishi yurak ishemik kasalliklariga chalinish xavfini 2-3 marta, bosh miya insulti xavfini esa 7 martagacha oshiradi. Bundan tashqari, metabolik sindromi bo`lgan bemorlarda qonning protrombotik va fibrinolitik aktivligi buziladi. Metabolik sindromi mavjud bo`lgan bemorlarda trombositlarning bu sindromga ta`siri trombositlar giperagregatsiyasi bilan bog`liq bo`lib, natijada gemodinamik faktorlarda buzilishlar, giperkoagulyatsiyaga olib keluvchi fibrinogen darajasi va qon ivish faktorlarining oshishi hamda gipofibrinoliz yuzaga keladi.[5,9,14]

Aslida gemostaz – biologik sistema bo`lib, qonning suyuq holatini, qon tomir devorining struktur butunligini ta`minlash orqali qon ketishini to`xtatish va oldini olish hamda qon tomirlar jarohatlanganda tezda tromb hosil qilishni ta`minlaydi. [6,8] Gemostaz jarayonini bir-birini to`ldirib turuvchi bir nechta bosqichlarga bo`lish mumkin. Bu bosqichlar mahalliy qon tomirlar torayishi, jarohatlangan qon tomir devoriga trombositlar adgeziyasi, trombositlar agregatlarning hosil bo`lishi va ularning fibrin bilan birlashishida namoyon bo`ladi. Shuningdek, qon oqimining qayta tiklanishi fibrinoliz jarayoni bilan

yakunlanadi. Har bir bosqich amalga oshish jarayonida qon va qon tomir devori orasida o`zaro bog`liqlik yuzaga keladi. [7,10,17]

Metabolik sindromi bo`lgan bemorlarda gemostaz sistemasidagi o`zgarishlarning yashash sharoitiga bog`liqligi hali to`liq o`rganilmagan masalalardan biri hisoblanadi. Ayniqsa, O`zbekiston sharoitida shahar va qishloq aholisining metabolik sindrom bilan kasallanish darajasi hamda buning natijasida kelib chiquvchi turli sistemalardagi o`zgarishlarning o`ziga xosligi yuzasidan bir qancha savollar ochiq qolmoqda.

Maqsad: Ortiqcha tana vazni bo`lgan shahar va qishloq aholisi orasidagi bemorlarning gemostaz sistemasidagi o`zgarishlarning o`ziga xosligini aniqlash.

Tadqiqot materiali va usullari: Tadqiqot uchun Kogon shahar va tuman tibbiyot birlashmalariga murojaat qilgan metabolik sindromi bo`lgan 60 nafar bemor tanlab olindi (30 nafar shahar va 30 nafar qishloq aholisi orasidan). Har bir bemorda antropometriya, umumiy qon tahlili, umumiy siydik tahlili, biokimyoviy qon tahlili, koagulogramma, glikogemoglobin miqdori, lipid spektrni aniqlash kabi laborator hamda elektrokardiografiya, ultratovush tekshiruvi (jigar, buyrak), oftalmoskopiya kabi instrumental tekshiruvlari o`tkazildi.

Tadqiqot natijalari: Tadqiqot uchun tanlab olingan bemorlar yoshi, jinsi, arterial gipertenziya darajasi, qandli diabet turi, gepatomegaliya aniqlanishiga ko`ra bir nechta guruhlarga bo`lindi. Unga ko`ra, 40-50 yoshdagilar 3 nafar, 51-60 yoshdagilar 20 nafar, 61 va undan katta yoshdagilar 37 nafarni tashkil qildi. Ulardan 53 % i (32 nafar) ayollar hissasiga to`g`ri keldi. Bemorlarning 22 nafarida 1-darajali, 30 nafarida 2-darajali, 8 nafarida esa 3-darajali arterial gipertenziya aniqlandi. II tip qandli diabet 7 nafar bemorda aniqlangan bo`lsa, 19 nafar bemorda obyektiv va instrumental tekshiruv natijasida 19 nafar bemorda gepatomegaliya aniqlandi. (jadval 1.)


Jadval 1.

Shahar va qishloq aholisining demografik ma`lumotlari

Belgilar	Yoshi			Jinsi		Arterial gipertenziya			Qandli diabet		Gepato-megaliya
	40-50	51-60	61 <	Ayol	Erkak	1-daraja	2-daraja	3-daraja	I tip	II tip	
Shahar aholisi	2	10	18	14	16	10	14	6	-	5	11
Qishloq aholisi	1	10	19	18	12	12	16	2	-	2	8

Jami:	3	20	37	32	28	22	30	8	-	7	19
-------	---	----	----	----	----	----	----	---	---	---	----

Bundan tashqari tana vazni indeksi (TVI)ni hisoblash natijalarini 4 guruhga bo'lish mumkin: 1.TVI 25-29 bo'lgan shaharda yashovchi bemorlar 4 nafar, qishloqda yashovchilar 3 nafar; 2.TVI 30-35 bo'lgan bemorlarning 23 nafari shaharda, 16 nafari qishloqda yashaydi; 3.TVI 36-39 bo'lgan bemorlardan 8 nafari shaharda, 3 nafari esa qishloq aholisidan; 4.TVI 40 va undan yuqori bo'lgan 3 nafar bemorning 2 nafari shaharda yashaydi. (1-rasm)



1-rasm. Tadqiqot uchun olingan aholining tana massasi indeksi bo'yicha qiyosiy tahlili

Tadqiqot uchun olingan aholining gemostaz sistemasidagi o'zgarishlar taqqoslanganda asosan ikkilamchi gemostazda o'zgarishlar kuzatildi. Protrombin vaqti shahar aholisida qisqargan, protrombin indeksi ham shahar aholisida oshgan, qisman aktivlangan tromboplastin vaqti esa qishloq aholisida qisqargan, fibrinogen miqdori ham qishloq aholisida qisqarganligini kuzatildi. Koagulogrammani umumiy baholaganimizga esa ushbu ko'rsatkichlab yig'ilib shahar aholisida giperkoagulyatsiya ko'proq kuzatilganligini ko'rsatadi.(2-jadval)

2-jadval

Shahar va qishloq aholisining gemostaz tizimini baholash

Tekshirilgan ko'rsatkichlar	PTI Σ	PTV Σ	ACHTV Σ	MNO Σ	Fibrinogen Σ	p
Shahar aholisida	77.12±1.2	14.34±0.55	31.64±1.25	1.33±0.21	4.9±0.78	p<0.05



Qishloq aholisida	71.55±3.5	14.7±0.42	28±2.56	1.33±0.28	4.5±0.92	p>0.05
-------------------	-----------	-----------	---------	-----------	----------	--------

Xulosa. Metabolik sindromning eng keng tarqalgan diagnostic kriteriysi bo`lgan tana vazni indeksi ham shahar aholisida yuqori ekanligi qayd etildi. Tadqiqot natijalariga ko`ra metabolic sindromning uchrash shakllari, gemostaz buzilishi bilan bog`liq asoratlari soni ham qishloq aholisiga nisbatan shahar aholisida ko`proq uchraydi.

Foydalanilgan adabiyotlar.

1. Boltayev K. J. et al. ASSESSMENT OF HEMODYNAMICS OF THE KIDNEYS IN YOUNG PATIENTS WITH ARTERIAL HYPERTENSION //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 4. – С. 720-725.
2. Boltayev K.J., Naimova Sh.A. Risk factors of kidney damage at patients with rheumatoid arthritis // WJPR (World Journal of Pharmaceutical Research). – 2019. Vol 8. Issue 13. – P. 229 – 235.
3. Naimova Sh.A. Principles of early diagnosis of kidney damage in patients of rheumatoid arthritis and ankylosing Spondylarthritis// British Medical Journal – 2021. April. Volume 1. Issue 1. – P. 5-11.
4. Sean Campbell, in Contemporary Practice in Clinical Chemistry (Fourth Edition), 2020
5. Александров О.В., Алехина Р.М., Григорьев С.П., Ежова И.С., Золкина И.В. Метаболический синдром // Российский медицинский журнал. - 2006. - №6. - С. 50-55.
6. Бутрова С.А. От эпидемии ожирения к эпидемии сахарного диабета // Consilium medicum. - 2003. – № 9. - С. 524-528
7. Макацария А.Д., Передеряева Е. Б., Пшеничникова Т.Б. Метаболический синдром и низкомолекулярные гепарины // Consilium medicum. - 2006. – № 6. - С. 35-41.
8. Мамедов М.Н., Оганов Р.Г. Эпидемиологические аспекты метаболического синдрома // Кардиология. - 2004. - № 9. - С. 4-8
9. Сибирский медицинский журнал № 4 2007. Е.М. Идрисова, Э.А. Бушкова, Н.М. Краснова, Е.И. Мананко, Т.П. Калашникова, Е.В. Воробьева, Т.Е. Сусллова, И.В. Кулагина
10. Сулаймонова Г.Т., Амонов М.К., Рахмонова К.Э. Частота выявляемости факторов риска хронической болезни почек у сельского населения. // Вестник науки и образования № 24(102). Часть 2. 2020. Стр 79-85.
11. Anvarovna N. S. Features Of Kidney Damage at Patients with Ankylosing Spondylarthritis //Texas Journal of Medical Science. – 2021. – T. 3. – С. 18-22.
12. Алиахунова М. Ю., Наимова Ш. А. FEATURES OF KIDNEY DAMAGE AT PATIENTS WITH RHEUMATOID ARTHRITIS //Новый день в медицине. – 2020. – №. 2. – С. 47-49.
13. Sulaymanova G. T., Amonov M. K. Regional Causes of Iron Deficiency Anemia, Pathogenesis And Use Of Antianemic Drugs // The American Journal of Medical



- Sciences and Pharmaceutical Research (ISSN – 2689-1026) – 2021. April 30 – P. 165-170.
14. Sulaymonova Gulnoza Tulkinjanovna, Raufov Alisher Anvarovich. The influence of deficiency of microelements in children with bronchial hyperreactivity // ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal (ISSN: 2249-7137) – 2020. April – Vol. 10, Issue 4, April – P. 846-853.
 15. Naimova N. S. et al. Features of coagulation and cellular hemostasis in rheumatoid arthritis in patients with cardiovascular pathology // Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR). – 2019. – T. 8. – №. 2. – С. 157-164.
 16. Наимова Ш. А. The degree of secondary osteoporosis in rheumatological patients and ways of its prevention // Новый день в медицине. – 2020. – №. 1. – С. 56-58.
 17. Зиновкина В.Ю., Висмонт Ф.И., Касап В.А. 3 – 63 Нарушения гемостаза: Метод. реком. – Мн.: МГМИ, 2000. - с.

KAMBAGALLIKNI QISQARTIRISH VA MAQSADLI IJTIMOYIY DASTURLAR

Do'stov Baxodir Tashpulatovich

**Kattaqo'rg'on Abu Ali ibn Sino nomidagi
jamoat salomatligi texnikumi ijtimoiy fan o'qituvchisi**

Annotatsiya: Mazkur maqolada kambag'allikning oldini olish chora-tadbirlari, oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish va kichik biznesni rivojlantirishning ilmiy asoslari, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, tadbirkorlik, oilaviy biznes, daromad manbai, bandlik, ishsizlik, so'rovnoma.

Dunyo bo'yicha kambag'allik – yirik muammolardan biri bo'lib, uning sabab va oqibatlari birgina davlatning yechimi bilan cheklanmaydi. Kambag'allik va uning oqibatlaridan aziyat chekadigan aholi qatlamlarining turmush darajasini oshirish va hayotini barqarorlashtirish, zaruriy shart-sharoitlar bilan ta'minlash borasidagi harakatlar dunyo hamjamiyati diqqat markazidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

2020 yilning 24 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida muhtaram Prezidentimizning eng nufuzli minbarda ilk marotaba sof ona tilimizda yangragan nutqlari ayni paytdagi dunyo voqeyligini real aks ettirgani, keltirilgan tahlil va takliflar o'z asosiga ega ekanligi bilan jozibadordir.

Zotan, Davlatimiz rahbari o'z nutqlarida “Tobora tashvishli ohang kasb etayotgan qashshoqlikning ovozi butun dunyo hamjamiyatini, barchamizni bezovta qilishi zarur” deb ta'kidladilar. Bu bejiz emas, albatta. Binobarin, davlatimiz rahbari tomonlaridan kambag'allikni qisqartirish masalasini global miqyosda olib chiqilishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, BMT, Jahon banki kabi qator xalqaro tashkilotlari so'nggi 30 yil mobaynida global miqiyosda kambag'allikni qisqartirish borasida ijobiy natijaga ega bo'lib, ularda yetarli tajriba va yo'nalishlar bazasi shakllandi.

Kambag'allikni qisqartirish muammosi aynan iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlari nisbatan cheklangan hamda institutsional bazaning yetarli darajada rivojlanmagan

mamlakatlarda kuzatiladi. Shu sababli, mazkur xalqaro tashkilotlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'rsatilayotgan moliyaviy va amaliy ko'mak kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, global tus olgan koronavirus pandemiyasi butun dunyoda nafaqat kambag'allik, balki qashshoqlik darajasining oshib ketishi xavflarini kuchaytirmoqda.

Umuman olganda, dunyoda kambag'allik darajasining oshib ketishi:

(a) yangi turdagi (yoki boshqa) yuqumli kasalliklarning avj olishi va keng tarqalishiga:

(b) odamlarning moddiy ahvoli yoki inson kapitalining yomonlashuvi oqibatida qator mamlakatlarda rivojlanish istiqbollarinin salbiy tomonga o'zgarishi, ularda nobarqarorlik xatarlarining kuchayishi va ushbu muammolarning global tus olishiga olib kelishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasida bo'lganlar mamlakatimiz jami aholisining taxminan 12-15 foizini, ya'ni, 4-5 mln. kishini tashkil etmoqda. Bu 4-5 mln. aholining bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmaydi, ayniqsa, bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lgani bilan, oila daromadining kamida 70 foizi shu oilada biror kishi og'ir kasal bo'lganda, uni davolatishga sarflanadi. Bunday muammolarni hal etishga, umuman iqtisodiy taraqqiyotga erishish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi tizimni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4653- sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

Hozirda mazkur yo'nalishda tizimli, ya'ni, aholi kambag'al qatlamining: doimiy daromad manbaini yaratish; davr talabidan kelib chiqib inson kapitalini rivojlantirish; to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash kabi ta'sirchan mexanizmlar orqali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo mazkur muammo bugungi pandemiya sharoitida keskin tus olib, global miqyosda yechimini talab qiladigan masalalar sirasiga aylandi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni BMT Bosh Assambleyasi



navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazish taklifi judayam o'rinli va dolzarbdir. Bunda, nazarimizda, eng nozik nuqtalardan biri, bu – dunyoning ko'pgina nuqtalarida notinchlik va jiddiyatlar, ekologik xatarlarning ko'payishi oqibatida dunyo mamlakatlari, xalqlari taqdirining tobora bir-biriga bog'lanib borayotganligiga alohida urg'u berilganligi hamdir.

Bugungi kunda 2021-2030 yillarda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi ishlab chiqilib, mazkur strategiya ikki bosqichda – qisqa va o'rta (2021-2025 yy.) hamda uzoq (2026-2030 yy.) muddatlarda amalga oshirilishi belgilanmoqda. Ushbu bosqichlarda nazarda tutilgan masalalar doirasida quyidagi maqsadli indikatorlarga erishish belgilangan:

- kambag'al aholining ish bilan bandligiga to'liq erishish, bunda bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali yiliga 100 mingdan ortiq ehtiyojmand va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan fuqarolar uchun ish o'rinlarini kvotalash;

- o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan kambag'al aholi qatlamlarining 50 ming nafarini ro'yxatga olish, faoliyatini boshlash, mehnat qurollari sotib olishi va boshqa maqsadlar uchun subsidiyalar ajratish;

- kambag'al aholi qatlamini kasb-hunar, xorijiy til va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish hamda tanlagan yo'nalishi bo'yicha mikrokreditlar ajratish orqali faoliyatini boshlashi yordamida 50 ming nafar kambag'al aholi bandligini ta'minlash.

Axir, chindan ham tiriklik qonuniyati shunday: insoniyat yashashi, mehnat qilishi mumkin bo'lgan yagona makon, bu – Yer Shari, undagi kishilik jamiyatining asosiy maqsadi esa bitta – Tinch, Xotirjam, Farovonlikda umrguzaronlik qilishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Mir, dostoinstvo i ravenstvo na zdorovoy planete. Likvidatsiya niщety. OON // <https://www.un.org/ru/global-issues/ending-poverty>
2. Мировые тенденции развития предпринимательской деятельности в экономике зарубежных стран. <https://articlekz.com/article/15307>



3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida" gi PQ-4653-sonli qarori.

4. Tadbirkorlikni rivojlantirish va kasbga o'qitish orqali kambag'allikni kamaytirish choralari belgilandi. <https://uznews.uz/uz/article/29424/>

KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA MAQSADLI IJTIMOYIY DASTURLAR

Do'stov Baxodir Tashpulatovich

Kattaqo'rg'on Abu Ali ibn Sino nomidagi

jamoat salomatligi texnikumi ijtimoiy fan o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada kambag'allikning oldini olish chora-tadbirlari, oilalarning doimiy daromad manbaini yaratish va kichik biznesni rivojlantirishning ilmiy asoslari, bu borada amalga oshirilayotgan islohotlar haqida fikrlar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: kambag'allik, tadbirkorlik, oilaviy biznes, daromad manbai, bandlik, ishsizlik, so'rovnoma.

Dunyo bo'yicha kambag'allik – yirik muammolardan biri bo'lib, uning sabab va oqibatlari birgina davlatning yechimi bilan cheklanmaydi. Kambag'allik va uning oqibatlaridan aziyat chekadigan aholi qatlamlarining turmush darajasini oshirish va hayotini barqarorlashtirish, zaruriy shart-sharoitlar bilan ta'minlash borasidagi harakatlar dunyo hamjamiyati diqqat markazidagi dolzarb masalalardan biri bo'lib kelmoqda.

2020 yilning 24 sentyabr kuni Birlashgan Millatlar Tashkiloti Bosh Assambleyasining 75-sessiyasida muhtaram Prezidentimizning eng nufuzli minbarda ilk marotaba sof ona tilimizda yangragan nutqlari ayni paytdagi dunyo voqeeligini real aks ettirgani, keltirilgan tahlil va takliflar o'z asosiga ega ekanligi bilan jozibadordir.

Zotan, Davlatimiz rahbari o'z nutqlarida “Tobora tashvishli ohang kasb etayotgan qashshoqlikning ovozi butun dunyo hamjamiyatini, barchamizni bezovta qilishi zarur” deb ta'kidladilar. Bu bejiz emas, albatta. Binobarin, davlatimiz rahbari tomonlaridan kambag'allikni qisqartirish masalasini global miqyosda olib chiqilishi quyidagi sabablar bilan izohlanadi:

Birinchidan, BMT, Jahon banki kabi qator xalqaro tashkilotlari so'nggi 30 yil mobaynida global miqyosda kambag'allikni qisqartirish borasida ijobiy natijaga ega bo'lib, ularda yetarli tajriba va yo'nalishlar bazasi shakllandi.

Kambag'allikni qisqartirish muammosi aynan iqtisodiy-moliyaviy imkoniyatlari nisbatan cheklangan hamda institutsional bazaning yetarli darajada rivojlanmagan

mamlakatlarda kuzatiladi. Shu sababli, mazkur xalqaro tashkilotlar tomonidan rivojlanayotgan mamlakatlarga ko'rsatilayotgan moliyaviy va amaliy ko'mak kambag'allikni qisqartirishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Ikkinchidan, global tus olgan koronavirus pandemiyasi butun dunyoda nafaqat kambag'allik, balki qashshoqlik darajasining oshib ketishi xavflarini kuchaytirmoqda.

Umuman olganda, dunyoda kambag'allik darajasining oshib ketishi:

(a) yangi turdagi (yoki boshqa) yuqumli kasalliklarning avj olishi va keng tarqalishiga:

(b) odamlarning moddiy ahvoli yoki inson kapitalining yomonlashuvi oqibatida qator mamlakatlarda rivojlanish istiqbollarinin salbiy tomonga o'zgarishi, ularda nobarqarorlik xatarlarining kuchayishi va ushbu muammolarning global tus olishiga olib kelishi mumkin.

Olib borilgan tadqiqotlarga ko'ra, O'zbekistonda kambag'allik darajasida bo'lganlar mamlakatimiz jami aholisining taxminan 12-15 foizini, ya'ni, 4-5 mln. kishini tashkil etmoqda. Bu 4-5 mln. aholining bir kunlik daromadi 10-13 ming so'mdan oshmaydi, ayniqsa, bir oilada mashina ham, chorva ham bo'lgani bilan, oila daromadining kamida 70 foizi shu oilada biror kishi og'ir kasal bo'lganda, uni davolatishga sarflanadi. Bunday muammolarni hal etishga, umuman iqtisodiy taraqqiyotga erishish bo'yicha munosabatlarni tartibga soluvchi tizimni tashkil etish maqsadida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi "O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to'g'risida"gi PQ-4653- sonli Qaroriga muvofiq O'zbekiston Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambag'allikni qisqartirish vazirligi sifatida qayta tashkil etildi.

Hozirda mazkur yo'nalishda tizimli, ya'ni, aholi kambag'al qatlamining: doimiy daromad manbaini yaratish; davr talabidan kelib chiqib inson kapitalini rivojlantirish; to'g'ridan-to'g'ri qo'llab-quvvatlash kabi ta'sirchan mexanizmlar orqali chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. Ammo mazkur muammo bugungi pandemiya sharoitida keskin tus olib, global miqyosda yechimini talab qiladigan masalalar sirasiga aylandi.

Shu ma'noda, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning qashshoqlikni tugatish va kambag'allikka qarshi kurashishni BMT Bosh Assambleyasi



navbatdagi sessiyasining asosiy mavzularidan biri sifatida belgilash hamda ushbu masalalarga bag'ishlangan global sammitni o'tkazish taklifi judayam o'rinli va dolzarbdir. Bunda, nazarimizda, eng nozik nuqtalardan biri, bu – dunyoning ko'pgina nuqtalarida notinchlik va jiddiyatlar, ekologik xatarlarning ko'payishi oqibatida dunyo mamlakatlari, xalqlari taqdirining tobora bir-biriga bog'lanib borayotganligiga alohida urg'u berilganligi hamdir.

Bugungi kunda 2021-2030 yillarda O'zbekistonda kambag'allikni qisqartirish strategiyasi ishlab chiqilib, mazkur strategiya ikki bosqichda – qisqa va o'rta (2021-2025 yy.) hamda uzoq (2026-2030 yy.) muddatlarda amalga oshirilishi belgilanmoqda. Ushbu bosqichlarda nazarda tutilgan masalalar doirasida quyidagi maqsadli indikatorlarga erishish belgilangan:

- kambag'al aholining ish bilan bandligiga to'liq erishish, bunda bosqichma-bosqich amalga oshirish orqali yiliga 100 mingdan ortiq ehtiyojmand va mehnat bozorida teng shartlarda raqobatlasha olmaydigan fuqarolar uchun ish o'rinlarini kvotalash;

- o'zini o'zi band qilish istagida bo'lgan kambag'al aholi qatlamlarining 50 ming nafarini ro'yxatga olish, faoliyatini boshlash, mehnat qurollari sotib olishi va boshqa maqsadlar uchun subsidiyalar ajratish;

- kambag'al aholi qatlamini kasb-hunar, xorijiy til va tadbirkorlik ko'nikmalariga o'qitish hamda tanlagan yo'nalishi bo'yicha mikrokreditlar ajratish orqali faoliyatini boshlashi yordamida 50 ming nafar kambag'al aholi bandligini ta'minlash.

Axir, chindan ham tiriklik qonuniyati shunday: insoniyat yashashi, mehnat qilishi mumkin bo'lgan yagona makon, bu – Yer Shari, undagi kishilik jamiyatining asosiy maqsadi esa bitta – Tinch, Xotirjam, Farovonlikda umrguzaronlik qilishdir.

ADABIYOTLAR:

1. Mir, dostoinstvo i ravenstvo na zdorovoy planete. Likvidatsiya niщety. OON // <https://www.un.org/ru/global-issues/ending-poverty>
2. Мировые тенденции развития предпринимательской деятельности в экономике зарубежных стран. <https://articlekz.com/article/15307>



3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 26 martdagi “O‘zbekiston Respublikasi iqtisodiy taraqqiyot va kambag‘allikni qisqartirish vazirligi hamda uning tizim tashkilotlari faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida” gi PQ-4653-sonli qarori.

4. Tadbirkorlikni rivojlantirish va kasbga o‘qitish orqali kambag‘allikni kamaytirish choralari belgilandi. <https://uznews.uz/uz/article/29424/>

MATRITSA ARGUMENTLI FUNKSIYALARNING SKALYAR ARGUMENTLI FUNKSIYALAR BILAN BOG'LIQLIGI MASALASI

Mehrochev Barot Botir o'g'li

Qarshi irrigatsiya va agrotexnologiyalar instituti

Annotatsiya: Matritsa argumentlari bo'lgan funksiyalarni bir necha usul bilan aniqlash mumkin, ya'ni ular komponent matritsalarini, qatorlar va integral ifodalar sifatida belgilanishi mumkin. Ifodaning funksiyalarini qatorlar bo'yicha ko'rib chiqamiz

Kalit so'zlar: *matritsa, xos son, qator, funksiya, argument, matritsa spektri, ko'phad, interpolatsion ko'phad, ko'paytirish, qo'shish amali*

ЗАДАЧА О СВЯЗНОСТИ ФУНКЦИИ МАТРИЧНЫХ АРГУМЕНТОВ С ФУНКЦИЯМИ СКАЛЯРНЫХ АРГУМЕНТОВ

Мехрочев Барот Ботир ўгли

Каршинский институт ирригации и агротехнологий

- 9 Sobirovna, Q. D., Abdugafarovich, S. A., & Bulturbayevich, M. B. (2019). Improvement of the strategy of vertical integration in industrial enterprises. *American Journal of Economics and Business Management*, 2(3), 63-68.
- 10 Косимова, Д. (2020). A Improvement of the strategy of vertical integration in industrial enterprises. *Архив научных исследований*, (13).
- 11 Kosimova, D. S., & Adashev, A. U. (2019). Directions to increase productivity competitiveness in industrial enterprises. *Economics and Innovative Technologies*, 17.
- 12 Sobirovna, K. D., Gafurovich, A. N., & Abdugafarovich, S. A. (2021). Forming A Management System Of Organizational Culture Of The Enterprise. *NVEO-NATURAL VOLATILES & ESSENTIAL OILS Journal| NVEO*, 4271-4278.



BOSHLANGICH SINIF O'QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FIKRLARI

Karimova Ozoda Choriyevna
Denov tumani, Tadbirkorlik va pedagogika institutining
“Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi”
yo’nalishi 1 kurs magistranti

Annotatsiya: maqolada hozirgi davr pedagogika nazariyasi talablaridan kelib chiqib bo‘lajak o‘qituvchilik kasbiga tayyorlanishning ahloqiy-kasbiy jihatlari, pedagogik deontologiyaning xususiyatlari, mazmuni, mohiyati nazariy jihatdan yoritilgan.

Kalit so‘zlar: o‘qituvchi, odob-ahloq, pedagogok, kasbiy etika, xulq-atvor, deontologiya, kompetentlik, konsepsiya, ta’lim, pedagogika nazariyasi, ta’limot.

O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan tub islohotlar, jamiyatda o‘ziga xos ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy rivojlanish yo‘lining tanlab olinishi, shuningdek, 08.10.2019 yildagi PF-5847 “O‘zbekiston respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonda belgilanlan vazifalar asosida jahon talablariga muvofiq keluvchi, uzluksiz ta’lim tizimini shakllantirish uchun qulay shart-sharoit yaratdi. Ta’lim sohasida olib borilayotgan hamda aniq maqsadga yo‘naltirilgan davlat siyosati ijtimoiy jamiyat taraqqiyotini ta’minlovchi ustuvor yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda.

Bu yo‘nalishda amalga oshiriladigan muhim tadbirlar qatorida mutaxassislarining yangi avlodini shakllantirish, ma’naviy-axloqiy jihatdan yetuk, mustaqil dunyoqarashga ega, ijodiy fikrlovchi, boy milliy meros, shuningdek, umuminsoniy va milliy qadriyatlarga sadoqatli barkamol shaxsni tarbiyalab, voyaga yetkazish vazifalari belgilangan.

Jamiyatda amalga oshirilayotgan islohotlar talablariga to‘la javob beruvchi, ishlab chiqarish sohasida yuzaga kelgan raqobatga bardoshli, keskin o‘zgarishlarga moslasha oluvchi, shuningdek, mehnat bozorida mutaxassislar malakasiga qo‘yilayotgan talablar darajasida samarali faoliyat yurituvchi shaxsni shakllantirish bugunning dolzarb muammo hisoblanadi.



Mutaxassislarni kasbiy tayyorgarligiga qo'yilayotgan talablar bu borada quyidagi ziddiyatlarning mavjudligini ko'rsatmoqda:

- kasbiy faoliyatning turli yo'nalishlarida talabalarning faol ta'lim olish shakllariga bo'lgan ehtiyoji va ijtimoiy zaruriyatning to'la qondirilmayotganligi, shuningdek, pedagogik maslahat hamda psixologik yordam bilan shug'ullanuvchi mutaxassislar mazkur yo'nalishdagi o'quv-tarbiyaviy ishlarni tashkillashtirish uchun yetarli darajada kasbiy-pedagogik tayyorgarlikka ega emasliklari;

- soha mutaxassislarini kasbiy shakllantirishda talabalar tomonidan ta'lim tamoyillari, mazmuni, metodi va zamonaviy vositalarini mustaqil tanlashlari uchun zarur shart-sharoit yaratilmaganligi hamda bilim va ko'nikmalarning shakllantirilmaganligi;

- oliy ta'lim tizimida bakalavr o'qituvchilarni tayyorlash o'quv rejaları fanlarni bloklararo, blokning ichida va predmet doirasida integratsiyalash kasbiy pedagogik ta'limning asosiy maqsadlariga muvofiq ijtimoiy va shaxsiy tajribaning mohiyati, ijtimoiy jamiyatda kasbiy faoliyatni tashkil etish jarayonida hayotiy ko'nikmalarni egallashga imkon beruvchi asosiy turlari yetarlicha emasligi;

O'qituvchi kasbiy va shaxsiy faoliyatidagi to'siqlar, turli xil konfliktlarni yetarlicha bartaraf etishda albatta, pedagogik deontologiya va kompetentlik juda muhimdir.

“Deontologiya” so‘zi deontos – “shart”, “burch”, logos – “ta’limot”, degan ma’noni anglatib, ingliz faylasufi Dj.Bentam mazkur tushunchani ilmiy jihatdan asoslagan¹. Uning “Deontology of science of morally”² asarida deontologiya ya’ni, inson axloqi, etikasi haqidagi ilmiy fikrlar bayon qilingan. Keyinchalik Dj.Bentam tomonidan tavsiya qilingan “deontologiya” fanidagi g‘oyalar nemis faylasufi I.Kant tomonidan rivojlantirildi, u deontologiyani “etika bu burch, majburiyat etikasidir” deb ta’rifladi.

Dastlab deontologiya so‘zi tor ma’nodan insonning Ollohga ishonchi, keyinchalik esa keng ma’nodan ishlatilib, insonning majburiyatlarini ifodalovchi tushuncha sifatida izohlangan. Bugungi kunda “Deontologiya” inson tomonidan talab darajasida xulq normalarini va qoidalarini o‘rgatuvchi fandır. Deontologiya so‘zi kasbiy etikada keng qo‘llanilib har bir kasb doirasida kasbning odob, xulq, qonunchilik, sud, pedagog, quruvchi, hamda davlat boshqaruvi tizimida burch, odob-axloq normalarini ifodalaydi.



Pedagogik odobni, burchni egallashda, guruhli va ommaviy tadbirlarda ishtirok etish ijobiy natijalar beradi. Bunday muhitda o'zaro fikr almashish shaxsiy mulohazalarni boshqalar tomonidan bildirayotgan qarashlar bilan taqqoslash ularning to'g'riligi, haqqoniyligiga ishonch hosil qilish mavjud bilimlarni yanada boyitishga imkoniyat yaratadi.

Kasbiy mahoratni oshirish yo'lida amaliy harakatlarni tashkil etish pedagogik faoliyatda odob, axloq, burch va majburiyatlarni yuqori darajada his etish va unga amal qilish haqida sharq mutafakkirlari Abu Nasr Farobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Alisher Navoiy, Abdulla Avloniy, Yan Amos Komenskiy, zamonaviy pedagog olimlarimiz Malla Ochilov, Xolboy Ibragimov, Dilnoz Ro'ziyeva, Begzod Xodjayev, Oynisa Musurmonova va boshqalar o'qituvchilik kasbi, uning mashaqqatlari, shuningdek, o'qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo'lgan sifatlar xususidagi fikrlarini bayon qilganlar.

“Pedagogik jarayonning mohiyatini anglamagan, bolaga nisbatan chuqur hurmatda bo'lmagan shaxs ta'lim-tarbiya samaradorligini va inson kamolotini ta'minlovchi fikrga ega bo'lmaydi”, – deb ta'kidlaydi O.Musurmonova o'zining pedagogik mulohazalarida. Yuqoridagi fikrlarga tayanib deontologiya fani qoidalariga asoslanib o'qituvchilarimizga quyidagi maslahatni tavsiya qilamiz:

- a) o'qituvchilik kasbining asosiy burchi va uning mazmuniga e'tibor berish;
- b) qo'yilgan talablarning bajarilishida pedagogik xulq-atvor muhim ekanligini inobatga olish. Har bir vazifani bajarilishi o'qituvchining axloqiy qoidalari va me'yorlariga mos kelishi.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida inson turmushining barcha sohalarida kishining xulqi, hatti-harakatlarini tartibga soluvchi, boshqarib turuvchi qoidalar, tamoyillar, yo'l-yo'riqlar, mezonlar, normalar hamda pand-nasihatlar majmuidan iboratdir. Kishilik jamiyatlaridan barchamizga ma'lumki, insonlarga yaxshilik qilish, to'g'ri so'z bo'lish, botirlik, kamtarlik, halollik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik kabi axloqiy fazilatlar doimo e'zozlangan. Inson mehnat faoliyatini ma'lum bir soha bilan shug'ullanuvchi kishilarga taalluqli axloqiy talablar asosida faoliyat olib boradi. O'qituvchilik kasbi faxrli, obro'li el-yurt nazariga tushgan kasblardan biridir. Xalqimiz o'qituvchilar mehnatini doimo



hurmat qiladi, ardoqlaydi. Chunki o'qituvchilarning ko'pchiligi o'z burchini, majburiyatini chuqur his etadi va fidoyilik bilan xalqimizning kelajagi bo'lgan yoshlar tarbiyasida faol qatnashmoqdalar.

“O'qituvchi odobining normalari har bir muallimning shaxsiy fikri, axloqiy fazilati va e'tiqodiga aylanishi lozim. Axloqiy e'tiqod va sifatlar o'qituvchining dars berish jarayonida, tarbiyaviy ishlarida, o'quvchilar, ota-onalar va boshqa kishilar bilan muomala munosabatlarida kundalik turmushda o'zining shaxsiy namunasi bilan axloqiy ta'sir o'tkazishda ko'zga tashlanadi. O'qituvchi odobining asosiy sifatleri umuminsoniy va milliy axloqiy fazilat tushunchalariga mos keladi. Insonparvarlik, vatanparvarlik, milliy g'urur, burch, qadr-qimmat, mas'uliyat, vijdon, halollik, rostgo'ylik, poklik, talabchanlik kabi axloqiy sifatlar o'qituvchi odobida pedagoglik faoliyati bilan tahlil qilinadi.

O'tmishda buyuk allomalarimiz, yuksak darajadagi ma'naviyat, axloq-odob saboqlarini berganliklari, Vatan, xalq istiqboli, farovon turmush, halol mehnat, fan taraqqiyoti, inson mehnati, atrof-muhitga oqilona munosabat haqidagi o'z qarashlarini bayon qilib berganliklariga guvoh bo'lamiz.

Mana shunday mangu allomalar jumlasiga Ahmad Yassaviyni kiritish mumkin. Xoja Ahmad Yassaviy o'zining ma'naviy-axloqiy qarashlari bilan bugungi kunda ham pedagogika faniga beqiyos qo'sha olganligi olib borilgan izlanishlardan ayon bo'lmoqda. “Xoja Ahmad Yassaviyning nuqtai nazariga ko'ra ayyorlik, gunohlarni yashirish o'zgalarga xiyonat hisoblanadi. Bu fikrlari bilan Xoja Ahmad Yassaviy rostgo'ylik, halollik, o'z-o'ziga talabchanlikni targ'ib qiladi. Zahmat chekkan odam sabrli, bardoshli, irodali bo'ladi, degan fikrni ilgari suradi. Hushyorlik shaxsni faol harakat qilishga undaydi. Xoja Ahmad Yassaviy hikmatlari o'quvchi shaxsini xushyorlikka, faol harakatlanishga, fitnalardan, fisqu fasod ishlardan o'zini olib qochishga undaydi”. Shuning uchun ham ta'lim tarbiya jarayonida ulardan keng foydalanish maqsadga muvofiq hisoblanadi.

Yana bir yiriq allomalardan biri Burxoniddiy Marg'inoniydir. Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida diyonat, iymon, vijdon, burch, insoniylik xususidagi g'oyalari shaxsni har tomonlama va uyg'un rivojlantirishning asosiy vositasi bo'lib xizmat qilgan. Shu jihatdan qaraganda XXI asrda yashagan islom



ta'limotining yirik nomoyondasi Burxoniddiy Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlarida erkinlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, iymon-e'tiqod, halollik, axloqiy poklik, odillik, birodarlik, bilimlilik, mustaqil fikr hislatlari asosiy o'rinni egallaydi. Alloma Marg'inoniy o'zining axloqiy-huquqiy qarashlari bilan xalqimiz ma'naviyatini rivojlantirishga, musulmon dunyosi madaniyatining taraqqiyotiga hamda ijtimoiy pedagogik fikr rivojiga salmoqli hissa qo'shgan.

Taniqli o'zbek pedagogi Abdulla Avloniy "Tarbiya biz uchun yo hayot – yo mamot, yo najot - yo halokat, yo saodat - yo falokat masalasidir" deb yozgan edi.

Mashoyixlarning aytishlaricha, "har bir millatning saodati, davlatlarning tinch va rohati yoshlarning yaxshi tarbiyasiga bog'liqdur".

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev yoshlar tarbiyasiga alohida to'xtalib: "Bolalarimizni birovlarining qo'liga berib qo'ymasdan, ularni o'zimiz tarbiyalashimiz lozim. Buning uchun yoshlarimiz bilan ko'proq gaplashish, ularning qalbiga quloq solish, dardini bilish, muammolarini echish uchun amaliy ko'mak berishimiz kerak. Bu vazifalarni amalga oshirishda biz asrlar mobaynida shakllangan milliy an'analarimizga, ajdodlarimizning boy merosiga tayanamiz". Biz ta'lim va tarbiya tizimining barcha bo'g'inlari faoliyatini bugungi zamon talablari asosida takomillashtirishni o'zimizning birinchi darajali vazifamiz deb bilamiz. Yosh avlod tarbiyasi haqida gapirganda, Abdurauf Fitrat bobomizning mana shu fikrlariga har birimiz, ayniqsa, endi hayotga kirib kelayotgan o'g'il-qizlarimiz amal qilishlarini men juda-juda istardim. Mana, ulug' ajdodimiz nima deb yozganlar: "Xalqning aniq bir maqsad sari harakat qilishi, davlatmand bo'lishi, baxtli bo'lib izzat-hurmat topishi, jahongir bo'lishi yoki zaif bo'lib xorlikka tushishi, baxtsizlik yukini tortishi, e'tibordan qolib, o'zgalarga tobe va qul, asir bo'lishi ularning o'z ota-onalaridan bolalikdan olgan tarbiyalariga bog'liq" deya ta'kidlab o'tdi.

Qayd etilgan fikrlardan shunday xulosa qilish mumkinki, bugungi kun o'qituvchi-tarbiyachisi o'z ixtisosligi bo'yicha yuksak insoniy fazilat, kasbiy xulq-atvor, pedagogik mahorat va pedagogik etika egasi bo'lmog'i darkor. Shu bois oliy pedagogik ta'lim maktablarida pedagogika, psixologiya, metodika fanlari yo'nalishlari bo'yicha ma'lumot berish bilan birga, ularga kasbiy xulq-atvor, pedagogik deontologiyasi va kompetentlikni,



o'qituvchi-tarbiyachilik etikasi bo'yicha ma'lumotlar berish zaruriyati davr talabiga aylanmoqda.

Adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrdagi "Ta'lim to'g'risida"gi O'RQ-637-son qonuni. – <https://lex.uz/docs/5013007>
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirishning bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni. - <https://lex.uz/docs/3107036>
3. Ochilov M. Muallim – qalb me'mori. - T.: "O'qituvchi", 2001. 34-35 betlar
4. Bentham J. Deontology // Bentham J. Deontology together with a Table of the Springs of Action and the Article of Utilitarianism. – Oxford: Clarendon Press, 1983, p. 119-281.
5. Haydarov. A.Inson kamoloti va milliy-ma'naviy qadriyatlar. T.: Muharrir, 2018 y.
6. M.Shoxadjayev. Burxoniddin Marg'inoniyning axloqiy-huquqiy tarbiyaga oid qarashlari. Avtoreferat. T.: 2016 y.
7. Z.B.Jalilov. Sharq mutafakkirlari merosini o'rganishning didaktik metodlari. Zamonaviy ta'lim jurnali. 2017 yil, 5-son.

SANOATDA KIMYOVIY MODDALARNING O'RNI

Ganiyev A'lobek G'ulom o'g'li

Nizomiy nomidagi TDPU, 4-kurs talabasi

Mamadaliyeva Nodira Isakovna

Nizomiy nomidagi TDPU, dots.v.b., PhD

n.mamadaliyeva@yandex.ru

Annotatsiya: *Mazkur maqolada sanoatda ishlatiladigan moddalar, kimyoviy texnologiya usullari, qayta ishlab, iste'mol mahsulotlari va ishlab chiqarish vositalari haqida qisqacha bayon etilgan.*

Kalit so'zlar: *texnologiya, iqtisodiy, ekologik, sxema, metallurgiya, plastmassa, kimyoviy tolalar.*

Abstract: *This article briefly describes substances used in industry, methods of chemical technology, processing, consumer products, and production tools.*

Key words: *technology, economic, ecological, scheme, metallurgy, plastic, chemical fibers.*

Kimyoviy texnologiya - tabiiy [xomashyo](#), sanoat chiqindilari, shuningdek, sintetik yarim mahsulotlarni kimyoviy yo'l bilan qayta ishlab, iste'mol mahsulotlari va ishlab chiqarish vositalariga aylantirishning iqtisodiy va ekologik jihatdan qulay usullari va jarayonlari haqidagi fan. Kimyoviy texnologiya usullari va jarayonlarining fizik-kimyoviy sharoitlarini tekshirish, texnologik jarayonlarning sxemalarini ishlab chiqish, asbob va uskunalarning tuzilishi va ularni tayyorlash uchun zarur materiallarni aniqlash Kimyoviy texnologiyaning vazifasidir. Har qanday Kimyoviy texnologiya jarayonining asosiy elementlari — xomashyo, energiya, asbob va uskunalardir. Kimyo, metallurgiya, qurilish materiallari, yoqilg'i, to'qimachilik, kon, oziq-ovqat va boshqa sanoat tarmoqlarida Kimyoviy texnologiya usullaridan foydalaniladi. Bundan tashqari, ishlab chiqarish usullari va jarayonlarining umumiy, muhim asoslari va qonuniyatlarini o'rganadigan umumiy Kimyoviy texnologiya ham mavjud. Kimyoviy texnologiya tayyor mahsulot olish maqsadida xomashyo [va yarim mahsulotni tayyorlash](#), uning holati, xossalari, shaklini

ma'lum ishlab chiqarish vositalari yordamida o'zgartirish usullari va jarayonlarini o'rganadi. Kimyoviy texnologiya anorganik moddalar texnologiyasi (kislota, ishqor, soda, tuz, mineral o'g'itlar va boshqa sanoati) va organik moddalar texnologiyasi (sintetik kauchuk, plastmassa, kimyoviy tolalar, bo'yagich moddalar, spirt, organik kislotalar va boshqa sanoati)ga bo'linadi.

1. Mexanik va gidromexanik jarayonlar - materiallarni ko'chirish, ularning shakli va o'lchamlarini o'zgartirish, oqimlarni siqish kengaytirish aralashtirish va ajratish. Ularning barchasi qayta ishlangan materialning kimyoviy va o'zgarishlar tarkibini o'zgartirmasdan davom etadi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirish uchun konveyerlar, oziqlantiruvchi, maydalagichlar, disperserlar, qoliplar, kompressorlar, nasoslar, mikserlar, filtrlar va boshqalarni misol keltirishimiz mumkin.

2. Issiqlik almashinuvi jarayonlari-isitish, sovutish, o'zgarishlar holatini o'zgartirish. Ularda kimyoviy va o'zgarishlar tarkibi o'zgarmaydi. Ular [issiqlik almashinuvchilari](#), kondensatorlar, qozonxonalar, sublimatorlarda o'tadi.

3. Modda almashinish jarayonlar- bir yoki bir necha komponentlarning bir fazadan fazalarni ajratuvchi yuza orqali ikkinchi fazaga o'tishidir. Komponentlar bir fazadan ikkinchi fazaga molekulyar va turbulent diffuziyalar yordamida o'tadi. Shu sababli bu jarayonlar diffusion jarayonlar ham deyiladi. Bu guruhga adsorblash suyuqliklarni haydash ekstraksiyalash, quritish jarayonlari.

4. Kimyoviy jarayonlar-moddalarning kimyoviy tarkibi o'zgarishi bilan bog'liq jarayonlar; bu jarayonlar kimyoviy reaktorlarda amalga oshiriladi. Kimyoviy ishlab chiqarish tizim sifatida ifodalanishi mumkin. Tizim-bir birlik sifatida faoliyat yuritadigan elementlar va ular o'rtasidagi aloqalar to'plami hisoblanadi. Tizim elementi unga kiritilgan oqimlarning xususiyatlarini va holatini o'zgartiradi. Chiqish oqimlari aloqalar orqali keyingi o'zgarishlar sodir bo'lgan boshqa elementlarga o'tkaziladi. Kiruvchi va chiqadigan oqimlarni qayta ishlaydigan elementlar tizimi o'zaro bog'liq. Bunday ob'ektlarni, ularning xususiyatlarini va ishlash xususiyatlarini o'rganish uchun tizimlar nazariyasi ishlatiladi. Kimyoviy ishlab chiqarishda elementlar mashinalar, apparatlar, reaktorlardir; ulanishlar quvur, gaz va bug' o'tkazuvchilardir. Elementlarda oqimlarning o'zgarishi – ularning holatidagi o'zgarish –



ajratish, aralashtirish, siqish, isitish, kimyoviy konvertatsiya qilish va boshqalar va materiallar, issiqlik, energiya oqimlari bir elementdan ikkinchisiga uzatiladi. Bu kimyoviy ishlab chiqarishni kimyoviy-texnologik tizim sifatida taqdim etish imkonini beradi. Kimyoviy va texnologik tizim (HTS) - qurilmalar, mashinalari, reaktorlar, boshqa qurilmalar (elementlar), shuningdek, moddiy, issiqlik, energiya va ular orasidagi boshqa oqimlar (ulanishlar), bir butun sifatida faoliyat va xomashyo qayta ishlash uchun mo'ljallangan mahsulotlar. HTS elementi alohida qurilma (reaktor, mikser, absorber, issiqlik almashinuvi, turbina va boshqalar) yoki ularning kombinatsiyasi bilan ifodalanishi mumkin. [Misol uchun](#), reaktorlarning issiqlik almashinuvchilari va ular orasidagi oqim mikserlari kimyoviy tarkibni o'zgartiradi va bu qurilmalar to'plami HTS elementi sifatida ifodalanishi mumkin. Elementning batafsil darajasi (bir birlik yoki bir nechta to'plam) tadqiqot vazifasiga bog'liq (kimyoviy va texnologik jarayonning muayyan ko'rsatkichlarini belgilash, ishlashning xususiyatlarini aniqlash va h.k.). Elementlarning kombinatsiyasi kimyoviy-texnologik tizim sifatida ifodalanishi mumkin. Misol uchun, bir nechta reaktorlardan, issiqlik almashtirgichlardan, mikserlardan (elementlardan) va ular orasidagi oqimlardan (bog'lanishlar) tashkil topgan va bir birlik sifatida ishlaydigan reaksiya birligi tizimdir. Shu bilan birga, u katta tizimga kiritilgan kichik tizim sifatida qaralishi mumkin. Kichik tizimlar miqyosi va funksional jihatdan ajratilishi mumkin. Reaksiya birligi kichik miqyosda, ammo xomashyoni quyi tizim mahsulotiga qayta ishlash jarayonida muhim ahamiyatga ega. Bunday holda, ishlab chiqarishning texnologik quyi tizimi ko'rib chiqiladi. Energiya quyi tizimi energiya uskunalarini uning elementi sifatida o'z ichiga oladi, butun ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi, ammo uning roli ma'lum bir funksiyani bajarish – ishlab chiqarishni energiya bilan ta'minlash. Shunday qilib, kimyoviy va texnologik tizimi kimyoviy ishlab chiqarish yoki uning tuzilishini aks kimyoviy va texnologik jarayon bir model va ma'lum xususiyatlari va ko'rsatkichlari bashorat qilish imkonini beradi. Kimyoviy ishlab chiqarish yoki HTS ning umumiy tarkibi shakl bo'yicha taqdim etilgan quyi tizimlarning funksional elementlarini o'z ichiga oladi. bunga ko'ra texnologik quyi tizim yoki xomashyo mahsulotga qayta ishlangan kimyoviy-texnologik jarayon. Tayyorlangan xomashyo fizik-kimyoviy va kimyoviy o'zgarishlar bir qator o'tadi-uning qayta ishlash



shunday qilib, bir maqsad va, odatda, yon mahsulotlar hosil qilish uchun. Yon mahsulotlarning shakllanishi maqsadli va salbiy reaksiyalar yuzaga kelganda ham amalga oshirilishi mumkin. Bundan tashqari, yon mahsulotlar xomashyo aralashmalarning mavjudligi tufayli hosil bo'lishi mumkin. Sanoat HTS original reagentlar konvertatsiya darajasi kamroq, chunki, keyin hosil aralash mahsulotlar kimyoviy konvertatsiya keyin mavjud va xomashyo komponentlari. maqsadli mahsulotni hosil bo'lgan aralashdan ajratish va ba'zan uni ifloslanishlardan tozalash bosqichida amalga oshiriladi. Maqsadli mahsulotni ajratgandan so'ng, qolgan yon mahsulotlar kimyoviy yoki boshqa sanoatida ishlatiladigan mahsulotga tozalash va zararsizlantirish yoki qayta ishlashga yo'naltiriladi. Yon mahsulotlarni qayta ishlash va zararsizlantirish ishlab chiqarishning atrof-muhitga va odamlarga zararli ta'sirini kamaytirish uchun zarurdir. Ishlab chiqarish chiqindilari yoki talab qilinmagan xomashyoni qayta ishlash mahsulotlari atrof-muhitni ifloslantiruvchi zararli moddalar va ulardan foydalanish maqsadga muvofiq bo'lgan foydali moddalarni o'z ichiga olishi mumkin. Shuning uchun chiqindilarni qayta ishlashga alohida e'tibor berilishi kerak. Asosiy ishlab chiqarish chiqindilarini sanoat, qishloq xo'jaligi, qurilishda ishlatilishi mumkin bo'lgan texnik materiallarga aylantirish eng oqilona hisoblanadi. Xususan, zaharli eritmalarni neytrallashtirish natijasida hosil bo'lgan temir o'z ichiga olgan chiqindilarni (qayta ishlash natijasida olingan pigmentlar qurilish, kauchuk, bo'yoq va boshqa materiallarni bo'yash uchun ishlatilishi mumkin. Chiqindilarni texnik mahsulotlarga qayta ishlash mumkin bo'lmasa, ularni tozalash yoki yo'q qilish amalga oshiriladi. Ushbu jarayonlarni amalga oshirgandan so'ng, sanitariya-gigiyenik standartlarga muvofiq, qattiq chiqindilar maxsus tayyorlangan poligonlarda saqlanadi, suyuq (chiqindi suv) tabiiy suv havzalariga tashlanadi, gazsimon atmosferaga chiqariladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. G'afurov Q . "Kimyoviy texnologiyaning nazariy asoslari". Toshkent -2007 yil.
2. Toshpo'latov Yu.T., Ishoqov Sh.S. Anorganik kimyo. T.: O'qituvchi.1992y.
3. Raymond Chang. General Chemistry: The Essential Concepts. 5 edition, England 2013y.
4. Kattayev N. "Kimyoviy texnologiya". Toshent-2008y.



5. Otaqo'ziyev T.A., Ahmedov K.M., Turobjonov S.M. "Umumiy kimyoviy texnologiya".
Toshkent 2009y.



NAVOIY ASARLARI ORQALI O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA O'RGATISH USLUBI

Jumanazarova Nigina Oybek qizi
Xorazm viloyati, Hazorasp tumani
4-umumiy o'rta ta'lim maktabi
Ona tili va adabiyot fani o'qituvchisi

Annotatsiya: maqolada o'quvchilarni har tomonlama komil inson qilib voyaga yetkazish, ularni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalash bugungi kunning muhim talabi ekanligi haqida fikr yuritilgan.

Kalit so'zlar: vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, sadoqat, halol mehnat.

Alisher Navoiy - mutafakkir shoir, olim, musiqachi, rassom va davlat arbobi, o'zbek adabiy tilining asoschisi. Alisher Navoiy merosi shu qadar ulkanki, bu merosni har qancha o'rgangan bilan uning mohiyatiga to'la yetib bo'lmaydi. Unda ilgari surilgan g'oyalar va ularning badiiy talqini asrlar osha kishilarni hayratga solib kelmoda. Chunki Navoiy qalamga olgan, badiiy aks ettirgan turmush muammolari, hayotiy haqiqatlar, vatanparvarlik, xalqparvarlik, mehnatsevarlik, do'stlik, sadoqat, vafodorlik, rostg'oylik, ma'rifatparvarlik singari g'oyalar bugungi kunda ham ahamiyatini yo'qotgan emas va ularning naqadar zamonaviy ruh kasb etishi buyuk mutafakkir badiiy merosining qadr-qimmatini tobora oshirib bormoqda. Biz shoir ijodiga qayta-qayta murojaat qilar ekanmiz, mustaqillik tufayli yuzaga kelgan milliy istiqlol mafkurasi oldimizga qo'ygan ulug'vor vazifalarni hal etishimizda bu asarlar nihoyatda katta ahamiyatga ega ekanligini, yosh avlodni barkamol insonlar qilib voyaga yetkazishda ko'makdoshligini his etamiz.

Yoshlarni har tomonlama komil inson qilib tarbiyalash bugungi kun pedagogikasining muhim talablaridan biridir. Kasb-hunarga yo'naltirishda va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda badiiy asarlar yetakchi o'rin tutadi. Xususan, bu borada Alisher Navoiy asarlarining alohida o'rni bor. Buyuk mutafakkir shoir, so'z mulkining sultoni Alisher Navoiy o'zining bebaho va umrboqiy asarlari bilan o'zbek adabiyotini yuksak darajaga ko'tardi. Uning ijodi biz uchun ilg'or intilishlari, hayotiy mazmuni, ko'pqirraliligi bilan yanada qadrlidir.



Alisher Navoiy ijodida halol mehnatni ulug'lash, uning inson hayotidagi ahamiyatini ta'kidlash muhim o'rin tutadi. Buni birgina "Farhod va Shirin" dostonidagi quyidagi baytdan ham bilib olishimiz mumkin:

Zaruratkim, solib bir o'zgacha tarx,

Bu "Mehnatnoma"ni qilg'umdurur sharx.

Asar mazmunidan kelib chiqqan holda Farhodning mislsiz qahramonliklari, xususan mehnatsevarligi, mehnatda ko'rsatgan mo'jizalarini ko'zda tutib Navoiy bu asarni "Mehnatnoma" deb ataydi. Dostonning asosiy qahramoni Farhod obrazidagi insoniy fazilatlar orasida mehnatsevarlik alohida ajralib turadi. Mehnat insonni yuksaklikka yetaklaydi, umrini bezab, mazmum-mohiyat kasb etadi. Farhod hunarda kamolotga erishgunga qadar uzoq vaqt tajriba orttirdi. Horundan tosh-taroshlik hunarni o'rgandi, malaka hosil qildi. Boniydan me'morlikni, Moniydan esa naqqoshlik sirlarini qunt va sabot bilan o'rgandi, bu san'at unga yoqib qoladi. Alisher Navoiy har bir ishda tajriba to'plash, malaka hosil qilish, mashqlar inson uchun shuhrat keltirishi va kutilgan natijalar garovi ekanligini ta'kidlaydi:

Jahonda har kishi kim bir ishi bor,

Ishida ul kishining varz ishi bor.

Farhod Shirin ishqida beorom bo'lib, qiyinchilikarni yengib Shopur bilan Arman yurtiga boradi. Farhod Arman tog'larida ariq qazish bilan mashg'ul bo'lgan kishilarning zahmatini yengillashtirish uchun bor hunarini ishga soladi. Horundan o'rgangan hunari bilan yeng shimarib ishga kirishar ekan, og'ir mehnatdan ezilganlarga yordam qila turib shunday o'ylaydi:

Hunarni asrabon netkumdir oxir,

Olib tuproqqamu ketkumdir oxir!

Farhod boshqalarga oylab qila olmagan ishlarini bir kunda bajaradi. Farhod o'zi bajarayotgan ish bilan shuhrat qozonadi, bunday afsonaviy bahodirning qahramonligi tezda atrofga tarqaladi, Shirin ham Farhodning aql-u zakovati, hunariga lol bo'ldi. Navoiy Farhodning insoniy fazilatlarini sanab, Farhodning bolalikdan boshlab ilm o'rganishi, uning



bilmagan ilmi qolmaganligi, xususan uning mehnatsevarligini san`at darajasiga ko`tarib tasvirlaydi.

Adabiyot darslarida o'quvchilarni kasb-hunarga va mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashda Alisher Navoiy asarlarining o'rni beqiyos. Xususan, "Farhod va Shirin" dostonidagi ijodiy mehnat, kasb-hunar egallash va egallangan kasb-hunar sirlarini o'z o'rnida mohirlik bilan ishlatish, el-yurt farovonligi yo'lida tinimsiz ishlash va ijodkorlik, fidoiylilik o'quvchilar ma'naviy salohiyatiga samarali ta'sir etadi, axloqan kamolotga erishishga undaydi. Alisher Navoiy qarashlaridan kelib chiqqan holda qalbida vatanparvarlik jo'sh urib turgan har bir shaxs kasb-hunar egallashi, egallagan kasb-hunarini asrab yurmasdan elimizning gullab yashanishi, odamlarga ko'proq naf keltirish yo'lida sarflashi kerak.

Ulug' mutafakkirning ulkan ijodini dengizga qiyoslash mumkin. Unda dur-u javohirlar behisob, biz undan bir qatrasinigina bayon etoldik xolos. Hazrat Navoiyning bebaho merosidan xalqimizni, ayniqsa yoshlarimizni qanchalik ko'p bahramand eta olsak, milliy ma'naviyatimizni yuksaltirishda, jamiyatimizda ezgu insoniy fazilatlarini kamol topishida shunchalik ma'naviy qurolga ega bo'lamiz.

Adabiyotlar ro'yxati:

1. Oripov A. Va boshqalar. Adabiyotimiz faxri. -T.: O'zbekiston, 2019-yil.
2. Zunnunov A. O'zbek pedagogikasi tarixi. T.: O'qituvchi. 2017. 267-b.

O'SMIRLARNI ARMIYA SAFIDA XIZMAT QILISHGA TAYYORLASH BOSQICHIDA JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK INTEGRATSIYASI.

Erkaboyev Oybek Muhammadjonovich, Farg'ona davlat universiteti o'qituvchisi

1.Gmail: oerkaboyev@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsad va vazifasi, yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tabiyalash va ularni harbiy xizmat jarayonida duch kelishi mumkin bo'lgan qiyinchiliklarni yengib o'tishga o'rgata oladigan yagona fan ekanligini isbotlashdan iboratdir.

Kalit so'zlar: chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik, konstitutsiya, normativ hujjat, harbiy, himoya, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari, harbiy tayyorgarlik, harbiy ta'lim, qurolli kuchlarning tuzilish, xavfsizlik, davlat, demokratik, respublika, burch, mudofaa.

Annotation: In this article, the purpose and task of the science of primary training before conscription is to inculcate our youth in the spirit of patriotism and to prove that it is the only science that can teach them to overcome the difficulties they may face during military service.

Keywords: initial training, constitution, regulatory document, military, defense, Armed Forces of the Republic of Uzbekistan, military training, military education, structure of the armed forces, security, state, democratic, republic, duty, defense.

Аннотация: В данной статье целью и задачей науки о начальной подготовке перед призывом на военную службу является воспитание нашей молодежи в духе патриотизма и доказательство того, что это единственная наука, которая может научить ее преодолевать трудности, с которыми она может столкнуться при прохождении воинской службы.

Ключевые слова: начальная подготовка, конституция, нормативный документ, военные, оборона, Вооруженные Силы Республики Узбекистан, военная подготовка,

военное образование, структура вооруженных сил, безопасность, государство, демократия, республика, долг, оборона.

KIRISH

Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilmoqda. Harbiy akademiyalar, qo'shin turlari bo'yicha harbiy o'quv yurtlari ochilgani fikrimizga yorqin dalildir. Davlat chegaralarini o'z qo'shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo'riqlanayotgani ham xalqimizning harbiy ruhini yuksaltirib turibdi. Haqiqiy mustaqil davlat shunday ishtutadi, o'z mudofaasini o'zgarar qo'lga topshirib qo'ymaydi. Xalqning umumiy harbiy ruhini ko'tarishda, harbiylarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san'at sirlarini harbiy o'quv yurtlarida o'qitish ham samarali omillardan hisoblanadi.

Har bir chaqiriqqacha bo'lgan yoshni tarbiyalar ekanmiz avvalambor biz ushbu yoshlarning siyosiy ongini boyitib borishimiz kerak bo'ladi. Bu borada biz davlatimiz tarafidan chiqarilayotgan qonun va qoidalarga asoslanamiz. O'zbekiston Respublikasining bir qator qonun va qoidalari mavjud bo'lib, ushbu qonun qoidalarga asosan me'yoriy hujjatlar yuritilmoqda. Masalan bulardan: O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi, Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risidagi qonun, O'zbekiston Respublikasining mudofaa tug'risidagi qonuni va O'zbekiston respublikasi Qurolli kuchlari nizom va qonunlarini asoslar sifatida olsak bo'ladi.

Bulardan tashqari yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tabiyalashda umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-hunar ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini o'qitilishi asosiy omillardan sanaladi. Mudofaa Vazirligining oliy harbiy o'quv yurtlariga kirib ta'lim olish va Qurolli Kuchlarimizning barcha harbiy xizmat turlarida harbiy xizmatga tayyorgarlik ko'rayotgan yoshlarimiz umumta'lim maktablari va o'rta maxsus, kasb-xunar ta'lim muassasalaridagi chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik jarayonida kerakli ta'lim-tarbiyani oladilar va o'zlarini qiziqtirgan ma'lumotlarga ega bo'ladilar. Bunday ta'lim – tarbiya jarayonini umumta'lim maktablari va o'rta maxsus,



kasb-hunar ta'lim muassasalarining pedagogik jamoasi bilan harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilari hamkorlikda amalga oshirishlari shart. Shunday ekan o'z-o'zidan bunday dolzarb vazifalarni bajarishda pedagogika universiteti qoshidagi harbiy fakultetlar jamoasining harbiy rahbar va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani o'qituvchilarini tayyorlash bo'yicha o'z majburiyatlari va vazifalarini sifatli bajarishlari alohida e'tiborga molikdir. Bu borada ayniqsa chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil qilish va uning metodikasi fanini o'qitilishida, Qurolli Kuchlarimizda olib borilayotgan islohotlar strategiyasini tub mohiyatini chuqur anglagan holda, eng zamonaviy o'qitish uslublaridan va ta'lim

texnika vositalarini eng so'ngi ishlab chiqilgan rusumlaridan foydalanish, shuningdek, tez o'zgarib borayotgan zamonamizning yangi-yangi talablarini nazardan chetda qoldirmasligimiz shart bo'ladi. Chaqiruvga qadar harbiy ta'limni tashkil qilish va uning metodikasi talabalarning maxsus harbiy tayyorgarligining asosiylaridan biri hisoblanadi. Bu fan «Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani» metodikasining tarkibiy qismi sifatida davlat imtihoniga kiritiladi. Maxsus fanlarni o'qitishdan asosiy maqsad- talabalarda harbiy-pedagogik tayyorgarlikni yuksaltirish va chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani bo'yicha mashg'ulotlarini o'tkazishda amaliy ko'nikmalar hosil bo'lishiga qaratiladi. Mazkur fanni o'rganish O'zbekiston Respublikasining «Umumharbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonun talablarini, O'zbekiston Respublikasining yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi bo'yicha nizomini, O'zbekiston Respublikasi Mudofaa Vazirligining buyruqlari va direktivalarini, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlikni tashkil qilish va olib borish, o'quvchi yoshlarni vatanparvarlik tarbiyasi ishlarini, O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash bo'yicha masalalarni, chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarligi (chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani) bo'yicha o'quv jarayonini rejalashtirish tamoyillarini, ta'lim muassasalarida chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani dasturining barcha bo'limlari bo'yicha mashg'ulotlarni tashkil qilish va olib borishda yangi pedagogik texnologiyalarni qo'llashni, zamonaviy o'quv texnika vositalaridan foydalana bilishni, ta'lim muassasasi direktori va Chaqiruvga qadar tayyorgarlik o'qituvchisining



majburiyatlarini, hamkorlikda bo‘lgan tashkilotlar bilan aloqa shakillarini, chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik fani bo‘yicha o‘quv - moddiy bazaga qo‘yiladigan talablarni bilishlari va ularni amalda qo‘llay olishlari uchun yetarli ilm-malaka va ko‘nikmalar berishdan iborat. Talabalar ta‘lim olayotgan paytlarida o‘zlarida harbiy rahbarning yoshlarni O‘zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlari safiga xizmatga tayyorlash masalalari bo‘yicha majburiyatlarini bajarishida zarur bo‘lgan siyosiy, ahloqiy, ruhiy tayyorgarliklarini yuqori bo‘lishini va Vatan himoyachisi sifatlarini mujssamlashtirishlari shart. Hozirgi kunda Qurolli kuchlarimiz tarkibidagi harbiy qism va bo‘limmalarni puxta bilimga ega bo‘lgan shaxsiy tarkib bilan to‘ldirish, uning siyosiy, manaviy, axloqiy ruxiy vatanparvarlik tarbiyasiga alohida e‘tibor berish muhim shartlardan biri hisoblanadi. Shaxsiy tarkibning yuqoridagi qayd etilgan sifat va fazilatlarini shakllantirishni, tarbiyalashni faqat harbiy kadrlar tayyorlash bilim yurtlari, qism komandirlari va harbiy boshliqlarning vazifasi deb hisoblash to‘g‘ri bo‘lmaydi. Ma‘lumki armiya safida o‘z bo‘ysunuvchilarining faoliyatlariga komandir va boshliqlar ma’suldirlar. Lekin sifat va fazilatlarini shakllantirishga kelganda armiya safigacha bo‘lgan ta‘lim tarbiya o‘rnining ahamiyati katta. Ayniqsa umumta‘lim maktablari, o‘rta maxsus va o‘rta kasb-hunar ta‘limi muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik fanini sifatli va samarali o‘qitilishini ahamiyati bu borada muhim. Birinchi Prezidentimiz I.A.Karimov ta’kidlaganidek «Yosh avlodni el-yurtga, vatanga sadoqatli, iymon-e’tiqodli, mard va jasur, yuqori malakali, ma’naviyati yuksak insonlar qilib tarbiyalashda ta‘lim o‘chog‘larining alohida o‘rni bor». Ta‘lim o‘chog‘laridan umumta‘lim maktablarida, o‘rta maxsus va kasb-hunar ta‘lim muassasalarida «Chaqiruvga qadar tayyorgarlik»ni o‘qitilishi haqida O‘zbekiston Respublikasining «umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to‘g‘risida»gi qonunning 13-moddasida quyidagicha yozilgan: «Chaqiruvga qadar boshlang‘ich tayyorgarlik, shu jumladan fuqaro mudofaasi bo‘yicha tayyorgarlik o‘quv dasturidagi majburiy fan bo‘lib, umumta‘lim muassasalarida chaqiruvga qadar tayyorgarlik fani o‘qituvchilari tomonidan bitirish yili arafasidagi kurslardan yoki sinflardan boshlab o‘tiladi». Bundan tashqari ushbu ustuvor vazifalar O‘zbekiston Respublikasining «Kadrlar tayyorlash milliy dasturi», «Mudofaa to‘g‘risida»gi qonunlarida va O‘zbekiston Respublikasi Mudofaa



Vazirligining buyruq va talablarida ham o'z ifodasini topgan. Ko'rinib turibdiki 1999 yil yanvaridan e'tiboran Qurolli kuchlarda boshlangan harbiy islohotlar strategiyasining nazarda tutgan, mamlakatimiz tinch, osoyishtaligini ishonchli va samarali ximoya qilishga qodir tezkor, yaxshi ta'minlangan qurolli kuchlarni tuzish maqsadini amalga oshirish faqat oliy harbiy o'quv muassasalarining vazifasi deb o'ylash, masalaga faqat bir tomonlama qarashdir. Bu borada chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi.

MUHOKAMA VA NATIJALAR.

Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanini takomillashishi va rivojlanishi, Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsad vavazifasiborasida bir qancha ilmiy izlanishlar olib borilayotganligi, davlat chegaralarining o'z qo'shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo'riqlanayotganligi ilmiy ishlarimiz natijasi desak adashmaymiz. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash hozirgi kunning dolzarb masalalaridan biridir. Yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalash borasida biz nimalarga e'tibor berishimiz kerak? Qanday ilmiy izlanishlar olib borishimiz kerak? Bu borada birinchi masala yoshlarimizga ota-bobolarimiz bosib o'tgan yo'llarini to'g'ri tushuntirish (ishontirish usuli)dir. Ikkinchi masala (tarbiya) agar biz yoshlarimizni vatanparvarlik ruhida tarbiyalay olsak kelajakga ko'chmas poydevor qo'ydim deb ayta olamiz. Uchunchi masala (o'qitish o'rgatish) bu eng dolzarb masalalardan biridir. Biz qanchalik yoshlarimizni to'g'ri o'rgatsak, o'qitsak ularda o'zlariga bo'lgan ishonchlarini yana bir bor uyg'otgan bo'lamiz. Yoshlarimizni harbiy vatanparvar qilib tarbiyalashda avvalambor biz ularga miliy qadriyatlarimizni o'rgatamiz va o'qitamiz. Bu yoshlarimizni harbiy vatanparvar bo'lib tarbiyalanishiga katta samara beradi. Hozirgi shiddat bilan o'zgarib borayotgan zamonning o'zgarishiga katta tasir ko'rsatayotgan fan, texnikalar borasidagi o'zgarishlar, ularni boshqarish masalalarini to'g'ri tushuntirish orqali biz ularda harbiy texnikalarni boshqarishga bo'lgan qiziqishlarini oshirib boramiz. Bu borada bizga Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanikata yordam beradi. Ushbu maqolada Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsad vavazifasi to'g'risida ma'lumotlar berilishi orqali fanning maqsad va vazifasini topish to'g'risida ilmiy izlanishlar olib borilgan.



Chaqiriqqa qadar boshlang'ich tayyorgarlik fani O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining tarkibiy qismi ekanligi nazariy bilimlarga asoslanib isbotlangan. Chunki ushbu fan O'zbekiston Respublikasi Qurolli Kuchlarining asosiy zaxirasini tayyorlash uchun yordam beradigan fan hisoblanadi va uni ilmiy, bilimli yoshlar bilan to'ldirishga xizmat qiladi.

XULOSA VA TAVSIYALAR

Ushbu maqoladan xulosa qilib shuni aytish mumkinki, maqolada Chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorgarlik fanining maqsad va vazifasi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tilgan. Maqolaning kirish qismida Respublikamizda harbiy kadrlarni tayyorlashga, ularning harbiy mahoratini oshirishga katta ahamiyat berilayotganligi to'g'risida ma'lumotlar berib o'tish bilan birgalikda, harbiy akademiyalar, qo'shin turlari bo'yicha harbiy o'quv yurtlari ochilganligi to'g'risida ham ma'lumotlar berilganligi fikrimizga yorqin dalildir. Davlat chegaralarining o'z qo'shinlarimiz tomonidan hushyorlik bilan qo'riqlanayotgani ham xalqimizning harbiy ruhini yuksaltirib turibdi. Haqiqiy mustaqil davlat shunday ishtutadi, o'z mudofaasini o'z g'alalar qo'lga topshirib qo'ymaydi. Xalqning umumiy harbiy ruhini ko'tarishda, harbiylarni matonatli, shijoatli qilib tarbiyalashda ajdodlarimizdan bizga meros qolgan harbiy bilimlarni ommalashtirish, harbiy san'at sirlarini harbiy o'quv yurtlarida o'qitish ham samarali omillardan hisoblanadi. Ushbu maqola kelgusida chaqiriqqacha harbiy ta'limni rivojlantirishda asos bo'lishiga ishonaman.

REFERENCES

5. O'zbekiston Respublikasi konstitutsiyasi . T.: 2018 y. 83 b.
6. O'zbekiston Respublikasining «Ta'lim to'g'risida»gi qonuni.2020 y.
7. O'zbekiston Respublikasining «Mudofaato'g'risida»gi qonuni.2018y.
8. O'zbekiston Respublikasining «Harbiy xizmati utash to'g'risida»gi qonuni. 2019 y.
9. «Yoshlarni chaqiruvga qadar boshlang'ich tayyorlash»o'quv dasturi 2017 y.
10. «O'smirlarni chaqiriqqacha tayyorlash to'g'risidagi Nizomi» 2014 y.



11. Erkaboyev.O.M. Armiya safida xizmat qilishga tayyorlash bosqichida jismoniy tarbiyaning ijtimoiy mohiyati. Ta'lim fidoylari-2022. № 3. С. 138-141
8. O.M. Эркабоев. Жисмоний тарбия ва Чакирувга қадар бошланғич тайёргарлик фанлари бўйича тажриба дастурини тузиш тамойиллари. Ta'lim fidoylari-2022. № 13. С. 4-8
9. O.M. Эркабоев. Наука в системе высших школ республики Узбекистан. Архивариус. с 24-27
10. E.O. Muhammadjonovich. Determination of the physical status of secondary school students through sociological research. Berlin Studies Transnational Journal of Science and 2022. 1-5
11. Ханкельдиев Ш.Х., Ураимов С.Р. Физический статус допзрывной молодежи// монография.-2020. Фергана. 130-с.



O'QUVCHILARDA TADQIQIY BILIM VA KO'NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIKA DARSLARINING AHAMIYATI

Abdulla Qodiriy nomidagi ijod maktabi matematika
o'qituvchisi

Shamshiyeva Hulkar Tairovna

Annotatsiya. Ushbu maqolada matematika ta'limi jarayonida o'quvchilarda tadqiqiy ko'nikmalarning shakllantirish va rivojlantirishning ahamiyati ko'rsatilgan. Masalalar yechish orqali o'quvchilarda tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirish usullari keltirilgan.

Kalit so'zlar. Fan, ta'lim, tadqiqiy, bilim, ko'nikma, qobiliyat, metod, masala.

Jamiyat rivojlanishining ichki va tashqi tuzilishi, o'z navbatida, yuqori ma'lumotli har tomonlama o'sib kelayotgan yoshlarni aqliy va jismoniy mehnatni birga qo'shib olib bora oladigan, xalq ho'jaligining turli sohalarida unumli mehnat qila oladigan kishilar darajasida tarbiyalab, voyaga yetkazish umumta'lim maktablarining o'qituvchilari hal qilishi lozim bo'lgan dolzarb masalalaridan biri ekanligini taqozo qilmoqda. O'quvchilarning savodli bo'lib chiqishi - bu bevosita matematika fanining o'qitilishini takomillashtirish, o'quvchilarda tadqiqiy ko'nikma va malakani shakllantirishdan iborat.

Buning uchun o'qitish jarayonini har tomonlama takomillashtirish, keyingi yillarda psixologiya va pedagogika fanlarining samarali metodlaridan biri, metodikada keng ko'lamda foydalanish mumkin bo'lgan muammoli metodni unumli, faol o'qitish jarayoniga tatbiq qilish natijasida o'quvchilarning tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirishga erishish bugungi bozor iqtisodiyoti sharoitida muhim ahamiyatga egadir.

Bu masalalarning har biri o'quvchilarning matematik bilim saviyalari bilan bog'liq bo'lib, u o'z navbatida, tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirishda yetakchi vazifalaridan biri hisoblanadi. Ma'lumki, matematik bilim o'zining tuzilishi jihatidan har xil bo'lishi mumkin. Ular asosan boshlang'ich, klassik, shakl almashtiruvchi, rivojlantiruvchi, baholovchi bo'lishi mumkin. Bu bilimlarning har biri uchun o'zining mazmuni va funktsiyasi mavjud bo'lib, ular o'quvchilarning tadqiqiy ko'nikmalarini shakllantirishda muhim ahamiyatga egadir. Shuning uchun ham tadqiqiy ko'nikmalarni shakllantirishda o'quvchilarning qaysi bilimdan qanday foydalanishi ham muhim ahamiyatga ega.



Matematika fanining o`qitilishi o`quvchilar bilimlari sifatini oshirishni ta'minlabgina qolmasdan, balki o`quvchilarni amaliyotga tayyorlashga ham yordam qiladi, o`quvchilarga ko`p qirrali ilmiy ma'lumotlar beradi, yaxlit dunyoqarashni hosil qilishga yordam beradi hamda ularning tadqiqiy ko`nikmalarini shakllantiradi. Har bir dars tuzilishini aniqlashda, uning maqsadi va mazmuni muhim ahamiyatga ega.

O`quvchilarning tadqiqiy ko`nikmalari qanchalik aniq va chuqur bo`lsa, ularning bilish faoliyati mukammal, mehnati unumli bo`ladi. O`qitishda tadqiqiy ko`nikma vazifasi shundan iboratki, yangi harakat usullarini va o`zlashtirilishi lozim bo`lgan yangi bilimlarni "kashf etishga" xizmat qiladi. O`qitish jarayonida tadqiqiy faoliyat - bu vazifani fikrlash zaruratini, yahni ilgari ma'lum bo`lmagan bilimlarni yoki harakat usullarini "kashf etish" yoki o`zlashtirishni talab etadigan vazifani bajarish vaqtida o`quvchida paydo bo`ladigan psixik holatni keltirib chiqaradigan muayyan vaziyat.

Matematikani o`qitish jarayonida matematik bilimlar tizimini yuzaga keltirish va uning tatbiqini amalga oshirish o`zining tuzilishiga ko`ra juda murakkab jarayon bo`lib, u o`quvchilardan juda xushyorlik, chidamlilik bilan matematikani o`rganishni, qonun va qoidalarini chuqur o`rganib, asosiy matematik tushunchalarning xossalari va qoidalarini puxta o`zlashtirishni talab qiladi.

Tahlilning asosiy tatbiqi ilmiy tekshirish usulidagidek tadqiqiy faoliyatda masala yechilishini oson kechadigan sodda masalalarga keltirish hisoblanadi. Tekshiruvchiga har doim dastlabki masalani yechishda shunday qism masalalar to`plamiga ajratishga t`g`ri keladi. Bu qism masalalarni yechish bir qancha topilgan qism masalalar to`plamini o`z ichiga olgan dastlabki masalani yechishga olib keladi. Qoidaga asosan bularni yechish dastlabki masalani yechishga ko`ra yengilroq kechadi. Har qanday tekshirish darrov dastlabki muammoni bo`laklarga bo`lib o`rganishga, xususiy masalalarni yechishga, maqsadga yakinlashishga mo`ljallangan. Javobning o`zgarishiga qarab, tekshirish rejasi t`g`rilanadi va o`zgaradi, ketma-ket shartga borish oldindan tekshirish rejasini tuzishga imkon beradi.

Dastlabki masalaning qism masalalarga bo`linishi uning mazmunini ham qismlarga ajratish va tabaqalash natijasida masalaning turli xususiyatlarini yuzaga chiqaradi. Shu jihatdan qismlarga bo`lish masala yechish jarayonini aniqlash omili bo`lib, tadqiqiy faoliyat hisoblanadi.

Biz masalalarni bo`lib yechish jarayonini tadqiqiy jarayon deb qarar ekanmiz, o`z oldimizga tadqiqiy ko`nikmalarni hosil qilish va rivojlantirishni asosiy maqsad qilib qo`yamiz. O`z-o`zidan ular foydali va samarali bo`lib, masalani bo`lib yechish metodini mustahkam egallab olishda qo`l keladi. Bu esa, o`z navbatida, algebraik va geometrik masalalar yechishdagi bilimlarni oshiradi.



Masalani qismlarga bo`lib yechishda shu qismlarning sifatiga ahamiyat berilishi lozim. Bundan shunday xulosa chiqadiki, tadqiqiy ko`nikmalarni shakllantirish uchun masalani qismlarga bo`lishni quyidagicha ajratish mumkin bo`ladi:

1. Masala elementlarini ajrata bilish.
2. Masalaning berilgan elementiga mos tushuvchi figuralar va ular orasidagi o`zaro aloqalarini ko`rsata olish.
3. Masala yechimiga olib keladigan aloqalarni ?rnata bilish.
4. Masalani qism masalalarga ajratish hamda ularning zidsizligi va to`laligini baholash.
5. Masalaning yechilish grafini yasash.

Bu jarayonlarning har biri o`ziga xos, muhim ahamiyatga ega bo`lib, u har bir o`quvchidan ma'lum matematik sadoqatni talab qiladi. Matematika o`qitishda tadqiqiy bilimga ega bo`lish bu hayotiy talab va ehtiyoj bo`lib, u kishilik jamiyatining rivojlanish asosini tashkil qilish bilan birga, o`quvchilarda tadqiqiy ko`nikmalar shakllanishi jamiyatning to`laqonli a'zosi sifatida ham muhimdir. Shunday qilib, o`quvchilarning matematik bilimlarini, qobiliyatlarini rivojlantirish zarurati davr talabi hisoblanadi. Bunday qobiliyatlarni taraqqiy ettirish o`z-o`zidan tadqiqiy ko`nikmalarni shakllantirish zaruratini keltirib chiqaradi. Shu bilan birga bo`lg`usi izlanuvchi, tadqiqotchi-olimlarni, mutaxassislarni, matematikaga qiziquvchi yoshlar sonining o`sishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Tolipov O'., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tadbqiqiy asoslari - T.: 2006.
2. Umirbekov A.U., SHOabdlov SH.SH. Matematikani takrorlash - Toshkent: "O'qituvchi", 1989.
3. Ishmuhamedov R. O`quv jarayonida interfaol uslublar va pedagogik texnologiyalarni qo`llash uslubiyati. T.: RBIMM, 2008.

SANOATDAGI DONADOR MAHSULOTLARNI SONINI SANASH DASTURSIZ MAHALLIY AVTOMATIK QURILMASI

- **Xolov Orif Tolipovich.** – QarMII “Fizika va elektronika” kafedrasida katta o‘qituvchisi, Qarshi shahar Prezident maktabi “Robototexnika” to‘garagi rahbari.

Jo‘rayeva H.Z.

Rajabov Kamronbek.Yo‘ldoshevich. – QarMII talabasi.

- **Qarshiyev Xolmo‘min Avaz o‘g‘li.** – QarMII talabasi.

ANNOTATSIYA. Ushbu maqolada ishlab korxonalarida donador mahsulotlarni qayd etish maqsadida qo‘llaniladigan, mahalliy sharoitdan kelib chiqib yaratilgan donador mahsulotlarni qayd etish qurilmasi haqida ma‘lumotlar berilgan.

Kalit so‘zlar Sanoatdagi donador mahsulotlarni sonini dastursiz mahalliy avtomatik qurilmasi.

Fan va texnika jadallik bilan rivojlanaib borayotgan hozirgi kunda zavod va fabrikalar, qishloq xo‘jaligi tarmoqlarida amalga oshiriladigan texnologik jarayonlar asosan, avtomatlashtirilgan tizimlar orqali bajariladi. Jumladan, donador mahsulotlarning sonini sanash va qayd etish ishlari, mahsulotlarni idishlarga qadoqlash jarayoni, detallarni biriktirish va o‘zaro mahkamlash ishlari va boshqalar. Ushbu jarayonlarda qo‘llaniladigan avtomatlashtirilgan qurilmalarining katta qismi, asosan xorijiy mamlakatlardan sotib olinadi va ularning narxlar ham anchagina katta so‘mmani tashkil etadi. Bu esa korxonalarining iqtisodiy holatiga o‘z ta‘sirini o‘tkazmay qolmaydi.

Biz Qarshi muhandislik-iqtisodiyot instituti “Fizika va elektronika” kafedrasida katta o‘qituvchisi O.T.Xolov, ... – Elektronika va asbobsozlik ta‘lim yo‘nalishi talabalari K.Yu.Rajabov va X.A.Qarshiyevlar o‘zaro hamkorlikda sanoat korxonalarida turli donador mahsulotlarni sanash qurilmasini mahalliy sharoitdan kelib chiqib o‘z qo‘limiz bilan yasadik. Bu avtomatik qurilmani yasash uchun bir dona LDR foto qarshilik, bir dona LM 555 mikrokontroller, bir dona 74LS90, bir dona 74SL47, ma‘lumotlarni qayd etish va ko‘rsatib borishi uchun bir dona raqamli tablodan foydalandik.

Biz yasagan ushbu avtomatik qurilmada har bir elementni o‘zini boshqaradigan vazifalari bor. Jumladan, LDR fotoqarshilikning vazifasi lentadan kelgan mahsulotni qayd etish bo‘lib, bunda lentadan o‘tuvchi fotoqarshilikka keluvchi yorug‘likni to‘sadi, natijada fotoqarshilikning qarshiligi kamayadi. Natijada LM 555 mikrokontrollerning ikkinchi oyoqchasida signal hosil qiladi. Bu signal analogli signal bo‘lib, LM 555 mikrokontrollerni uchinchi oyoqchasidan raqamli signal ko‘rinishida chiqadi. Bu raqamli signalni 74LS90


mikrosxemaning o'rtinchi oyoqchasiga ulanadi. Nurlanuvchi diod bilan paralel ulanadi. Nurlanuvchi diodning vazifasi fotoqarshilik oldidan mahsulot o'tganda yonib o'chish orqali signal berishdir. Bundan maqsad bizga LM 555 mikrokontrollerni to'g'ri ishlayotganligi haqida ma'lumot berib turishdir.

74LS90 mikrosxemaning 12,9,8,11 oyoqchasidan raqamli signal, ya'ni 01010111101 signallar 74LS47 mikrosxemani 7,1,2,6 chi oyoqlariga uzatiladi. 74LS47 mikrosxemaning vazifasi foto qarshilikni oldidan o'tadigan mahsulotlarni sonini hisoblab, display ekranga uzatishdir. Ma'lumotlar display ekranida raqamlar ko'rinishida hosil qilinadi. Display ekranida yozilgan *a, b, c, d, e, f, g* belgilar ekrandagi raqamlarni hosil qiladi. Misol uchun *b, c* belgiga signal kelsa, ekranda 1 raqami hosil bo'ladi. Qolgan belgilar shunday hosil bo'ladi.

Display 7-segment elementi deb ataladi. Display o'zidan yorug'lik chiqaruvchi yetti elementdan, ya'ni diodlardan tashkil topgan. Bu diodlar 1,5 V gacha elektr kuchlanishida ishlaydi. Shu diodlar orqali ma'lumotlar bizga raqamli sonlar ko'rinishida namoyon bo'ladi.


Bunday avtomatik donador mahsulotlar sonini sanash qurilmasida *Arduinodan* foydalansak tannarxi juda qimmat narxlarda shu qurulma yasaladi. Bu esa ushbu turdagi qurilmalarni yasashda ularning tannarxini oshishiga olib keladi.

Ushbu maqolada bayon qilingan qurilmani o'z qo'limiz bilan yasaydigan bo'lsak, tannarxi bizga ancha arzonga tushadi. Ushbu qurilmaning sxemasi quyidagi rasmda keltirilgan.




1-rasm. Qurilma sxemasi.

Qurilmada qoʻllanilgan LM 555 mikrokontrollerni uzunigi 9 mm ni, eni 6 mm ni tashkil qiladi. Sodda qilib aytganda eng kichik barmogʻimizni tirnogʻich hajmga ega. LM 555 mikrokontroller sanoatda keng qoʻllaniladi. Jumladan, barcha turdagi datchiklarni yaratishda qoʻllaniladi. Mikrokontroller 3V... 15 V gacha doimiy kuchlanishda ishlaydi. LM 555 mikrokontrollerni ichki sxemasida 27 dona har hil turdagi tranzistor va 12 dona doimiy qarshilikdan tashkil topgan. LM 555 mikrokontrollerni oʻrniga KP1006 mikrokontrollerdan ham foydalanish mumkin.



2-rasm. LM 555 mikrokontrollerning ichki sxemasi.



3-rasm. 74 LS90 mikrokontrolleri.

74 LS90 mikrokontrolleri LM 555 mikrokontrollerining 3-chi oyoqchasidan chiqadigan signalni kuchaytiradi va 74 LS47 hisoblash mikrokontrolleriga (3-rasm) uzatadi. U esa signallarni oʻz navbatida raqamli display (4-rasm)ga uzatadi.



4-rasm. Display va uning matematik algoritmi.



5-rasm. 74 LS47 hisoblash mikrokontrolleri.

Oliy ta'lim tizimida, o'рта maxsus kasb-hunar kollejlarda, letsiyalarda, o'рта maktablarda ham ushbu qurulmani mahalliy sharoitdan kelib chiqib, o'z qo'limiz bilan yasashimiz mumkin. Qurilmani laboratoriya sharoitida ishlatib ko'rish va natijalar olish mumkin. Bu esa o'quvchilarning rabotatexnika va sxemotexnikaga bo'lgan qiziqishlarini ortishiga va chuqur o'rganishlariga olib keladi.

Xorijdan olib kelinadigan har bir qurulmani chuqur o'rgangan holda o'zlashtirib olamiz. Hozirgi vaqtda barcha mayishiy texnika qurilmalarini ta'mirlash ustaxonalarida televizorlar, kondensiyonlar, har hil turdagi barqarorlashtiruvchi qurilmalar (stabilizatorlar)ni ta'mirlash jarayonida ulardagi boshqaruv platalarini to'liq almashtirib tashlashadi. Ushbu platalar esa xorijdan juda qimmat narxlarda sotib olinadi.


Mutaxassislar tomonidan mayishiy texnika vositalaridan chiqarib tashlangan ushbu platalar to'liq o'rganilib, ulardagi nuqsonlarni bartaraf etishga kam e'tibor qaratilmoqda. Ikkinchi bir tomoni, ushbu platalarning sxemasini batafsil o'rganib chiqilsa, undagi mavjud elementlarning ayrimlari ishdan chiqqan, katta qismi esa yaroqli holatda bo'ladi. Ushbu platalardagi ishdan chiqqan elementlarni mahalliy sharoitdan kelib chiqib arzon narxlarda

tuzatish mumin, bunda ishdan chiqqan element o'rniga uning o'rnini bosa oladigan yangi elementni moslashtirib qo'yishimiz mumkin.

Biz Qarshi shahar Prezident maktabidagi robotatexnika to'garagiga sanoatda qo'llaniladigan dasturlashtirilgan avtomatik qurilmalarni laboratoriya sharoitida mahalliyashtirishga erishganmiz. Bu qilgan ishlariz davlatimiz mablag'larini miqdorda tejashga olib keladi.



Sanoatdagi donador mahsulotlar sonini sanash avtomatik qurilmasi, mahalliy sharoitdan kelib chiqib talaba va o'quvchilar o'z qo'llari bilan yasab laboratoriya sharoitida tekishib natijalar olishgan.



Foydalanilgan manbalar:

1. <https://embedded-lab.com/blog/2-wire-keypad-interface-using-a-555-timer/>
2. <https://elstat.pl/-9439i>
3. <https://www.eleropecas.com/Produto/circuito-integrado-sn-74-ls-47>
4. <https://techmake.com/blogs/tutoriales/empezando-con-arduino-1g-display-de-7-segmentos>

YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIDA OILANING O'RNI

Islomjon Solijonov

**Farg'ona viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi
"Maktabgacha va boshlang'ich ta'lim metodikasi" kafedrasi mudiri.**

Bugungi globallashuv jarayonida insoniyat oldidagi eng muhim masalalaridan biri yoshlarning odob-axloqi va ularning ta'lim-tarbiyasi masalasidir. Chunki, mamlakat rivoji, yurt ravnaqi o'sha mamlakatning ertasi, kelajagi bo'lgan yoshlarning ta'lim-tarbiyasiga bog'liqdir. Qachonki yoshlar odob-axloqi etuk, ta'lim-tarbiyasi kuchli va intellektual salohiyatga ega bo'lsa, o'sha mamlakat rivoji yanada tarqoqqiy etadi. Yoshlar o'ta'lim-tarbiyasi har zamon va har makonda ham dolzarb bo'lib kelgan. Ayniqsa o'rta asrlarda yashab jahon ilm-fani rivojiga munosib hissa qo'shgan allomalarimizning ijtimoiy qarashlarining markazida yoshlar ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqi va ularning ilm-ma'rifati turgan.

Kelajak avlodning odob-axloqli, ta'lim-tarbiyasi bo'lishi u yashab turgan mamlakat muhiti, oilasidagi ota-onasi, ta'lim-tarbiya beradigan ustozlari, ta'lim oladigan o'quv maskanlariga bog'liq. Biz tadqiqotimizda mana shu omillardan biri bo'lgan oila va ota-onaning yoshlar tarbiyasidagi o'rni va ahamiyati haqida tuxtalamiz.

Germaniyalik mutaxassislarining ta'kidlashicha, eng yaxshi tarbiya bu zukko va komil ota-ona tomonidan o'z farzandiga berilgan tarbiyadir. Chunki ota-ona oldida farzandiga ta'sir etish imkoniyatlari boshqalardan ko'ra eng ko'p hisoblanib, bu vazifani ado etishda ham ular o'zlaridagi bor mehrni ishga soladi.

Oila bu bir millat, xalqning kichik bir qismi, jamiyatning tayanchi hisoblanadi. Oila jamiyat uchun juda kerakli bo'g'in bo'lib, u ijtimoiy munosabatlarning rivojlanishiga, avlodlar davomiyligini ta'minlashga va kelajak avlodni tarbiyalashga xizmat qiluvchi ijtimoiy makon hisoblanadi. Oiladagi er va xotinning bir-biriga bo'lgan izzat-hurmati, xushmuomala va shirin so'zligi, bir-biriga yordam berishi va hamjihatligi tarbiyaning asosiy

shakllaridandir. Shunday ekan oiladagi muhit, ota-onaning qanchalik ilm-ma'rifatli ekanligi, ular orasidagi munosabatlar farzand tarbiyasi uchun nihoyatda ahamiyatlidir. Agar ota-ona ilm-ma'rifatli, dinu-diyonatli, odob-axloqli, o'zaro hurmat-izzatli bo'lsa farzand ham shunday xislatlargaega bo'lib voyaga etadi.

Qaysi bir oilada ahillik, inoqlik bo'lsa, oila mustahkam bo'lsa, o'zaro munosabatlar yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa va ota-onalar o'z arjumandlariga etarli ta'lim-tarbiya bersa, o'shanda jamiyat ham millat ham mustahkam, osoyishta, ilm-ma'rifatli va yuksak ma'naviyatli bo'ladi.

Ming afsuslar bo'lsinki, bugungi kunda ayrim oilalardagi muhitning yomonligi, ota-onalarning vaqtida o'z farzandlariga etarli ta'lim-tarbiya bermaganligi, bilimsizligi, o'zaro munosabatlar yomonligi sababli, ba'zi bir noxush, jirkanch holatlarni vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda. Buning uchun oila pok-halol bo'lishi, undagi har bir oila a'zosi ilm-ma'rifatli bo'lishi, oila a'zolarining o'zaro munosabatlari mustahkam bo'lishi kerak. Oilada olingan tarbiya insonning keyinchalik butun hayoti davomida oladigan ma'rifat va hayot saboqlari uchun asos, zamin, poydevor vazifasini o'tashligini anglamog'imiz lozim.

Hadis ilmining bilimdoni Imom Buxoriyning "Al-Adab al-mufrad" ("Odob durdonalari") nomli kitoblarida "Hech bir ota o'z farzandiga xulqu-odobdan buyukroq meros bera olmaydi", degan hadisni keltiradi. Darhaqiqat ota-ona uchun eng katta boylik bu farzandlariga beradigan odob-axloqi va ta'lim-tarbiyasidir. Bu berilgan fazilatlar farzandga keragidanda ortiq shon-shuhrat va boylik keltirishi shubhasiz.

Yoshlarning ta'lim-tarbiyasi va odob-axloqi nega oilada muhimroq? Chunki farzand tug'ilgandan vaqtdan boshlab o'z oilasi muhitida yashaydi. O'sha oilaga xos bo'lgan milliy an'analar, qadriyatlar, urf-odatlar ta'sirida voyaga etadi. Oiladagi muhit, tartib orqali jamiyat tartib-qoidalarini anglab etadi.

Tarixdan bugunga qadar bo'lgan davrlarni tahlil etsak, har doim ham farzand ta'lim-tarbiyasi, odob-axloqi eng muhim va eng avvalgi masalalardan biri bo'lib kelgan.

Har bir davrda o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqib oila qurishga, ota-ona va farzandlarning burchlari va ular orasidagi munosabatlar, oiladagi ta'lim-tarbiyaga alohida urg'u berib kelishgan.

Masalan, eng qadimgi davrlardagi manbalarga, xususan, ezgu fikr, ezgu so'z, ezgu amal g'oyalari asosida yaratilgan "Avesto" yozma yodgorligida ham oila muqaddasligi, kelin-kuyov munosabatlari, ota-ona majburiyatlari, farzand tarbiyasiga oid qimmatli nasihatlar va fikrlar mavjud.

Yahudiylilik, zardo'shtiylik, buddaviylilik, xristianlik kabi dinlarning asosida axloqiy xatti-harakat qoidalariga amal qilish, savobli amallar qilish, ota-ona va keksalarni hurmatlash, ular haqida kayg'urish kabi vazifalarni ado qilish yotadi.

Mintaqamizda IX-XII asrlarda, Ilk Renessans davridagi ta'limotlarning markazida ham islom diniga asoslangan oilaviy munosabatlar, insonparvarlikka asoslangan ma'naviy qadriyatlar, oiladagi ota-onalarning va farzandlarning o'rni va jamiyatdagi haq-huquqlari asosiy o'rin egallagan. Bu davrda ayniqsa, ota-onalarning farzandlari oldidagi burchlariga, xususan ularga ta'lim-tarbiya berish masalalariga alohida ahamiyat berilgan. XIV-XV asrlar, ya'ni Amir Temur va temuriylar davrida ham jamiyatning tayanchi bo'lgan oila qurishga, turmush o'rtoq tanlashga katta ahamiyat berilgan. Amir Temur hatto oila qurish masalasini davlat ishlari bilan teng ko'rgan. Amir Temurning o'gitlarida, turmush qurishda kelinning nasl-nasabini, uning salomatligi, jismonan kamoloti va odob-axloqiga alohida ahamiyat berganligini ko'ramiz.

XIX asr oxiri XX asr boshlarida o'lkamizda ma'rifatparvarlik harakati vujudga kelgan. Bu harakat tarixda jadidchilik deb nomlandi. Jadidchilik namoyandalari bo'lgan Mahmudxo'ja Behbudiy, Abdulla Avloniy, Abdurauf Fitrat, Abdulla Qodiriy va boshqalar inson va yurt taqdiri, uning kelajagi oilaviy muhit bilan uzviy bog'liqligini, oilaning jamiyatda tutgan mavqei, oila tarbiyasi va ma'naviyati eng dolzarb masala ekanligini ta'kidlashgan. Jadidchilarning asarlarida, ularning maqolalarida jamiyatning ma'naviy qiyofasi oilalarning ma'naviy qiyofasiga asoslanganligi chuqur tahlil etilgan. "...Ma'rifatchilar shundan kelib chiqib, jamiyat taqdiri oilalar muhitiga bog'liq bo'lsa, oila



ma'naviyatining o'zi kimga yoki nimaga bog'liq, degan haqli savolni o'rta qo'ydilar. Ularning fikricha, agar oilada sog'lom turmush tarzi ustuvor bo'lib, farzand har jihatdan to'g'ri tarbiya topgan bo'lsa, u shubhasiz o'zidagi ijobiy fazilatlarni xizmat jarayoniga ko'chiradi, ijtimoiy mehnat faoliyatida qo'llaydi, natijada jamiyatdagi barcha munosabatlarga ta'sir o'tkazadi. Binobarin, oilaning go'zal odob-axloq, xushmuomalalik, samimiylilik, mehnatsevarlik, ilm-ma'rifatga hurmat asosiga qurilgan bo'lishi g'oyat muhim masala bo'lib, bu ijtimoiy munosabatlarga muntazam ta'sir etib, unga kuch-quvvat berib turuvchi yagona omilga aylanadi".

O'lkamiz allomalarining aksariyati shaxs kamoloti, uning ma'naviy yuksalishi, e'tiqod va dunyokarashlar teranligiga bevosita aloqador bo'lgan fikrlarini ko'prok ota-ona ta'siri va oila muxitida ustuvor bo'lgan kadriyatlar timsolida tasavvur etganlar.

Abu Rayhon Beruniy va Abu Ali ibn Sinolar ezgu ishlar, mehnat, tajriba va kuzatishlarning shaxs tarbiyasidagi o'rni va rolga ahamiyat berib, boladagi to'g'ri va sog'lom dunyoqarash faqat sog'lom oila muhitida mavjud bo'lishiga qattiq ishonganlar.

Xulosa o'rnida aytamizki, axloqan etuk va komil insonni voyaga etkazishda eng avval oila muhitini yaxshilashimiz, oila ma'naviyati va ma'rifatini yuksaltirishimiz, onalarimizga bo'lgan ehtirom va e'tiborni yanada kuchaytirishimiz lozim. Qo'shimcha qilib aytish mumkinki, har bir ota-ona farzandlari barkamol bo'lib voyaga etishlari uchun kerakli ta'lim-tarbiya berib, o'zlari ham albatta ularga namuna bo'lishlari kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://ziyouz.uz/oila-va-jamiyat/oilaga-tegishlilik-hissi-yoxud-ish-ota-ona-va-Farzand/>
2. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
3. Najmidinova Karimaxon Usmonovna. Oila tarbiyasida milliy va umuminsoniy axloqiy madaniyatning o'rni. – Toshkent:Adolat, 2016.

ТРАНСФОРМАЦИЯ ГЕРОЯ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ 80-90-Х ГОДОВ

Магистр 2 курс Холдоров Чоршанби

Последние десятилетия XIX века были обозначены серьезными переменами в общественной и литературной жизни России. Утверждение капитализма в экономике повлекло изменения в социальной, культурной, духовной сферах русской жизни. После либеральных реформ 60–70-х годов во внутренней политике восторжествовал консервативный курс. Крылатыми стали слова Блока о России 80-х годов:

В те годы дальние, глухие

В сердцах царили сон и мгла,

Победоносцев над Россией

Простер совиные крыла,

И не было ни дня, ни ночи,

А только — тень огромных крыл.

В общественной мысли изжили себя просветительские иллюзии, потерпели крах идеи народничества, утопизм общинного социализма. Но в то же время вызревали новые интеллектуальные силы, шла упорная, часто подспудная работа коллективной мысли. На смену революционным призывам стремительной коренной ломки устаревших государственных институтов пришли идеи постепенного преобразования страны. Молодежь «манила к себе легальная общественная деятельность, но на этой почве мы все же готовили себя к борьбе за свои идеалы, терпеливой, настойчивой, неуклонной»,^[485] — писал современник. Не были утрачены прогрессивные и гуманные идеи, которыми жила русская интеллигенция предшествующих лет, однако разочарование в прежних политических идеалах

вызвало спад общественного движения, измельчание общественных интересов, появление упаднических настроений.

Определились новые духовные искания интеллигенции. Н. А. Бердяев писал: «Были признаны права религии, философии, искусства независимо от социального утилитаризма, моральной жизни, то есть права духа, которые отрицались русским нигилизмом, революционным народничеством и анархизмом.

Термины «возвращенная литература», «возвращенные писатели», «скрытая», даже «потаенная» литература появились в начале 90-х годов XX века, когда в результате начавшейся перестройки рухнул «железный занавес», прочно отделявший Россию от западного мира. Крушение коммунистической идеологии, наступившая гласность позволили опубликовать в России огромное количество произведений писателей-эмигрантов, которые были вынуждены, спасаясь от большевистского террора в 1920-х годах, навсегда покинуть родину. Уехав и поселившись кто во Франции, кто в Германии, кто в Чехии и других странах, русские писатели, многие из которых были уже широко известны в России, написали правду о революции 1917 года и последовавшей за ней гражданской войне. За это они у себя на родине были объявлены врагами. Творчество большинства из них и даже сами их имена были изъяты из всех энциклопедий и на 70 лет преданы забвению. Официально было заявлено, что в эмиграции творчество писателей пришло в полный упадок. Между тем библиографический список произведений, например, Бориса Зайцева включает 700 названий. К изумлению читателей, и даже специалистов, оказалось, что за границей, далеко от России, был создан целый «материк» русской прозы и поэзии. Книги писателей русского зарубежья постепенно возвратились на родину. Были изданы собрания сочинений И. Шмелева, Б. Зайцева, А. Ремизова, опубликованы исторические романы М. Алданова, книги Саши Черного, Н. Тэффи, стихи и проза Г. Иванова и Г. Адамовича, замечательные мемуары И. Одоевцевой и Н. Берберовой, стихи Вл.



Ходасевича, большое количество критических статей о русской литературе этих авторов.

Другим авторам поствампировской драматургии удалось не только успешно освоить основные принципы и приёмы «театра Вампилова», но и впоследствии, используя эти достижения, вступить в своеобразную полемику, в «заочный спор», с мастером по тем или иным идейно-эстетическим проблемам, в чём выразилось стремление обрести своё собственное творческое лицо и отразить жизнь под иным, более современным, на их взгляд, углом зрения. Такими драматургами являются М. Ворфоломеев, А. Галин, А. Дударев, Ю. Князев. В первую очередь из них стоит рассмотреть произведения А. Дударева, две его пьесы: «Вечер» (1984) и «И был день» (1988). Их разделяет временной интервал всего в четыре года, однако различия между ними весьма существенны, что обусловлено не только социально-политическими переменами в стране (1985 год — начало перестройки), но и изменением художнического сознания автора, хотя и в том, и в другом произведении он обращается к современности. Пьеса А. Дударева «Вечер» близка вампиловскому творчеству как по внешним, конструктивно-драматургическим приметам, так и по духу, по своему внутреннему содержанию. С самого её начала, с первой ремарки перед читателем возникает типичная картина отечественной провинции: действие происходит в «неперспективной деревне», где царит полное запустение, откуда все разъехались, где осталось только трое стариков (Мультик, Ганна и Гастрит). С особой болью в пьесе звучит тема разорвавшихся родственных уз, она как бы продолжает «Прошлым летом в Чулимске» А. Вампилова, если там ещё хоть кто-то остаётся (Валентина), если дети ещё, хоть изредка, приезжают в родное гнездо (как Пашка Хороших), то здесь старики уже много лет не видели своих детей и даже не знают точно, где они сейчас и что с ними. Сын Мультика, как становится ясно из разговоров, стал геологом, где-то работает, но



об отце, видно, не вспоминает, не пишет. Старший сын Ганны пропал без вести, а младший сидит в тюрьме и тоже не отзывается. Дети Гастрита иногда высылают отцу деньги, но сами не появляются и писем не пишут. Чтобы хоть как-то поддержать, порадовать соседку, Мультик даже написал на радио письмо от имени её младшего сына с музыкальной заявкой. Хотя и есть у них обида на детей, но они стараются ни в чём их не обвинять, пусть иногда и ворчат, понимая, что не всё от них зависит, жизнь такая: «Они же на земле выросли, она же их мать, они же должны были вместо нас на её прийти, чтобы хлебом людей кормить... Они же мучаются по городам, у них души болят...». В этих словах Мультика звучит горькая мудрость.

Сближает с вампиловскими эту пьесу и лирически исповедальная тональность, пронизывающая всё произведение. Каждый из героев говорит о своей жизни, о пережитом без лукавства, искренне, пытается осмыслить своё существование на этом свете. Особенно важными, ключевыми являются здесь слова Мультика, выступающего в качестве своеобразного «философа земли», носителя народного мироощущения. В его, кажущихся со стороны чужаковатыми, беседах с солнцем, с колодцем, с живыми ещё соседями и тенями прошлого явственно прослеживается мысль о недопустимости разрыва человека с родной землёй, с такими простыми, но вечными ценностями, как хлеб, труд, солнце, вода, земля: «Земля не ждёт... Она без наших рук хворает...» или «Святое в жизни только свет, тепло, любовь и земля...». Человек воспринимается героем как активная частица природы: «Если душа у человека светлая и тёплая, значит, кусочек солнца по земле ходит...». Есть в пьесе и традиционная для Вампилова тема прозрения, трансформированная в тему покаяния, её носителем является Гастрит, которому перед смертью открывается вся ущербность, вся ошибочность пройденного пути. Он всю жизнь был «идейным», искренне считал Мультика



чуть ли не врагом за его любовь к труду на земле, когда-то он даже написал донос, и брат Мультика погиб где-то в Сибири. Но теперь ему открылась правда о себе и о мире, выразившаяся в его молитве, хотя раньше старик никогда не молился: «Дай здоровья Мультику! Ты на нём тут ещё держишься... Если можно... Если бы другую жизнь... У меня бы ничего не было... Только много детей... И хлеба... Я сдуру людей жить учил, а мне бы детей нянчить и хлеб растить... Только хлеб растить...».

В этой неумелой, но искренней мольбе звучит всё: и стыд, и печаль о невозможности что-либо изменить, и отчаянное, страстное желание искупить свою вину, и запоздалое осознание смысла жизни. Пьеса носит притчевый характер, чему способствуют сквозные символы-лейтмотивы: солнце, колодец, земля. В жизни героев вроде бы ничего особенного не происходит (они спорят, болеют, трудятся) и, в то же время, происходит всё, — человек живёт, изменяется. А. Дударев по-вампиловски стремится к исследованию жизни в её непрерывном течении, к постижению философии жизни, но в отличие от А. Вампилова делает он это более прямолинейно, зачастую вкладывая свои мысли в уста героев: «Знаю... Земля холодная, и небо холодное. Космос ещё холоднее. Дал нам Бог жизнь, чтобы мы всё это согрели... Душами своими согрели! И землю, и небо, и друг друга...».

Ремарок в пьесе немного, но, как и у Вампилова, они являются одним из способов выражения авторской позиции, не случайно в одной из них, имеющей форму сна, появляются дети стариков и берут воду из колодца Мультика. В последней ремарке, завершающей всё произведение, автор напрямую выражает своё отношение к героям: «Они вышли вперед. Остановились. Два старых труженика земли нашей. Смотрят в ту сторону, где каждое утро за их долгую жизнь всходило солнце, чтобы осветить и согреть вечную землю».



Заклучение

Исходя из рассматриваемого литературного материала (ряд произведений отечественных драматургов), можно утверждать, что практически весь спектр художественных открытий А. Вампилова нашёл воплощение и развитие в пьесах 80—90-х годов. Вампиловская тематика (темы провинциального быта, дома и родственных уз, ухода и возвращения, выбора и прозрения) привлекла внимание Г. Горина, А. Пудина, А. Дударева, М. Ворфоломеева, Ю. Князева, В. Арро, А. Косенкова, Р. Солнцева, А. Сеплярского, А. Железцова, Ю. Мирошниченко, Д. Липскерова, С. Лобозёрова, Г. Башкуева, Н. Коляды и была ими многообразно разработана. Пьесам А. Дударева и Н. Коляды свойственно сочетание остросовременной направленности со стремлением к надвременности в силу пристального изучения этими авторами жизни в её непрерывном течении, философии повседневности. Притчевое звучание характерно произведениям А. Косенкова, Н. Космина, С. Лобозёрова, А. Дударева, Н. Коляды. Атмосфера лирической исповеди царит в пьесах Г. Горина, А. Дударева, М. Ворфоломеева, Ю. Князева, А. Железцова, Д. Липскерова, Н. Коляды.

Вампиловский принцип жанрового синкретизма оказался не чужд почти всем рассматриваемым в данной работе драматургам, за исключением А. Косенкова, Р. Солнцева и А. Железцова. Опора на анекдотическую ситуацию при построении сюжета осуществлялась Г. Гориним, Н. Косминым, Ю. Мирошниченко, С. Лобозёровым, Г. Башкуевым. Кольцевой структурой обладают произведения Г. Горина, А. Дударева, Ю. Мирошниченко, Д. Липскерова. Антитеза рефлективного и ангелического типов героев осуществлялась М. Ворфоломеевым («Распутица»). Из специфических художественных приёмов, свойственных драматургии А. Вампилова, наиболее часто используется парадоксальная основа формирования конфликта, построения сюжета и создания характеров. Причём вампиловская парадоксальность в новейшей драматургии подчас перерастает в алогичность как структурный приём, отражающий



психологические глубины (пьесы Н. Космина, Р. Солнцева, Д. Липскерова, С. Лобозёрова, Н. Коляды). Так же активно современные авторы используют кольцевые символы-лейтмотивы и нарочито театральные условности для наиболее яркого и рельефного отражения реальной жизни. В ряде случаев драматурги напрямую заимствуют символику А. Вампилова, как, например, символы дождя, солнца, окна, телефона. Мягкая авторская ирония по отношению к персонажам унаследована Г. Гориним, А. Железцовым, Ю. Мирошниченко, С. Лобозёровым, Г. Башкуевым. Всей новейшей драматургии свойственна максимальная приближённость языка к разговорному, но, как и Вампилову, сделать слово многофункциональным удалось немногим, наиболее успешно в этом направлении продвинулись С. Лобозёров и, особенно, Н. Коляда.

Таким образом, «театр Вампилова» в 80—90-е годы XX века продолжал жить активной творческой жизнью, оказывая положительное влияние на творчество многих современных отечественных драматургов.



O'ZBEK ISMLARNING LEKSIKOLOGIK, LEKSIKOGRAFIK VA LINGVOKULTUROLOGIK MUAMOLARI

Kadirova X.B.

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU
O'zga tillarda o'zbek tili ta'limi kafedrasida dotsenti

O'zbek ismlarini lingvistik tadqiq etish bugungi kunda dolzab masalalardan biri bo'lib qoldi. Aytish mumkinki, mazkur muammo jahon tilshunosligida ham keyingi paytlarda tadqiqot obyekti bo'lib¹, bu uning leksik, leksikografik, lingvokulturologik jihatdan o'rganish, muayyan tizimga solish, mezonlarini belgilash muhim masala ekanligidan dalolat beradi. O'zbek tilida ham turli shevalarda, muayyan hudud va jamiyatda turli niyatlar va maqsadlarda qo'yilgan ismlar fonetik, leksik, leksikografik, lingvokulturologik muammolarni yuzaga keltiradi-ki, bu o'zbek tilshunoslari uchun ham bir qator vazifalarni paydo qiladi. Zero, ismlar nafaqat millatning, madaniyatning, balki tilning mavqeini ko'rsatuvchi belgidir.

Keyingi yillarda gender falsafasi avj olganligi va bu o'zbek ismlarida o'z ta'sirini ko'rsatganligi sir emas. Ma'lumki, flektiv tillarda, jumladan arab yoki rus tillarida bu yechim muayyan morfologik ko'rsatkich bilan hal qilinib, undosh tovush bilan tugagan shaxs otlari yoki ismlarga unli tovush qo'yish orqali **женский род** yasaladi. (*olim-olima; shoir-shoira; поэт-поэтецца; учитель-учительница...*) O'zbek tiliga xos bo'lmagan bu xususiyat asosan, shu tillar orqali kirib kelgan shaxs otlaridagina uchraydi. To'g'ri ismlar lug'atini yaratish muammosi kun tartibida turar ekan, buning leksik jihatlarini o'rganish va lug'atlardagi takrorlarning oldini olish maqsadga muvofiq. Zero, **Maftun -Maftuna, Mahbub-Mahbuba** kabi ismlar hech qachon erkak kishiga qo'yilmaydi. Shuning uchun, ismlarning o'zak qismini qoldirib va uning izohini berish orqali lug'atda takror kelishining oldini olish, ism qo'yuvchiga esa uni gender xosligini o'zgartirish yoki o'zgartirmaslik imkonini berish mumkin bo'ladi.

Muhib

(ar.) – do'st, yo'ldosh, suyukli, mehrlil, mehribon. Shakli: *Muhiba* – rahmdil, mehribon qiz.

Biroq, ayrim hollarda ismlar lug'atida bu shakllarning gender xoslanmaganini ko'rish mumkin. Masalan,

Musin

(ar.) – yoshi ulug', keksa, piru badavlat.

¹ Д.М.Голикова Системные связи личных имен христианской традиции через призму онантропомических дериватов. Дисс... канд.фил.наук, Екатеринбург, 2019 год: Белова О. В. Сакральные имена в славянских народно-христианских легендах (имя наречение, переименования и трансформация имени) / О. В. Белова // Этнолингвистика. Ономастика. Этимология: материалы III Междунар. науч. конф. Екатеринбург, 7–11 сентября 2015 г. / отв. ред. Е. Л. Березович. — Екатеринбург: Изд-во Урал. ун-та, 2015. — С. 30–32.; Боровикова Н. В. Особенности референции имени собственного-антропонима во французском языке: автореф. дис. ... канд. филол. наук / Боровикова Наталья Владимировна. — СПб., 2012. — 24 с.


Musina

(ar.) – keksalardek uzoq yashasin.

Bunday hollarda arab tili izohli lugʻatlaridan foydalangan holda izohlarga aniqlik kiritish, kengaytirish talab etiladi.

Muin	(ar.) – koʻmakchi, yordamchi; suyanch. Asli: <i>Muiniddin</i> .
Muina	(ar.) – koʻmakchi, xizmatkor, xodima, suyanch, tayanch.

Gender xoslik oʻzbek tilida, asosan, qizlarga *xon, bonu, niso, buvi, momo* kabi, oʻgʻil bolalarga esa *bek, jon, toy, boy* kabi koʻrsatkich shakllari bilan yasalishi xos. **Moʻmin, Moʻmina, Moʻminniso, Moʻmintoy** kabi ismlar oʻzbekchalashgan ismlar qatoridan oʻrin oladi va bu qoʻllanish, nazarimizda, toʻgʻri hisoblanadi.

Maʼlumki, tushuncha qayerda paydo boʻlsa, atama ham oʻsha yerda paydo boʻladi va boshqa tilga shu atama oʻzlashadi. Biroq fonetik hodilar yuz berishi oʻzga til fonetik birliklar va elementlarining fizik-akkustik, anotomik-fiziologik, perseptiv va lingvistik funksional aspektlariga bogʻliq. Bu haqda ustoz H. Jamolxonov² oʻz tadqiqotida batafsil oʻrgangan. Choʻzilik, unli oralatish, dinamik urgʻu kabi xususiyatlar oʻzbek tiliga xos ekan, oʻzlashgan soʻzlar, albatta, jonli nutqda buzilishga uchraydi. Masalan, *kartOshka* emas, *kartishkA; mashIna* emas, *moshinA*... XX asr adababiyoti kuzatganimizda bunday fonetik moslashuvni jadidchilarimizning yozib qoldirgan asarlarida koʻrishimiz mumkin. Masalan, *Yevropa* emas *Ovrupo, rus* emas *oʻrus*. Shunday ekan, ismlar borasida ham mana shu oʻzbekcha talaffuz saqlanishi va imlo qoidalariga kiritilishi maqsadga muvofiq. Zero, Gʻayrat ismi ruscha talaffuzda Gayrat shaklida, Hamlet ismi ruscha talaffuzda Gamlet tarzida istifoda etilishi, millatning til ruhiyatini, qadr-qimmatini, obroʻ-etiborini oshirganidek, Oyisha ismini Aisha tarzida ifoda etilishi oʻzbek tilining mavqeini tushuradi. Shunday ekan, variatsiyalar tilning leksik qatlamini emas leksikografik sathini kengaytirishga xizmat qiladi, xolos. Masalan, Yaʼqub va Yoqub ismlari bir xil semantik qatorda boʻlib, uning oʻzbekcha ifodasi qulay boʻlgan variantini olib qolish maqsadga muvofiq.

Miryaʼqub	(ar.-qad.yah.) – qar. <i>Mir</i> va <i>Yaʼqub</i> .
Miryoqub	(ar.-qad.yah.) – qar. <i>Mir</i> (Amir) va <i>Yoqub</i> .
Mirzayaʼqub	(f.-qad.yah.) – qar. <i>Mirza</i> va <i>Yoqub</i> .
Mirzayaqub	(f.-qad. yah.) – qar. <i>Mirza</i> va <i>Yoqub</i> .
Muhammadyaʼqub	(ar.-yah.) – qar. <i>Muhammad</i> va <i>Yaʼqub</i> .
Muhammadyoqub	(ar.-qad.yah.) – qar. <i>Muhammad</i> va <i>Yoqub</i> .

Fonetik muammolar nafaqat oʻzlashma soʻzlarda, balki nutqdagi nuqsonlar bilan ham bogʻliq boʻlib, ismlar ifodasidagi xilma xilliklarni yuzaga keltiradi va lugʻatlarda oʻz aksini topa boshlaydi. Natijada, bir xil maʼnoli ismlar baydo boʻlib, *qarang* (qar.), *asli* ishoralarini qoʻyilishiga sabab boʻladi. Ayrim hollarda bu havolalar ikkinchi va uchinchi manzilga ketma-ket yoʻllanganligining guvohi boʻlamiz. Masalan, **Madi** – (ar.) qar. *Mahdi*;

² Жамолхонов Х. Ўзбек тилининг назарий фонетикаси. Ўқув қўлланма. – Тошкент: Фан, 2009 й.

Muztabar – (ar.) asli: *Muhtabar*; **Muzir** – (ar.) zarur, lozim; kutilgan, orzu qilingan; ogohlantiruvchi, ehtiyot qiluvchi yoki qar. *Munzir*. Shakli: *Muzira*; **Mayram** – (o'z.) bayram (hayit) kuni tug'ilgan qiz yoki qar. *Maryam*.

Maryam	(<i>qad.yah.</i>) – aynan: juda achchiq, zahar-zaqqum yoki Alloh qadrlagan, sevgan qiz yoxud nomusli, pokdomon qiz. Iso payg'ambar onasining ismi.
---------------	--

Bu jarayonni keng quloq yozmasligini oldini olish uchun bel bog'lar ekanmiz, variatsiyalarni lug'atdagi original ism izohida shakllari tarkibida keltirish maqsadga muvofiq. Masalan:

Muhib	(ar.) – do'st, yo'ldosh, suyuqli, mehrlil, mehribon. Shakli: <i>Muhiba</i> – rahmdil, mehribon qiz; <i>Muyiba</i> , <i>Muyibjon</i> .
--------------	---

O'zbek tilidagi ismlarning aksariyatida dunyoga kelgan go'dakni turli xavflardan himoya qilish g'oyasi, niyati mujassamlashgan ekan, bunday ismlarning yuzaga kelishida qadimiy totemistik tasavvurlar, ko'hna diniy aqidalar, sig'inishlarning boshqa xil ko'rinishlari, udumlar, keyinchalik esa islom dini ta'limoti bilan aloqador bo'lgan diniy, falsafiy qarashlar, e'tiqod va ishonchlar asosiy rol o'ynagan ismlarning lug'at tarkibidan katta sahifani egallashi tabiiy. Biroq ularning aksariyati bugunga kelib xato ekanligi ma'lub bo'lib qolmoqda. Izohlarda keltirilgan matnlar jiddiy tahrirga, arabshunos va islomshunos tadqiqiga muhtoj, ularning g'oyaviy eskirganlari ham talaygina. Xususan, payg'ambar Muhammad (s.a.v.) ismi yolg'iz qo'llanilmay, aksariyat hollarda boshqa ismlar bilan qo'sh tarzda qo'llanilishi va, afsuski, Muhammad ismining qisqartirilishi XX asrlarda juda avj olgan edi. (*Mad*, *Mamad*).

Madqobil	(ar.) – qar. Muhammadqobil.
Madrahim	(ar.) – qar. Muhammadrahim.
Madraso	(ar.) – qar. Muhammadraso.
Madrasul	(ar.) – qar. Muhammadrasul.
Madrizo	(ar.) – qar. Muhammadrizo.
Madroziq	(ar.) – qar. Muhammadroziq.
Madumar	(ar.) – qar. Muhammadumar.
Madusmon	(ar.) – qar. Muhammadusmon.
Madvali	(ar.) – qar. Muhammadvali.
Madxol	(ar.-f.) – qar. Muhammadxol.
Madyor//Madiyor	(ar.-f.) – qar. Muhammadyor yoki Muhammadiyor.
Madyunus	(ar.-qad.yah.) – qar. Muhammadyunus.
Madziyo	(ar.) – qar. Muhammadziyo.
Madzokir	(ar.) – qar. Muhammadzokir.

Shu ma'noda Ernst Begmatovning lug'atida katta sahifani egallagan ismlarni endilikda qo'ymaslikning oldini olish uchun, tahrirlash masalasini kun tartibiga qo'yish



vaqti kelgandek, nazarimizda. Chunki, erkalatish, kichraytirish, ulug'lash, nasl-nasabga ishora qiluvchi qo'shimcha morfologik ko'rsatkichlarni qo'shish ham ism qo'yuvchining o'z ixtiyorida bo'lishi ko'plap qulayliklarni yaratadi, desak, mubolag'a bo'lmaydi. Zero, bu ismlar til vakillarining kommunikatsiya muhitini o'zgarishiga, millatning dunyo nazaridagi munosabatiga o'z ta'sirini o'tkazishdek muammolarni keltirib chiqaradi.

Mo'mincha	(ar.-o'z.) – qar. Mo'min (Mo'min+cha).
Mayramcha	(o'z.) – bayram kuni tug'ilgan jajji qiz.
Mohicha	(f.) – yangi tug'ilgan, jajji oy yoki kenja qiz.

Bu kabi ismlarning davstlabki ko'rinishini qoldirib, qolgan shakllarini izohda berish orqali ixchamlikka, soddalikka erishish mumkin. Masalan:

Mahbub	(ar.) – do'st, yo'ldosh, suyuqli o'rtoq. Asli: Mahbubulla. Shakllari: <i>Mahbuba, Mahbubali, Mahbubbeka, Mahbubjahon, Mahbubjamol, Mahbubniso</i>
---------------	--

Shuningdek, qo'sh ismlarning ham sonini ixchamlashtirish orqali kishilarning ijodkorlik va origillak qobiliyatini susaytirish emas, aksincha, tafakkur yo'nalishini oshirish imkonini yaratish mumkin. Masalan, **Muhammad** ismi bilan bog'liq qo'sh ismlarning (*mir, sho, xon, bek, zoda* kabi) nasl va nasabga ishora qiluvchi morfologik ko'rsatkichlar yoki -*illo (-ullo)* (aslida, Alloh) morfemalari bilan takror qo'llanilish holati kuzatiladi. Jumladan, mirlar, xonlar, beklar nasliga mansub kishilar *Rahmat, Rahim, Rajab, Rasul, Roziq* kabi ismiga *mir* ko'rsatkichini qo'shish orqali **Mirrahmat, Mirrahim, Mirrajab, Mirrasul, Mirroziq** ismlari leksik jihatdan "R" harfi bo'limida o'z o'rga ega bo'lgani holda, "M" harfi bo'limida ham o'z aksini topadi³. Xuddi shunday "Sho" ko'rsatkichini olgan ismlar o'zak qismda boshlanuvchi harflardan tashqari "Sh" bo'limida ham o'rin egallaydi. Agar -*ali, -qul* qo'shimchalari qo'shilsa u yana takrorlanadi; erkalatish, kichraytirish (***Bahromcha, Mohicha, Muborcha, Mo'mincha***), ulug'lash uchun qo'shilgan affikslar bo'lsa, unda qayta takrorlanadi. Masalan,

Maqsad	(ar.) – istalgan, orzu qilingan yoki maqsad-murodli bola.
Maqsadali	(ar.) – orzu qilib tug'ilgan bolani Ali o'z panohida asrasin.
Maqsadgul	(ar.-f.) – orzu-armon qilib erishilgan guldek go'zal qiz.
Maqsadjon	(ar.-o'z.) – istagimiz, orzumiz bo'lgan suyuqli qiz.
Maqsadmurod	(ar.) – murodli-maqsad bola.
Maqsadoy	(ar.-o'z.) – orzu, armon qilib erishilgan oydek suluv qiz.
Maqsadqul	(ar.-o'z.) – qar. <i>Maqsad</i> (Maqsad+qul).
Maqsadxon	(ar.-o'z.) – orzu, armon bilan erishilgan baland martabali qiz.

Shu ma'noda, har xil tipdagi ismlar, avvalo, leksik ma'no anglatuvchi va morfologik qo'shimcha izoh, niyat yoki nasl nasabga ishora qiluvchi belgilar asosida tasniflanishi va

³ Begmatov E.A. **O'zbek ismlari ma'nosi**: (Izohli lug'at). — T.: O'zbskistoi millii ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 — 608 b.



lug'atlardagi pozitsiyasini belgilash maqsadga muvofiq, deyish mumkin. Xususan, *Saidumarxon* ismi qaysi harf bo'limida o'rinlashuvi uning asosiga qarab belgilanishi muhim. Zero, tarixiy shaxs Umarning payg'ambarimiz yaqinlaridan bo'lganligi va mazkur shaxsga ixlos etib, sevib, shu insondek bo'lishi niyat qilib qo'yilgan ismga saidlik nasli, martabasi qo'shimcha ma'no sifatida qaralishi va uni S harfi bo'limidan olib tashlanishi, Umar ismiga izoh berilganda, shu ismning shakllari qatorida *Saidumar*, *Saidumarxon*, *Mirumar*, *Mirzaumar*, *Shoumar* kabi variantlarini sanab o'tilishi joiz bo'ladi.

Til madaniyati omma ongida birday shakllanmagani qanday tabiiy hol bo'lsa, ism qo'yilishdagi oqsashlar shunday silliq kechadi. O'zbek xalqi tarixida ismlarga jiddiy e'tibor berilganligini misol tariqasida **Abu Ali ibn Sinoning** ismi orqali izohlash mumkin. Mohiyatan, dunyo tanigan bu so'zlar jamlanmasida anglashilayotgan shaxsning ismi yo'q. "Alining otasi Sinoning nabirasi" qabilida istifoda etilishida yuksak madaniyat negizini ko'rish mumkin. Ajdodlarni ulug'lash, ismiga nisbatan hurmatsizlik qilishdan ehtiyot bo'lish, nasl-nasabiga urg'u berish kabi maqsadlar zaminimizda ham keng tarqalgan va XIX-XX asrlargacha ham iste'molda edi. Oila boshliqlarini *otasi*, *onasi* yoki bosh farzandlarning ismi bilan chaqirishda chuqur ma'no va yuksak madaniy axloq yotadi. Bugunga kelib *nasl*, *urug'* kabi tushunchalar o'z leksik ma'nosini yo'qotib, shunchaki go'zal, quloqqa yoqimli eshitalishga erishish madaniyati keng tus olib, mantiqsiz, ma'nosiz ismlar dunyo yuzini ko'rmoqda. *Mirsaid*, *Mirxo'ja*, *Abdusaidxon* kabi ismlar faqatgina qo'shimcha ko'rsatkichlardan iboratligi, ehtimol, faqat tilshunoslar uchun ma'lum ekanligini inobatga olgan holda shuni aytish kerakki, uni jiddiy tadqiq etish va tartiblash dolzarb masalalardan biridir. Chunonchi, qo'shismlilik urfi bugun madaniyat belgisi sifatida shunchalik faollashib ketdiki, u tilshunoslar ongida ham ko'nikma hosil qilib, lug'atlar tarkibidan ham o'rin egallay boshladi. E.Begmatov o'z kitobida⁴ hattoki *Mo'chchi* ismini ham keltirib, o'zbekchadan *nozik*, *nafosatli*, *zebo qiz*, deya ta'rif beradi. Hech qayerda qayd etilmagan bunday ma'no tilshunosning o'z talqini ekanligiga shubha yo'q. Nazarimizda, bu taqlid so'z bo'lib, vohada tez-tez qo'llanib turuvchi *muchchi* (поцелуй)ning bir shaklidir. Bu ma'noni laqab turkumiga kiritish, ism sifatida qayd etmaslikni lingvomadaniy tadbir deb qabul qilish o'rinli.

Har bir millatning o'ziga xos jihatlari bo'lgani kabi milliy ismlari ham ajralib turishi muhim ijtimoiy, siyosiy, madaniy masaladir. Zero, bu masala jahon tilshunosligida ancha jadal tus olib, arman, gruzin, nemis, rus, tatar, qoziq, yapon, xitoy, tojik yoki arab singari millatlarning kishisini uning ismi orqali tanish mumkin. Ularning orfografik, grammatik, etimologik xususiyatlari o'ziga xos bo'lib, ularni to'g'ri yozish va ifoda etishga intilish kamolotga yetgan. Shunday ekan, o'zbek ismlari ham ana shunday jahon miqyosida o'z o'rniga ega bo'lishida kuch sarflarishimiz darkor.

⁴ Begmatov E.A. **O'zbek ismlari ma'nosi**: (Izohli lug'at). — T.: O'zbskistoi millii ensiklopediyasi, Davlat ilmiy nashriyoti, 2007 — 608 b.

XOREOGRAFIYA VA INSON SALOMATLIGI

*Qarshi ixtisoslashtirilgan san'at maktabi. Aktyorlik va xoreografiya san'ti bo'limi
o'qtuvchisi.*

Tursunova Zebiniso Sheraliyevna.

Jurnavoz. Jalilov Sherzod Xursanovch.

Annotatsiya: Ushbu maqolada xoreografiyaning inson salomatligiga ta'siri hamda sog'lom turmush tarzini shakllantirish yoritilgan. Xoreografik san'atni sog'lom turmush tarzini shakllantirish sharti sifatida o'rganilgan.

Kalit so'zlar: Xoreografiya, raqs terapiyasi, tuzatuvchi raqs, sog'lomlashtiruvchi raqs, xoreoterapiya, terapevtik raqs, kineziterapiya.

KIRISH

Ikki ming yildan ko'proq vaqt oldin qadimgi yunon faylasufi Platon: "Raqs tanani shakllantirish uchun mo'ljallangan" deb yozib qoldirgan. Bu mavzu bugungi kunda ham dolzarbdir. Xoreografiyadan boshqa insonning jismoniy va ma'naviy rivojlanishining barcha qirralarini to'liq qamrab oladigan, sog'lomlashtiradigan boshqa san'at turini tasavvur qilish qiyin. Xoreografiya ma'naviy va jismoniy o'sish uchun katta imkoniyatlarga ega. Bu potentsialni amalda qo'llash kerak bo'ladi.

Sog'lom turmush tarzi-jismoniy harakatsizlikning oldini olish demakdir. Ushbu maqolada biz sog'lom turmush tarzi tushunchasini xoreografiya san'atining rivojlanishi nuqtai nazaridan taqdim etamiz. Biz asosiy tushunchalarni bayon qilamiz va harakat, sog'lom turmush tarzi va xoreografiya o'rtasidagi munosabatlarini kuzatamiz.

Inson salomatligining asosiy uchta ustuni - ovqatlanish, harakat qilish, himoya qilishdir. Agar oziq-ovqat juda ko'p bo'lsa va ozgina harakat bo'lsa unda odamda gipodinamiya rivojlanadi.

Jismoniy harakatsizlik - bu harakatlar kuchining pasayishi tufayli inson tanasining harakatchanligining pasayishidir. Boshqacha qilib aytganda, bu harakatsiz hayot tarzidir.

Jismoniy harakatsizlik ilmiy-texnika taraqqiyotining natijasidir. Natijada, organizmda qon aylanishi, nafas olish va ovqat hazm qilish buziladi. Tayanch-harakat tizimi azoblanadi.

Jismoniy harakatsizligini yo`qotish va inson salomatligini yaxshilash maqsadida xoreografiya darsliklari tashkil etiladi. Bunda inson salomatligi yaxshilanadi va qon aylanishi tiklanadi.

ADABIYOTLAR SHARHI

Xoreografiya - bu:

1. Raqs san'ati;
2. Balet spektakli yoki raqsini tashkil etuvchi raqs.

Xoreografiya juda keng tushunchadir. Xoreografiya umumlashgan xarakterga ega bo`lib, ijrochining ruhiy olamini ochib beradi. Inson turmush tarzida, salomatligida xoreografiya o`z o`rniga ega.

Sog'lom turmush tarzi - bu salomatlikni mustahkamlovchi va kasalliklarning oldini oluvchi turmush tarzi.

Falsafiy va sotsiologik nuqtai nazardan, sog'lom turmush tarzi global ijtimoiy muammo, butun jamiyat hayotining bir qismidir.

Inson salomatligi va sog'lom turmush tarzining elementlari quyidagilardan iborat:

Doimiy sport bilan [xoreografiya bilan] shug`ullanish;

Bolalikdan sog'lom ko'nikma va odatlarni shakllantirish;

O'z atrofida xavfsiz muhitni yaratish, ya'ni gigiena talablariga rioya qilish;

Spirтли ichimliklar, chekish, giyohvand moddalarni iste'mol qilishni rad etish;

Sog'lom turmush tarzida xoreografiya bilan shug`ullanish inson hayotining barcha jabhalarini tabiiy ravishda rivojlantiradi, faol uzoq umr ko'rishga va ijtimoiy funksiyalarni to'liq bajarishga yordam beradi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Hozirgi vaqtda raqs san'atining inson salomatligidagi o'ziga xos rolini nazariy tushunishga yetarlicha baho berilmaydi. O'tgan asrlarda raqsning psixologiya, fiziologiya, sotsiologiya, tibbiyot kabi fanlarga integratsiyalashuvi natijasida yangi ilmiy fanlar shakllangan. Bular;

raqs terapiyasi,
tuzatuvchi raqs,
xoreoterapiya,
terapevtik raqs,
kineziterapiya va boshqalar.

Shu bilan birga, ulardagi vazifalar ko'pincha mazmunli xarakterga ega bo'lib, bu yerda faqat raqs san'atining ayrim qirralari ko'rib chiqiladi.

Raqsning insonga foydali ta'sirini hamma tan oladi, raqs san'ati sog'lomlashtirish yo'nalishidagi ta'lim tizimida an'anaviy va umume'tirof etilgan pedagogik tadqiqot ob'ektiga aylanishi kerak.

Raqsning muhim xususiyati - bu "bu erda va hozir" holatida bo'lis jarayonda ishtirokchilarning ishtiroki bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bu holat intellektual, hissiy va jismoniy jihatlarni birlashtiradi, ya'ni yaxlitlik holatini beradi.

XULOSA VA MUNOZARA

Xoreografiya san'atning eng demokratik va sog'lomlashtirishga qaratilgan turlaridan biridir. Inson har qanday joyda raqsga tushishi mumkin, sizda faqat xohish kerak. Xoreografiyaning tez va ravshan natijalaridan biri talaba qanchalik yosh bo'lsa, uni rivojlantirish osonroq bo'ladi. Sinfda qulay psixologik muhitni yaratish kerak. O'qituvchi talabalar uchun obro'-e'tibor va o'rnak bo'lishi kerak. Xoreografiya darsidagi har bir dars insonni yaxshi shaklda saqlashga, sog'lom turmush tarziga munosabatni shakllantirishga qaratilgan.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Alekseeva O.I. Xalq xoreografiyasi musiqiy folklor merosining ajralmas tarkibiy qismi sifatida. // Fan. Art. Madaniyat. 2014. No 3. S. 34-41.
2. Baryshnikova T. Xoreografiyaning ABC. Bolalar xoreografik guruhleri, balet maktablari va studiyalari talabalari va o'qituvchilariga yordam berish bo'yicha ko'rsatmalar. - Sankt-Peterburg: "LUX", "RESPEX", 1996. - 256 p.
3. Baxrushina N.A. O'rta maktabda xoreografiya darslariga inklyuziyani amalga oshirish. // Vestnik UGUES. Fan, ta'lim, iqtisodiyot. 2013. No 1(3) 124-128-betlar.



4. Vaganova A.Ya.: Klassik raqs asoslari. - Sankt-Peterburg: Lan: Musiqa sayyorasi, 2007 yil
5. Gusev G.P.: Xalq raqslarini o'qitish metodikasi. Zalning o'rtasida raqs harakatlari va kombinatsiyalari. - M.: Vlados, 2003 yil
6. Gusev G.P.: Xalq raqslarini o'qitish metodikasi. Mashina mashqlari. - M.: Vlados, 2002 yil
7. Gusev G.P.: Xalq raqslarini o'qitish metodikasi. Eskizlar. - M.: Vlados, 2004 yil
8. Zvezdochkin V.A.: Klassik raqs. - Rostov on / D: Feniks, 2003 yil
9. Klimov A.A.: Rus xalq raqsi asoslari. - M.: MGUKI, 2004 yil
10. Koreneva T.F.: Maktabgacha va boshlang'ich maktab yoshidagi bolalar uchun musiqiy va ritmik harakatlar. - M.: Vlados, 2001 yil

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI O'STIRISH

Suvanova Nilufar Akbarovna

Samarqand shahar 29-maktab

Oliy toifali boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Annotatsiya: Mazkur maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilarining mantiqiy va aqliy faoliyatining potensial imkoniyatlarini o'rganish darajasi hamda fikrlash doirasini kengaytirish masalalarini muhokama qilamiz.

Kalit so'zlar: Aqliy harakatlar, Fikrlash hajmi, Axborotlardan foydalanish kompetentligi, Tahlil, Sintez

KIRISH

Uzluksiz ta'lim tizimi mohiyati ta'limning barcha bo'g'imlari tashkiliy va ma'naviy birliklarini o'zaro aloqasini, tarbiya vazifalarini birgalikda xal qilishini, umumiy va o'rta maxsus ta'limni, (jamiyatning zamonaviy talablariga asosan) xar bir insonning umri davomida xar tomonlama kamol topishidan iborat.

O'quv jarayonlarini loyihalashtirishda ta'lim mazmunini, ta'lim maqsadi, kutilayotgan natijani to'g'ri belgilash, ta'lim metodlari, shakllari va vositalarini to'g'ri tanlash, o'quvchilarning bilim, ko'nikma va malakalarini baholashni aniq mezonlarini oldindan ishlab chiqish, mashg'ulotga ajratilgan vaqt ichida ularni to'g'ri amalga oshirish va bir-biri bilan uyg'unlashuviga e'tiborni qaratish maqsadga muvofiqdir. Har qanday faoliyat maqsadi - kelajak faoliyat natijasining xayoldagi qiyofasidir. Zamonaviy o'qitish texnologiyasi maqsadlarga izchil mo'ljal olishning asosi bo'lib, tezda ushbu borada qaytib keladigan aloqa manbai hisoblanadi. Bunda o'quv maqsadlari imkoni boricha aniqlashtiriladi.

ADABIYOTLAR SHARHI



Xorijlik olimlar tomonidan ilgari surilgan dastlabki nazariyalardan biri assotsiativ yoʻnalishga bagʻishlangan. Bu yoʻnalish vakillari assotsiatsiyani fikrlashning asosi deb hisoblaganlar. Angliyada David Yum, Gartli D., Pristli P., Djems Mill, Djon Styuart Mil, Aleksandr Ben, Gerbert Spenser, Fransiyada T.Ribo, Germaniyada TeodorSigen, Yulius Ebbingauzlar assotsiativ yoʻnalish vakillaridir. “Assotsiatsiya” tushunchasini dastlab D.Lokk [4] izohlagan. Uning fikricha assotsiatsiyani butun ruxiy kechinmalar, jarayonlar va fikrlashning umumiy mexanizmi sifatida qarash mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Bugungi zamon talabidan kelib chiqqan xolda darslarni texnika vositalari yordamida tashkil etish maqsadga muvofiqdir. Oʻqituvchiga dars berishda yordam beruvchi asosiy qurol darslik, unga yozilgan metodik qoʻllanma, savol va masalalar hamda mashqlar toʻplami, didaktik materiallar va hokazolar. Shular qatoridan yaxshi oʻrin olgan texnika vositalardir. Yaʼnikino apparatlari, video, kodoskop va boshqalar. Koʻz bilan koʻrib, quloq bilan eshitishga yordam beradigan bunday asboblarda oʻquvchilarning bilim olish samaradorligini oshiradi. Bundan tashqari oʻquvchilarni mantiqiy fikrlashga oʻrgatishda quyidagi metodlar samarali natijalar beradi.

Ilmiy-fantastik adabiyotlar ustida ishlash metodi. Mazkur mavzu oʻquvchilarning ijodiy fikrlash qobiliyatini oshirish va kitob ustidamustaqil ishlash koʻnikmalarini hosil qiladi. Ilmiy-fantastik kitob ustida ishlash oʻquvchilarning bilim doirasini kengaytirishga yordam beradi.

Oʻylab top (evrika) metodikasi. Oʻquvchilarning topqirlik darajasini aniqlash uchun oʻylab top oʻyini oʻynaladi. Bu oʻyinni matematika boshqa fanlarda ham oʻtkazish mumkin. Matematika darsida quyidagi oʻylab top oʻyini mavjud:

	2	
14	10	

30 30 30



Buo‘yin 2, 10, 14-sonlar qaytarilmagan holda xohlagan sonlar qo‘yilib, 30 raqam hosil qilish. Quyida har tomonlama 30 sonini chiqarish usuliko‘rsatiladi.

12	2	16
14	10	6
4	18	8

Bu diagonalda ham 30 raqami chiqadi.

O‘yinchoqlar yordamida dars o‘tish metodikasi. Interfaollikni oshirishdaba‘zi mexanik, elektr va elektron o‘yinchoqlar muxim rol o‘ynaydi. Bolalarning atrof-muhitni o‘rganishida katta yordam beradi. Ayniqsa, matematika darslarida 1-4 sinf o‘quvchilarining tayyor yoki o‘zlari yasagan o‘yinchoqlarni namoyish qilishlari ularning bilim olish jarayonini tezlatadiva texnika fanlariga bo‘lgan qiziqishlarini oshiradi.

Cydia avlodi turlarining qanot tomirlanishi kenja tribaga xos bo'lib ular erkak hamda urg'ochilarida o'xshash bo'ladi. Oldingi qanotni barcha tomirlari odatda erkin, o'rta tomirdan tarqalgan. M_3 va Cu_1 tomirlanishi odatda asosiy tomirdan tarqalgan. A_3 erkak individlarda yuqori qismi tangachasiz yon tomoni reduksiyaga uchragan tangachalar bilan qoplangan. Shuningdek, erkak individlarining orqa qanotining dorsal qayrilgan orqa qismi va o'simtalarida reduksiyalangan tangachalar rivojlangan bo'ladi. *Cydia pomonella* ning

erkaklarining genetalisi turlicha va har-xil, kenja avlodlarda bir-biridan keskin farq qiladi [7].

Olma mevaxo'ri bog'larning eng keng tarqalgan va xavfli zararkunandalaridan biridir. Bu lichinka bosqichida olma daraxtlari, nok, o'rik, shaftoli, behi, olxo'ri, yong'oqlarga zarar yetkazadi. Shikastlangan mevalar erta pishgan ko'rinadi, ularning ko'pchiligi ko'pincha Olma mevaxo'ri lichinkasi bilan birga tushadi [10].

Materiallar yig'ish jarayonida kuzatildiki Markaziy Farg'onada joylashgan bog'dorchilik fermer xo'jaliklarida olma mevaxo'ri asosan olma, nok, behi hamda yong'oq mevalariga jiddiy zarar yetkazadi (1-jadval).

Markaziy Farg'onadagi mevali bog'larda mevaxo'rlar tomonidan zarar yetkaziladigan mevali daraxtlar

1-jadval.

№	Oila nomi	Tur nomi	Mahalliy nomi
1	Rosaceae	<i>Pyrus communis</i>	oddiy nok
2	Rosaceae	<i>Prunus persica</i>	shaftoli
3	Rosaceae	<i>Cydonia oblonga</i>	behi
4	Rosaceae	<i>Malus domestica</i>	oddiy olma
5	Juglandaceae	<i>Juglans regia L</i>	oddiy yong'oq



5-Rasm. Olma mevaxo'ri tomonidan zararlangan A. Olma mevaxo, B. Nok mevaxo.

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda olma mevaxo'ri *Cydia pomonella* dunyo miqyosida keng tarqalib bog'dorchilik fermer xo'jaliklariga jiddiy zarar yetkazib



yetishtirilayotgan mevalarning bozor bopligini keskin kamaytirmoqda. Ushbu zararkunandaga qarshi kurashishda dastlab uning biologiyasi, ekologiyasi hamda morfologik tuzilishini bilish muhim ahamiyat kasb etadi. Ushbu tur bo'yicha bog'dorchilik fermer xo'jaliklari xabarlarini hamda ishchilariga batafsil ma'lumot berib borish kerak.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1. Balaško M. K. Population Genetic Structure and Geometric Morphology of Codling Moth Populations from Different Management Systems //Agronomy. – 2022. – T. 12. – №. 6. – С. 1278.
2. Jiang D. et al. Mapping the potential global codling moth (*Cydia pomonella* L.) distribution based on a machine learning method //Scientific reports. – 2018. – T. 8. – №. 1. – С. 1-8.
3. Oboyski P. T. The systematics, evolution, and ecology of Hawaiian *Cydia* (Lepidoptera: Tortricidae) : дис. – UC Berkeley, 2011.
4. Thaler, R.; Brandstätter, A.; Meraner, A.; Chabicovski, M.; Parson, W.; Zelger, R.; Dalla Via, J.; Dallinger, R. Molecular phylogeny and population structure of the codling moth (*Cydia pomonella*) in Central Europe: II. AFLP analysis reflects human-aided local adaptation of a global pest species. *Mol. Phylogenet. Evol.* 2008, 48, 838–849.
5. Wan F. et al. A chromosome-level genome assembly of *Cydia pomonella* provides insights into chemical ecology and insecticide resistance //Nature Communications. – 2019. – T. 10. – №. 1. – С. 1-14.
6. Zhou, Y.; Gu, H.; Dorn, S. Isolation of microsatellite loci in the codling moth, *Cydia pomonella* (Lepidoptera: Tortricidae). *Mol. Ecol. Notes* 2005, 5, 226–227.
7. Медведев Г. С. и др. Определитель насекомых Европейской части СССР-Москва.-Ленинград - 1978.-Т. 4: Ч. 1. –710 с.
8. Рахмонова М.К. Олма мевахўри (*Carpocapsa pomonella*) Биоэкологияси ва унинг микдорини бошқаришда уйғунлашган кураш усуллари ишлаб чиқиш. Қишлоқ хўжалиги фан. н.(PhD). дисс. Автореферати.-Тошкент. 2018.-22б.
8. <http://www.tortricidae.com/>



10. https://www.pesticity.ru/Плодожорка_яблонная

11. https://uz.wikipedia.org/wiki/Oлма_yetishtirish_bo%CA%BByicha_davlatlar_ro%CA%BByxati



ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ

Умарходжаева Муяссархон Ганиевна

и.ф.н., доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Кириш

Жаҳон амалиётида тўқимачилик кластерларининг экспорт салоҳиятини бошқариш усул ва механизмлари такомиллашиб бормоқда. Жаҳон амалиёти сўнгги йигирма йил давомида ташкилотларнинг кластерли уюшмаларини яратиш жараёнлари фаоллашганидан далолат беради. Ривожланган мамлакатларда корхоналарнинг 50 %дан ортиғи кластерлар ичида ишлайди ва уларда ишлаб чиқарилган ялпи ички маҳсулотнинг улуши 60 %дан ортади. Global Cotton Outlook халқаро баҳолаш тизими маълумотларига кўра, "... келажакдаги 10 йил давомида тўқимачилик саноати учун хомашё ишлаб чиқариш ҳажми 2020 йилдаги 25,4 млн. тоннадан 29,8 млн. тоннага, савдо ҳажми эса 10,1 млн. тоннадан 11,3 млн. тоннага ортиши кутилмоқда"⁵. Жаҳон тажрибасига кўра, айнан миллий иқтисодиёт, шунингдек, минтақавий иқтисодий тизимларни шакллантиришда кластерли ёндашув ишлаб чиқариш самарадорлиги, рақобатбардошлиги ва аҳоли фаровонлигини оширишнинг муҳим шарти ҳисобланади.

Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича "йўл харитаси"ни тасдиқлашни назарда tutувчи Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони лойиҳаси тайёрланди. Лойиҳада мутлақо янги ёндашув қўлланилиб, режалаштирилган ислохотлар натижадорлигини тараққиётнинг мақсадларига эришганлик даражаси асосида баҳолаш тизими жорий этилди. Жумладан, Тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича "йўл харитаси"да мамлакатимизни ривожлантиришнинг 7 та устувор йўналиши доирасида қарийб 100 та мақсадга эришиш назарда тутилган⁶. Мазкур вазифаларнинг самарали ижроси юзасидан ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришни рағбатлантириш ва импорт ўрнини босиш сиёсатини, биринчи навбатда, истеъмол товарларини тармоқлараро саноат кооперациясини кенгайтириш, экспорт фаолиятини либераллаштириш ва соддалаштириш, экспорт таркиби ва географиясини диверсификация қилиш, иқтисодий тармоқ ва ҳудудлар, шу жумладан, тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳиятини оширишдан иборат.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси.

⁵ D.Hudson, J. Malaga, Bing Liu. Global Cotton Outlook 2021/22 – 2030/2031. –Texas (USA), ICAC, 2020. – p.23.

⁶ Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича "йўл харитаси". <https://review.uz/oz/post/20222026-yillarga-moljallangan-taraqqiyot-strategiyasi-ning-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>



Иқтисодийда кластер ёндашувининг асослари П.Маскелл, М.Лорензен, М.Портер, М.Сторпер, М.Энрайт, С.Ресенфелд, Т.Андерсен, С.Бресчи, П.Друкер, М.Састеллс, К.Кетелс, Э.Санари, Ю.Кимура, П.Кругман, К.Кутсун, А.Кучики, Б.Лундвал, Р.М.Марш, Г.Менсч, У.Мигари, О.Солвела, Г.Уайт, К.Фреман, С.Харрисон, Ж.Хендерсон, Д.Хилжерс, Ж.Шумпетер⁷ ва бошқалар томонидан ўрганилган.

Тўқимачилик ишлаб чиқаришини ташкил этишнинг кластер шакллари билан шуғулланган замонавий олимлар орасида Д.П.Барсуков, Д.М.Бегов, В.И.Вагизова, В.В.Ильин, Ю.А.Ахенбах, Н.Н.Шутко, Г.Д.Боуш, Л.Л.Бутузова, Р.Р.Тохчуков, Э.В.Чемоданов, А. Фридман, А.А.Мигранян, Т.В.Ускова, Е.В.Волкодавова, Т.И.Максимова, Л.И.Проняева, О.А.Федотенкова, А.В.Павлова, В.В.Печаткин, М.А.Николаев ва бошқаларни алоҳида айтиб ўтиш мумкин.


Маҳаллий олимлар орасида тўқимачилик кластерлари ривожланишининг устувор йўналишлари С.С.Ғуломов, Н.Х.Жумаев, М.Шарифхўжаев, Ё.Абдуллаев, Н.Қ.Йўлдошев, М.Р.Болтабаев, З.Т.Гаибназаров, Э.А.Муминов, З.А.Хакимов, С.Ш.Юсупов, Х.Кодиров, К.Р.Хонкелдиева, Ф.П.Азимова, И.А.Тошпулатов ва бошқалар томонидан бевосита ёки билвосита ўрганилган.

Таҳлил ва натижалар

Шу билан бирга, бу соҳада маҳаллий ва хорижий иқтисодчи олимларнинг кўплаб тадқиқотлари мавжуд бўлишига қарамай, тўқимачилик кластерларини такомиллаштириш ва тўқимачилик маҳсулотлари экспортини оптималлаштириш масалалари кўшимча тадқиқотларни талаб этади.

Ўзбекистонда кластер тузилмаларини кенг жорий этишни назарда тутувчи ислохотлар амалга оширилмоқда, бу фермер хўжаликлари ва тайёр маҳсулот ишлаб чиқарувчиларни ягона занжирга бирлаштириб, шу орқали уларнинг харажатларини камайтиради. Бу ислохотлар жами ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятида тўқимачилик саноати улушининг тез суръатда ортишига асос бўлди. 2021 йил Ўзбекистон экспорт операциялари умумий ҳажмида тўқимачилик маҳсулотлари экспортининг улуши 2010-2021 йиллар давомида энг юқори қийматга эришди (1-расм).


⁷ Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003. Porter Michael E. On Competition. - Boston: Harvard Business School, 1998; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E. Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M. Storper. – N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. - 1992. - No5, July/August. Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // European Planning Studies. 1997. No 5. Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Janvier: Annales des Mines. 1989. Toleno J.A. Propjs des Filires Industrielles. Revue d'Economie Industrielle. V. 6. 1978. No 4.



1-расм. 2010-2021 йилларда Ўзбекистон тўқимачилик маҳсулотлари экспортининг мамлакат умумий экспорт ҳажмидаги улуши⁸

Ўзбекистон Республикасида 2021 йил бошида умумий майдони 908 минг гектарга яқин бўлган 96 та пахта-тўқимачилик кластери мавжуд эди. Бу кўрсаткичлар вилоятлар кесимида ўрганиб чиқилса, Андижон вилояти сон жиҳатдан етакчи, Қашқадарё вилояти эса кластерлар эгаллаган пахта майдонлари бўйича етакчи ўринни эгаллайди (2-расм).

Кластерларнинг энг катта қисми 2019-2021 йилларда шаклланган бўлиб, 2021 йилда кластер тузилмалари умумий сонининг 72 %и ташкил этилди. Тошкент вилоятида 2021 йилда кластерлар сони 20 тадан ошди.



⁸ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси ва “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.



2-расм. Ўзбекистонда минтақалар кесимида пахта-тўқимачилик кластерлари сони ва эгаллаган майдони, 2021 йил⁹

Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 16 сентябрдаги ПҚ-4453-сонли “Енгил саноатни янада ривожлантириш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори билан 2021 йилдан бошлаб, экспорт қилинадиган ҳар бир килограмм ип-калава учун 0,01 АҚШ доллари миқдорида йиғим ундирилиши белгилаб қўйилган. Бу маблағларнинг 75 %и корхоналарда халқаро стандартларни жорий этиш, маҳсулотларни сертификатлаш, корхоналарнинг халқаро кўргазмалар ва ярмаркаларда иштирок этиш, миллий брендларни яратиш ва илгари суриш билан боғлиқ харажатларини қоплаш, илмий тадқиқот ва инновацион лойиҳаларни амалга ошириш, кадрларни тайёрлаш, қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш бўйича чора-тадбирларни молиялаштириш учун “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмасига йўналтирилади¹⁰.

Хулоса

Ўтказилган тадқиқотлар ва белгиланган вазифаларга мувофиқ қуйидаги хулоса ва таклифлар шакллантирилди:

1. Кластерлар умумий қиймат занжири доирасида ташкилотлар ва ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ўзаро алоқа шакллари билан биридик. Кластер ўз иштирокчиларининг ўзаро рақобати, ўз иштирокчиларининг ҳамкорлиги, минтақанинг ўзига хос компетенцияларини шакллантириш, маълум ҳудудда корхона ва ташкилотлар концентрациясини шакллантириш хусусиятларига эга. Кластерларни жорий этиш мамлакат ички эҳтиёжларини қондириш даражасини ошириш, импортга қарамликни камайтириш ва давлатнинг экспорт салоҳиятини ошириш учун мўлжалланган. Кластер ёндашуви алоҳида корхона ва тармоқларни қўллаб-қувватлашга эмас, балки тегишли корхоналар, географик яқинликда жойлашган муассасалар ўртасидаги муносабатларни ривожлантиришга қаратилган давлат иқтисодий сиёсатининг мазмунини тубдан ўзгартиришга қодир. Тармоқ ва комплексларни бошқаришда кластер ёндашуви ички ва ташқи конъюнктура ўзгаришига тезкор жавоб бериш, инновацион сиёсат ҳисобига мослашиш орқали иқтисодий тизимнинг барқарорлигини оширишга ёрдам беради.

2. Ўзбекистонда кластер моделига ўтиш қисқа вақт ичида республика миқёсида хомашёдан тайёр маҳсулотга қадар ишлаб чиқариш занжирларининг тубдан ўзгаришини таъминлади, бу эса ишлаб чиқариш жараёнининг турли даврларидаги ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги муносабатларнинг янги муҳитини шакллантирди ва ишлаб чиқариш самарадорлиги ҳамда маҳаллий маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишга олиб келади.

⁹ Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси ва “Ўзтўқимачиликсаноат” уюшмаси маълумотлари асосида муаллиф ишланмаси.

¹⁰ Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 16 сентябрдаги ПҚ-4453 сонли “Енгил саноатни янада ривожлантириш ва тайёр маҳсулотлар ишлаб чиқаришни рағбатлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги қарори.



3. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноатида замонавий кластер тизимини таҳлил қилишда бир қатор муаммолар мавжудлиги аниқланди, уларнинг орасида моддий базанинг етарли даражада жиҳозланмаганлиги, тўқимачилик маҳсулотларини экспорт қилиш географиясининг диверсификация даражаси пастлиги, экспорт корхоналарини рағбатлантириш тизимининг заифлиги, солиққа тортиш даражаси юқорилиги, кластер фаолиятининг шаффофлиги етарли даражада эмаслигини алоҳида ажратиб кўрсатиш лозим. Самарали кластер тизими қуйидаги хусусиятларга эга бўлиши керак. Биринчидан, кластер яхлит, ўзини-ўзи ривожлантирувчи ва очиқ тизим бўлиб, унинг самарадорлиги уни қўллашнинг синергетика таъсирини сезиларли даражада ошириши мумкин. Иккинчидан, кластер шунчаки меҳнат тақсимотида асосланган кооперация эмас, балки инновацион технологиялар ва кўп босқичли технологик ўзаро боғланишларга асосланган уюшмадир. Учинчидан, кластерни анъанавий бошқарув аппарати эмас, балки унинг самарадорлигини оширишдан бевосита манфаатдор кластер ичидаги субъектлар бошқариши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. D.Hudson, J. Malaga, Bing Liu. Global Cotton Outlook 2021/22 – 2030/2031. –Texas (USA), ICAC, 2020. – p.23.
2. Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”. <https://review.uz/oz/post/20222026-yillarga-moljallangan-taraqqiyyot-strategiyasi-ning-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>
3. Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003. Porter Michael E. On Competition. - Boston: Harvard Business School, 1998; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005.
4. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90.
5. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E. Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287.
6. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M. Storper. – N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p.
7. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25.
8. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30.
9. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. - 1992. - No5, July/August. Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // European Planning Studies. 1997. No 5.



- 10.Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Janvier: Annales des Mines. 1989. Tolenado J.A. Propjs des Filires Industrielles. Revue d'Economie Industrielle. V. 6. 1978. No 4.



ЎЗБЕКИСТОН МИНТАҚАЛАРИДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ

Умарходжаева Муяссархон Ганиевна

и.ф.н., доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети

Кириш

Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”ни тасдиқлашни назарда тутувчи Ўзбекистон Республикаси Президенти фармони лойиҳаси тайёрланди. Лойиҳада мутлақо янги ёндашув қўлланилиб, режалаштирилган ислохотлар натижадорлигини тараққиётнинг мақсадларига эришганлик даражаси асосида баҳолаш тизими жорий этилди. Жумладан, Тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”да мамлакатимизни ривожлантиришнинг 7 та устувор йўналиши доирасида қарийб 100 та мақсадга эришиш назарда тутилган¹¹. Мазкур вазифаларнинг самарали ижроси юзасидан ишлаб чиқаришни маҳаллийлаштиришни рағбатлантириш ва импорт ўрнини босиш сиёсатини, биринчи навбатда, истеъмол товарларини тармоқлараро саноат кооперациясини кенгайтириш, экспорт фаолиятини либераллаштириш ва соддалаштириш, экспорт таркиби ва географиясини диверсификация қилиш, иқтисодий тармоқ ва ҳудудлар, шу жумладан, тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳиятини оширишдан иборат.

Муаммонинг ўрганилганлик даражаси.

Иқтисодиётда кластер ёндашувининг асослари П.Маскелл, М.Лорензен, М.Портер, М.Сторпер, М.Энрайт, С.Ресенфелд, Т.Андерсен, С.Бресчи, П.Друкер, М.Састеллс, К.Кетелс, Э.Санари, Ю.Кимура, П.Кругман, К.Кутсун, А.Кучики, Б.Лундвал, Р.М.Марш, Г.Менсч, У.Мигари, О.Солвела, Г.Уайт, К.Фреман, С.Харрисон, Ж.Хендерсон, Д.Хилжерс, Ж.Шумпетер¹² ва бошқалар томонидан ўрганилган.

¹¹ Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”. <https://review.uz/oz/post/20222026-yillarga-moljallangan-taraqiyot-strategiyasi-ning-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>

¹² Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003. Porter Michael E. On Competition. - Boston: Harvard Business School, 1998; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E. Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M. Storper. – N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // Word Link. - 1992. - No5, July/August. Rosenfeld S.A. Bringing Business Clusters into the Mainstream of Economic Development // European Planning Studies. 1997. No 5. Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Janvier: Annales des Mines. 1989. Toleno J.A. Propjs des Filires Industrielles. Revue d'Economie Industrielle. V. 6. 1978. No 4.



Тўқимачилик ишлаб чиқаришини ташкил этишнинг кластер шакллари билан шуғулланган замонавий олимлар орасида Д.П.Барсуков, Д.М.Бегов, В.И.Вагизова, В.В.Ильин, Ю.А.Ахенбах, Н.Н.Шутко, Г.Д.Боуш, Л.Л.Бутузова, Р.Р.Тохчуков, Э.В.Чемоданов, А. Фридман, А.А.Мигранян, Т.В.Ускова, Е.В.Волкодавова, Т.И.Максимова, Л.И.Проняева, О.А.Федотенкова, А.В.Павлова, В.В.Печаткин, М.А.Николаев ва бошқаларни алоҳида айтиб ўтиш мумкин.

Маҳаллий олимлар орасида тўқимачилик кластерлари ривожланишининг устувор йўналишлари С.С.Ғуломов, Н.Х.Жумаев, М.Шарифхўжаев, Ё.Абдуллаев, Н.Қ.Йўлдошев, М.Р.Болтабаев, З.Т.Гаибназаров, Э.А.Муминов, З.А.Хакимов, С.Ш.Юсупов, Х.Кодиров, К.Р.Хонкелдиева, Ф.П.Азимова, И.А.Тошпулатов ва бошқалар томонидан бевосита ёки билвосита ўрганилган.

Таҳлил ва натижалар

Жаҳон пахта ишлаб чиқарувчилари орасида Ўзбекистон 6-ўринда туради, бу эса тўқимачилик ишлаб чиқаришини самарали шакллантириш бўйича қиёсий устунликлар мавжудлигидан далолат беради (1-жадвал).

1-жадвалда кўрсатилганидек, Ўзбекистонда кластер тузилмаларини кенг жорий этишни назарда тутувчи ислохотлар амалга оширилмоқда, бу фермер хўжаликлари ва тайёр маҳсулот ишлаб чиқарувчиларни ягона занжирга бирлаштириб, шу орқали иккаласининг ҳам харажатларини камайтиради. Бу ислохотлар жами ишлаб чиқариш ва экспорт салоҳиятида тўқимачилик саноати улуши жадал ошишига асос бўлди.

1-жадвал

Жаҳон пахта ишлаб чиқарувчилари, 2021 йил¹³

№	Мамлакат	Йиллик ўртача пахта толаси миқдори, миллион тонна	Ишлаб чиқарувчининг хусусиятлари
1.	Хитой	6,5-6,6	1. Дунё пахтасининг 25 %дан ортиғи бу ерга тўғри келади. 2. Асосан тайёр маҳсулотлар экспорт қилинади. 3. Ҳосилдорликни ошириш учун тупроққа кимёвий ишлов беришга эътибор бериллади.
2.	Ҳиндистон	6,3-6,4	1. Машина ва қўлда йиғиш. 2. Хорижга маҳсулот экспортининг юқори улуши.
3.	АҚШ	3,5-3,7	1. Фақат машина йиғиш қўлланилади. 2. Пахта экспорти етакчиси.
4.	Покистан	2,3-2,4	Дунёда тайёр маҳсулотларга талаб юқори.
5.	Бразилия	1,4-1,5	Пахта етиштириш қадимий анъанадир.
6.	Ўзбекистон	1,1-1,2	Пахта-тўқимачилик кластери лойиҳаларини муваффақиятли амалга оширишга қаратилган ислохотларни амалга ошириш.

¹³ Муаллиф томонидан тузилган.

Мутахассисларнинг ҳисоб-китобларига кўра, 2022 йилнинг якунига тўқимачилик ва тикув-трикотаж маҳсулотлари экспорти 3,5 млрд. долларни ташкил этиши кутилиб, 70 га яқин давлатларга экспорт амалга оширилиши режалаштирилган бўлса, 2025 йилга бориб бу кўрсаткичларни 9,1 миллиард долларга етказиш режалаштирилган. Шу билан бирга, тўқимачилик маҳсулотларининг янги бозорларини ўзлаштириш бўйича мунтазам ишлар олиб борилмоқда, экспортнинг энг катта улуши қуйидагича тақсимланади: МДХ – 44 %, Шарқий Осиё – 27 %, Яқин Шарқ ва Африка – 8 %, Европа Иттифоқига – 7 %, Жануби-Шарқий Осиё – 6 %, Марказий Осиё – 6 %,

Кластерларни жорий этишнинг илғор усули Ўзбекистон тўқимачилик соҳасида юқори ўринларни эгаллади. Барча минтақаларда пахта хомашёсини етиштиришдан тортиб, пахта тозалаш заводларида қайта ишлаш ва юқори қўшимча қийматга эга тайёр тўқимачилик маҳсулотлари ишлаб чиқаришгача бўлган барча ишлаб чиқариш цикллари боғловчи пахта-тўқимачилик кластерлари ташкил этилмоқда.

2021 йилда Ўзбекистон тўқимачилик кластерларининг экспорт ҳажми 2019 йилга нисбатан саккиз баробар, яъни 3,2 трлн. сўмдан ошиб кетди. Кластернинг иқтисодий самарадорлигини таҳлил қилиш учун муаллиф томонидан тўқимачилик корхонасининг қўшилган қиймат сифатини қуйидаги кўрсаткичлар гуруҳидан фойдаланиш асосида аниқлаш таклиф қилинди: қўшилган қиймат динамикаси, қўшилган қиймат таркиби ва корхона ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги (2-жадвал).

2-жадвал

Яратилган қўшилган қиймат занжирини баҳолаш кўрсаткичлари тизими¹⁴

Кўрсаткичлар	Ҳисоблаш формуласи
Қўшилган қиймат таркиби кўрсаткичлари	
1. Қўшилган қиймат умумий миқдорида фойданинг улуши, %	$K_1 = ЯФ/ҚҚ$
2. Қўшилган қиймат умумий миқдорида амортизация ажратмалари улуши, %	$K_2 = A_{ам}/ҚҚ$
3. Қўшилган қиймат умумий миқдорида ажратмалар билан иш ҳақи улуши, %	$K_3 = МХТ/ҚҚ$
Корхона ресурсларидан фойдаланиш самарадорлиги кўрсаткичлари	
1. Даромаднинг 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_4 = ҚҚ/Д$
2. Моддий ресурсларнинг 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_5 = ҚҚ/М$
3. Асосий воситаларнинг 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_6 = ҚҚ/АВ$
4. Технологик инновациялар харажатлари 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_7 = ҚҚ/Х_{ти}$
5. Ўз капитални 1 пул бирлигига қўшилган қиймат, пул бирлиги	$K_8 = ҚҚ/ЎК$

¹⁴ Муаллиф томонидан тизимлаштирилган.



бу ерда ЯФ – ялпи фойда; ҚҚ – қўшилган қиймат; $A_{ам}$ – амортизация ажратмалари миқдори; АВ – асосий воситалар; I – асосий капиталга инвестициялар; МХТ – меҳнатга ҳақ тўлаш харажатлари ва иш ҳақи тўловларидан ажратмалар; Д – даромад; М – моддий харажатлар; ЎК – ўз капитали; $X_{ти}$ – технологик инновациялар харажатлари

Барча кўрсаткичлар қиймат ифодасида ўлчанади

Юқоридаги кўрсаткичларни ҳисоблаш қўшимча қийматнинг таркибий элементлари, шунингдек, қуйидаги формула ёрдамида ҳисоблаб чиқиш тавсия этиладиган умумий динамикани таққослаш имконини беради:

$$ҚҚ = \sqrt[3]{K_1 \cdot K_2 \cdot K_3} + \sqrt[5]{K_4 \cdot K_5 \cdot K_6 \cdot K_7 \cdot K_8} \quad (1)$$

Табиий материаллардан калава ишлаб чиқариш, тўқимачилик материалларини (тўқима, нотўқима бўлмаган, трикотаж) ишлаб чиқариш ва пардозлаш, дизайн, маркетинг ва тайёр маҳсулотларни сотиш бўйича батафсил статистик маълумотлар мавжуд эмаслиги туфайли қўшилган қиймат занжирини кузатиш мушкул вазифа ҳисобланади. Лекин Ўзбекистонда ишлаб чиқариш жараёни хомашё ишлаб чиқаришдан тайёр пахта маҳсулотигача бўлган барча босқичларни қамраб олганлиги сабабли, республика тўқимачилик саноатида тўлиқ қўшилган қиймат занжири ҳақида гапириш мумкин.

Шундай қилиб, Ўзбекистон тўқимачилик саноатида кластерлашнинг жорий этилиши юқори натижаларга эришиш имконини берди, хусусан, ишлаб чиқариш ҳажми сифат жиҳатидан ошди, тармоқнинг экспорт салоҳияти ошди, тўқимачилик маҳсулотларининг рақобатбардошлиги сезиларли даражада ортди. Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳияти энди авж олаяпти. Мамлакатда янада юксалиш учун улкан имкониятлар мавжуд. Энг муҳими, жаҳон миқёсидаги бозор конъюнктураси Ўзбекистоннинг қиёсий устунликларига деярли тўғри келади, эндиликда уларни тўқимачилик тармоғи учун рақобатли устунликларга айлантириш зарур.

3-жадвал маълумотлари далолат берадики, Ўзбекистон тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳияти 2016 йилдан 2020 йилгача бўлган даврда сезиларли даражада ортган. Ўзбекистонда ташкилотларнинг кластерлари шаклларини жорий этиш айнан 2016 йил охири ва 2017 йил бошларига тўғри келади. Экспорт салоҳиятининг бирмунча юқори ошиш ҳажми Наманган вилояти (7 баробар ошиш) ва Сурхондарё вилоятида (8 баробар ошиш) кузатилди.

3-жадвал

2016-2020 йилларда Ўзбекистон минтақаларида тўқимачилик саноатининг экспорт салоҳияти¹⁵

№	Минтақалар	Экспорт салоҳияти, млн. долл.		Ўсиш, %
		2016 й.	2020 й.	
1.	Қорақалпоғистон Республикаси	6,1	34,6	+467,2
2.	Андижон вилояти	109,8	327,9	+198,6
3.	Бухоро вилояти	62,6	79,1	+26,4
4.	Жиззах вилояти	32,8	80,2	+144,5
5.	Қашқадарё вилояти	15,7	62,1	+295,5
6.	Навоий вилояти	0	49,7	-
7.	Наманган вилояти	24,9	209,7	+742,2
8.	Самарқанд вилояти	14,8	85,8	+479,7
9.	Сурхандарё вилояти	10,1	73,4	+626,7
10.	Сирдарё вилояти	11,8	41,4	+251,6
11.	Тошкент вилояти	159,5	210,7	+32,1
12.	Фарғона вилояти	212,2	249,1	+17,4
13.	Хоразм вилояти	21,1	83,5	+295,7
14.	Тошкент ш.	181,9	298,4	+64,0

Агар экспорт салоҳияти корхона даражасида кўриб чиқилса, у иккита асосий қисм, яъни ички ва ташқи салоҳиятдан иборат. Корxonанинг ички экспорт салоҳияти экспортга маҳсулот ишлаб чиқариш учун зарур ресурслар мажмуини ўз ичига олади. Буларга табиий, меҳнат, моддий, молиявий ва ахборот ресурслари киради. Корxonанинг ташқи экспорт салоҳияти рақобатбардош маҳсулотларни сотиш билан боғлиқ бўлиб, корxonанинг маркетинг, логистика ва хизмат кўрсатиш фаолияти билан таъминланади¹⁶. Юқори ташқи экспорт салоҳияти билан корxonанинг рақобатбардошлик даражаси сезиларли даражада ошади, чунки унинг маҳсулотлари халқаро бозорларда сотила бошлайди¹⁷.

Хулоса

Ўтказилган тадқиқотлар ва белгиланган вазифаларга мувофиқ қуйидаги хулоса ва таклифлар шакллантирилди:

1. Кластерлар умумий қиймат занжири доирасида ташкилотлар ва ижтимоий гуруҳлар ўртасидаги ўзаро алоқа шакллари билан бириктирилади. Кластер ўз иштирокчиларининг ўзаро рақобати, ўз иштирокчиларининг ҳамкорлиги, минтақанинг ўзига хос компетенцияларини шакллантириш, маълум ҳудудда корхона ва ташкилотлар концентрациясини шакллантириш хусусиятларига эга. Кластерларни

¹⁵ Муаллиф томонидан тизимлаштирилган.

¹⁶ Сычев А. В. Индикатор потенциала инновационной деятельности кластера.

¹⁷ Сухих Д.Г., Кац В.М. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Российский опыт // Векторы благополучия: экономика и социум, 2015. №2 (17). – С. 62-75.



жорий этиш мамлакат ички эҳтиёжларини қондириш даражасини ошириш, импортга қарамликни камайтириш ва давлатнинг экспорт салоҳиятини ошириш учун мўлжалланган. Кластер ёндашуви алоҳида корхона ва тармоқларни қўллаб-қувватлашга эмас, балки тегишли корхоналар, географик яқинликда жойлашган муассасалар ўртасидаги муносабатларни ривожлантиришга қаратилган давлат иқтисодий сиёсатининг мазмунини тубдан ўзгартиришга қодир. Тармоқ ва комплексларни бошқаришда кластер ёндашуви ички ва ташқи конъюнктура ўзгаришига тезкор жавоб бериш, инновацион сиёсат ҳисобига мослашиш орқали иқтисодий тизимнинг барқарорлигини оширишга ёрдам беради.

2. Ўзбекистонда кластер моделига ўтиш қисқа вақт ичида республика миқёсида хомашёдан тайёр маҳсулотга қадар ишлаб чиқариш занжирларининг тубдан ўзгаришини таъминлади, бу эса ишлаб чиқариш жараёнининг турли даврларидаги ишлаб чиқарувчилар ўртасидаги муносабатларнинг янги муҳитини шакллантирди ва ишлаб чиқариш самарадорлиги ҳамда маҳаллий маҳсулотлар рақобатбардошлигини оширишга олиб келади.

3. Ўзбекистон Республикаси тўқимачилик саноатида замонавий кластер тизимини таҳлил қилишда бир қатор муаммолар мавжудлиги аниқланди, уларнинг орасида моддий базанинг етарли даражада жиҳозланмаганлиги, тўқимачилик маҳсулотларини экспорт қилиш географиясининг диверсификация даражаси пастлиги, экспорт корхоналарини рағбатлантириш тизимининг заифлиги, солиққа тортиш даражаси юқорилиги, кластер фаолиятининг шаффофлиги етарли даражада эмаслигини алоҳида ажратиб кўрсатиш лозим. Самарали кластер тизими қуйидаги хусусиятларга эга бўлиши керак. Биринчидан, кластер яхлит, ўзини-ўзи ривожлантирувчи ва очик тизим бўлиб, унинг самарадорлиги уни қўллашнинг синергетика таъсирини сезиларли даражада ошириши мумкин. Иккинчидан, кластер шунчаки меҳнат тақсимотида асосланган кооперация эмас, балки инновацион технологиялар ва кўп босқичли технологик ўзаро боғланишларга асосланган уюшмадир. Учинчидан, кластерни анъанавий бошқарув аппарати эмас, балки унинг самарадорлигини оширишдан бевосита манфаатдор кластер ичидаги субъектлар бошқариши керак.

Фойдаланилган адабиётлар:

1. Янги Ўзбекистоннинг 2022–2026 йилларга мўлжалланган тараққиёт стратегияси ва уни 2022 йилда амалга ошириш бўйича “йўл харитаси”. <https://review.uz/oz/post/20222026-yillarga-moljallangan-taraqqiyyot-strategiyasi-ning-yangi-loyihasi-muhokamaga-qoyildi>
2. Maskell P., Larenzen M. The Cluster as Market Organization// DRUID Working Paper. 2003. No 14. 2003.
3. Porter Michael E. On Competition. - Boston: Harvard Business School, 1998; русск. пер.: Конкуренция; СПб; Киев: Изд. дом «Вильямс», 2005.
4. Porter M. E. Clusters and the New Economics of Competition / M.E. Porter. // Harvard Business Review. – 2018. – Vol.76 (6). – P.77–90.



5. Porter M. E. Clusters and Competition: New Agen-das for Companies, Governments, and Institutions / M.E. Porter // Harvard Business School Working Paper. – 1998. – Vol.98-080. - P. 197-287.
6. Storper M. The Regional World: Territorial Development in Global Economy/ M. Storper. – N. Y.: Guilford Press, 1997. – 338 p.
7. Enright M.J. Why Clusters are the Way to Win the Game? // World Link, No 5, July/August, 1992. - Pp. 24, 25.
8. De Propriis, Lisa and Driffield, Nigel. The importance of clusters for spillovers from foreign direct investment and technology sourcing // Cambridge Journal of Economics. 2006. No 30.
9. Soulie D. Filieres de Production et Integration Vertical. - Janvier: Annales des Mines. 1989.
10. Tolenado J.A. Propjs des Filires Industrielles. Revue d'Economie Industrielle. V. 6. 1978. No 4.
11. Сычев А. В. Индикатор потенциала инновационной деятельности кластера.
12. Сухих Д.Г., Кац В.М. Методики оценки экспортного потенциала предприятия. Российский опыт // Векторы благополучия: экономика и социум, 2015. №2 (17). – С. 62-75.

FAOL MEHNAT YOSHDAGI ERKAKLARDA ARTERIAL GIPERTENSIYA RIVOJLANISHI XAVF FATORLARINI BAHOLASH MEZONLARI

Xaytimbetov J.Sh., Solixov M.U., Alikulov I.T.

КРИТЕРИИ ОЦЕНКИ ФАКТОРОВ РИСКА РАЗВИТИЯ АРТЕРИАЛЬНОЙ ГИПЕРТЕНЗИИ У МУЖЧИН АКТИВНОГО РАБОТОСПОСОБНОГО ВОЗРАСТА

Хайтимбетов Ж.Ш., Солихов М.У., Аликулов И.Т.

CRITERIA FOR ASSESSING RISK FACTORS FOR THE DEVELOPMENT OF ARTERIAL HYPERTENSION IN MEN OF ACTIVE WORKING AGE

Xaytimbetov J.Sh., Solixov M.U., Alikulov I.T.

Toshkent tibbiyot akademiyasi

Аннотация

Mutaxassislar tomonidan yurak-qon tomir kasalliklarining xavf omillari haqidagi ma'lumotlarning matematik tahlili arterial gipertenziya bilan og'rigan erkaklarda sezilarli ko'rsatkichlarni aniqladi, ularning rivojlanishining etakchi patogenetik mexanizmi psixologik stressdir. Ekspert tahlillari natijasida umumiy xolesterin va yurakdagi strukturaviy va funktsional o'zgarishlarning ko'rsatkichlari bo'lgan muhim omillar aniqlandi. Xulq-atvor omillarining ahamiyati: chekish va psixologik stress, matematiklarning ekspert bahosi nuqtai nazaridan, arterial gipertenziya rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatmadi. Ushbu holat tishlarni davolash paytida yurak-qon tomir tizimining asoratlari rivojlanishi uchun xavf omillarining ahamiyatini o'rganish va shimoliy mintaqadagi erkaklarning moslashuvchan salohiyatini baholash dasturini tuzishda hisobga olingan.

Калит сўзлар: chekish, diabetes mellitus, giperkolesterolemiya, ortiqcha vazn, semirish, jismoniy harakatsizlik, muvozanatsiz ovqatlanish.

Аннотация

Математический анализ экспертами информации о факторах риска сердечно-сосудистых заболеваний выявил значимые показатели у мужчин с артериальной гипертензией, ведущим патогенетическим механизмом развития которой был психологический стресс. В результате экспертного анализа были выявлены значимые факторы, являющиеся показателями общего холестерина и структурно-функциональных изменений в сердце. Значение поведенческих факторов: курения и психологического стресса, с точки зрения экспертной оценки математиков, не оказало существенного влияния на развитие артериальной гипертензии. Это обстоятельство было учтено при составлении программы изучения значимости

факторов риска развития осложнений со стороны сердечно-сосудистой системы при лечении зубов и оценки адаптационного потенциала мужчин северного региона.

Ключевые слова: курение, сахарный диабет, гиперхолестеринемия, избыточная масса тела, ожирение, гиподинамия, несбалансированное питание.

Annotation

A mathematical analysis by experts of information about the risk factors for cardiovascular diseases identified significant indicators in men with arterial hypertension, the leading pathogenetic mechanism of development of which was psychological stress. As a result of expert analysis, significant factors were identified that were indicators of total cholesterol and structural and functional changes in the heart. The significance of behavioral factors: smoking and psychological stress, from the point of view of expert assessment by mathematicians, did not have a significant impact on the development of arterial hypertension. This circumstance was taken into account when drawing up a program to study the significance of the risk factors for the development of complications of the cardiovascular system during dental treatment and to assess the adaptive potential of men in the northern region.

Key words: smoking, diabetes mellitus, hypercholesterolemia, overweight, obesity, physical inactivity, unbalanced diet.

Tibbiyot fanining "Profilaktik muhit" platformasi ijtimoiy ahamiyatga ega kasalliklarning xavf omillarini (RF) timsoli kontekstida insonning sog'lig'i holatini baholash va sog'lom turmush tarziga sodiqlikni shakllantirishga individual-shaxsiy yondashuvni belgilaydi. 2017 yilgi ACC ko'rsatmalarida arterial gipertenziyaning asoratlari rivojlanish xavfini sezilarli darajada o'zgartiradigan xavf omillari quyidagilardan iborat: chekish, diabetes mellitus, giperkolesterolemiya, ortiqcha vazn va semirish, jismoniy harakatsizlik va muvozanatsiz ovqatlanish. O'zgartirish qiyin bo'lgan omillar surunkali buyrak kasalligi, obstruktiv uyqu apnesi sindromi, past ijtimoiy-iqtisodiy va ta'lim holati. Yosh va involyutsion o'zgarishlar, erkak jinsi va irsiyat hali ham yurak-qon tomir patologiyasining asoratlari uchun modulyatsiyalanmagan xavf omillari bo'lib qolmoqda. Psixo-emotsional stressga kelsak, hech qanday aniq fikr yo'q: bir tomondan, stressdan kelib chiqadigan sharoitlarni tuzatish bemorlarning hayot sifatini yaxshilaydi, boshqa tomondan, bu yurak qon-tomir kasalliklari xavfini kamaytirishga sezilarli ta'sir ko'rsatmaydi. Shaxsiylashtirilgan yondashuv va tibbiy yordamni standartlashtirish o'rtasidagi aniq qarama-qarshilik ekspert ma'lumotlariga asoslangan tahlil tizimlarini statistik va matematik qo'llab-quvvatlashdan foydalangan holda yurak-qon tomir kasalliklarining rivojlanishi uchun xavf omillarining ahamiyatini o'rganishni dolzarblashtiradi. Bunday yondashuvni amalga oshirish istiqboli intellektual tizimni qurish imkoniyatini ochib beradi surunkali yuqumli bo'lmagan kasalliklarni erta tashxislash va omilli profilaktikasi usullaridan biri sifatida qarorlarni qo'llab-quvvatlash.



Materiallar va tadqiqot usullari. Ma'lumotni olish, tahlil qilish va qayta ishlash usullarini ishlab chiqish uchun matematiklar so'rovnoma ikki marta javob berishdi. Ulardan arterial gipertenziyaning asoratlariga ta'sir qiluvchi taqdim etilgan omillarning ahamiyatini ko'rsatish so'ralgan, ya'ni. ularning reyting parametrlarining samaradorligiga ta'sir darajasi. **Tadqiqot natijalari.** Faktorni baholab, mutaxassis unga ma'lum bir darajani berdi. Statistik ma'lumotlardan ekspert matematiklarning fikriga ko'ra, baholashning matematik ahamiyatiga ega bo'lgan ko'rsatkichlar tanlangan. Omillarga, ularning ahamiyatiga qarab, "1 ÷ 7" ball ichida qiymat beriladi, ya'ni "1 ball - muhimroq ÷ 7 ball - kamroq ahamiyatga ega". Agar mutaxassis bir nechta omillar ta'sirining kuchini teng baholasa, ularning barchasiga bir xil ball beriladi. So'rov natijalari jadvallarda umumlashtiriladi. Keyinchalik, omillar umumiy ball bo'yicha tartiblanadi, ya'ni ularning taqsimlanishi. Yuqoridagi harakatlar har bir mutaxassisning ballari bilan amalga oshiriladi. Keyinchalik, ekspert so'rovining statistik parametrlari hisoblanadi. Mutaxassislar ishining to'g'riligini hisobga olish kerak. Nazorat qilish uchun jadval tuziladi va reyting natijalari yangi jadvalga muvofiq taqqoslanadi. Barcha satrlar (i) uchun jami ballar ikkala jadvaldagi (j) ustunlar uchun jami ballarga mos kelishi kerak. Jadvallarni to'ldirishning to'g'riligi tekshiriladi. Bu aniq:

1) ma'lum bir omil uchun maksimal reyting darajasi (amax) omillar sonidan (m) ko'p bo'lishi mumkin emas. Bizning holatimizda $amax = 7$ va $m = 7$, ya'ni shart: $amax \leq m$ bajariladi;
2) har qanday omil bo'yicha darajalar yig'indisining maksimal qiymati mutaxassislar soni bo'yicha mumkin bo'lgan maksimal darajaning ko'paytmasidan ko'p bo'lishi mumkin emas. $ch_{2r} = 62,45$ hisoblangan qiymatlarni $q = 0,01$ ahamiyatlilik darajasi uchun $ch_{2cr} = 18,48$ jadval kritik qiymatlari bilan solishtirganda, mutaxassislarning fikrlari va tadqiqot natijalari o'rtasidagi muvofiqlik darajasi haqida gapirish mumkin.

Darajalar yig'indisi bo'yicha o'rin omilning ahamiyatlilik darajasiga ko'ra taqsimlanadi. Darajaning minimal yig'indisi birinchi o'rinni egallagan eng muhim omilga to'g'ri keladi ($M_1 = 16,5$), so'ngra darajalar yig'indisi oshgani sayin omillar tartibga solinadi (2-jadval). Muhim omillarni aniqlash bo'yicha ekspert so'rovi natijalari ularning ahamiyatini quyidagicha aniqlash imkonini berdi:

1-o'rin - 16,5 ball (umumiy xolesterin darajasi);

2-o'rin - 29 ball (tana massasi indeksi);

3-o'rin - 46,5 ball (chap qorincha gipertrofiyasi);

4-o'rin - 61,5 ball (interventrikulyar septumning gipertrofiyasi);

5-o'rin - 73,5 ball (sistolik qon bosimi darajasi).

Omillarning ahamiyati ta'sirini ekspert tahlili natijasida biz aniq taxmin qilamizki, tanlangan omillar katta rol o'ynaydi, ya'ni ular erkaklar salomatligini baholashda etakchi bo'g'indir - va ular quyidagilar bo'lib chiqdi: umumiy xolesterin ko'rsatkichlari va yurakdagi



tarkibiy va funktsional o'zgarishlar, xulq-atvor omillarining ahamiyati chekish va psixo-emotsional stresslar bo'lsa, ekspert bahosi nuqtai nazaridan ahamiyatli emas edi. Ushbu holat biz tomonidan stomatologik davolash paytida asoratlarni rivojlanishi uchun xavf omillarining ahamiyatini o'rganish va erkaklarning moslashuvchan salohiyatini baholash dasturini tuzishda hisobga olingan. Bitta kasallikning omillari o'rtasidagi tizimli munosabatlarni o'rganish arterial gipertenziya rivojlanishining shaxsiylashtirilgan qonuniyatlarini aniqlash, yurak-qon tomir kasalliklari kursini boshqarish samaradorligini oshirish va axborotni qayta ishlashning zamonaviy usullaridan foydalangan holda tibbiy qarorlar qabul qilish yondashuvlarini takomillashtirish imkonini beradi. Shundan so'ng siz ekspert ma'lumotlarini qayta ishlashni vizuallashtirish va tahlil qilish asosida dasturni apparat yordamida amalga oshirishga o'tishingiz mumkin.

Adabiyotlar

1. Naimushina, A.G. Распространенность факторов артериальной гипертензии в открытых популяциях г. Тюмени у лиц со стабильными базовыми социальными характеристиками / A. G. Naimushina, S. V. Solovyova Медицина труда и промышленная экология. – 2011. – № 4. – С. 15-19.
2. Naimushina, A.G. Гендерные аспекты стресс индуцированной артериальной гипертензии / A. G. Naimushina, S. V. Solovyova // Вестник Тюменского государственного университета. – 2014. – № 6. – С.150-156.
3. Портал «Медицинская наука» [Электронный ресурс]. – Режим доступа: http://medical-science.ru/?page_id=2963
4. Djusipov A.K., Atarbaeva V.Sh., Koshumbayeva K.M. и соавт. Распространенность артериальной гипертензии в различных регионах Республики Казахстан // Терапевтический вестник. - 2007. - № 2(14).- С. 33-34.
5. Всемирный атлас профилактики сердечно-сосудистых заболеваний и борьбы с ними. Всемирная организация здравоохранения совместно с Всемирной федерацией сердца и Всемирной организацией по борьбе с инсультом. 2014.
6. http://www.who.int/cardiovascular_diseases/publications/atlas_cvd/ru/
7. Cold exposure and winter mortality from ischaemic heart disease, cerebrovascular disease, respiratory disease, and all causes in warm and cold regions of Europe. The Eurowinter Group // Lancet. - 1997. – Vol.349. – P. 1341–1346.
8. Analitis A., Katsouyanni K., Biggeri A. et al. Effects of cold weather on mortality: results from 15 European cities within the PHEWE project // Am J Epidemiol. –2008. - Vol.168. – P. 1397–1408.



9. Danet S., Richard F., Montaye M. et al. Unhealthy effects of atmospheric temperature and pressure on the occurrence of myocardial infarction and coronary deaths. A 10-year survey: the Lille-World Health Organization MONICA project (Monitoring trends and determinants in cardiovascular disease) // *Circulation*. -1999. – Vol.100. – P. E1–E7.
10. Mercer J.B. // Cold - an underrated risk factor for health // *Environ Res*. – 2003. – Vol. 92. –P. 8–13.
11. Yang L., Li L., Lewington S. et al. Outdoor temperature, blood pressure, and cardiovascular disease mortality among 23 000 individuals with diagnosed cardiovascular diseases from China // *Eur Heart J*. -2015. – Vol. 36. – P. 1178–1185.



1	Бошланғич синф ўқувчиларининг математик саводхонлигини оширишда матнли масалаларнинг шаклини ўзгартиришнинг аҳамияти ҳақида Эшбекова Дилноза	4
2	Ona-Yaratganning buyuk mo'jizasi Mubinova Aziza	9
3	YOSH KITOBXON Shaxakimova Shaxnoz Raushandjanovna Axmedova Shaxzoda Abdulxamidovna	13
4	METABOLIK SINDROM MAVJUD BEMORLARDA GEMOSTAZ BUZILISHILARI TAHLILI Allamurodova Feruza Yoqubovna	18
5	KAMBAGALLIKNI QISQARTIRISH VA MAQSADLI IJTIMOYIY DASTURLAR Do'stov Baxodir Tashpulatovich	24
6	KAMBAG'ALLIKNI QISQARTIRISH VA MAQSADLI IJTIMOYIY DASTURLAR Do'stov Baxodir Tashpulatovich	28
7	MATRITSA ARGUMENTLI FUNKSIYALARNING SKALYAR ARGUMENTLI FUNKSIYALAR BILAN BOG'LIQLIGI MASALASI Mehrochev Barot Botir o'g'li	32
8	TOP 10 innovative trends in pharmaceuticals Doniyorova Zukhrabonu Alisher qizi	38
9	ВИРТУАЛ ТЕХНОЛОГИЯЛАРНИНГ ТАЪЛИМ ЖАРАЁНИДАГИ АҲАМИЯТИ Позиллов Абдушохит Абдуюеитович Олимжонов Гулноза Нумонжон қизи	46
10	Model of interaction between the professional education system and the business community Qosimova Dilorom Sabirovna Nutfulloyev Tolib	50
11	BOSHLANG'ICH SINIF O'QITUVCHILARIDA DEONTOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA SHARQ MUTAFAKKIRLARINING FIKRLARI Karimova Ozoda Choriyevna	59
12	SANOATDA KIMYOVIY MODDALARNING O'RNI Ganiyev A'lobek G'ulom o'g'li Mamadaliyeva Nodira Isakovna	65
13	NAVOIY ASARLARI ORQALI O'QUVCHILARNI KASB-HUNARGA O'RGATISH USLUBI Jumanazarova Nigina Oybek qizi	70
14	O'SMIRLARNI ARMIYA SAFIDA XIZMAT QILISHGA TAYYORLASH BOSQICHIDA JISMONIY TARBIYA VA CHAQIRUVGA QADAR BOSHLANG'ICH TAYYORGARLIK INTEGRATSIYASI	73



	Erkaboyev Oybek Muhammadjonovich	
15	O`QUVCHILARDA TADQIQIY BILIM VA KO`NIKMALARNI SHAKLLANTIRISHDA MATEMATIKA DARSLARINING AHAMIYATI Shamshiyeva Hulkar Tairovna	80
16	SANOATDAGI DONADOR MAHSULOTLARNI SONINI SANASH DASTURSIZ MAHALLIY AVTOMATIK QURILMASI Xolov Orif Tolipovich Rajabov Kamronbek.Yo`ldoshevich Qarshiyev Xolmo`min Avaz o`g`li	83
17	YOSHLAR TA'LIM-TARBIYASIDA OILANING O`RNI Islomjon Solijonov	89
18	ТРАНСФОРМАЦИЯ ГЕРОЯ В РУССКОЙ ЛИТЕРАТУРЕ 80-90-Х ГОДОВ Холдоров Чоршанби	93
19	O`ZBEK ISMLARNING LEKSIKOLOGIK, LEKSIKOGRAFIK VA LINGVOKULTUROLOGIK MUAMOLARI Kadirova X.B	100
20	XOREOGRAFIYA VA INSON SALOMATLIGI Tursunova Zebiniso Sheraliyevna Jurnavoz.Jalilov Sherzod Xursanovch	105
21	BOSHLANG'ICH SINFLAR O`QUVCHILARIDA MANTIQUIY FIKRLASHNI O`STIRISH Suvanova Nilufar Akbarovna	109
22	ZAMONAVIY O`QITUVCHILARGA QO`YILADIGAN ASOSIY ZAMONAVIY TALABLAR HAQIDA Ilmira Tashmuxeimedova Ergeshova Arujan G`ani qizi	115
23	ЎЗБЕКИСТОНДА ГЕНДЕР ТЕНГЛИГИНИНГ АҲАМИЯТИ Джалилов Нигматилла Каримович	118
24	Methodologies of business process reengineering model for e-government Yuldasheva A.Z Hakimova Z.M	121
25	MUSIQA MADANIYATI DARSLARIDA NOTAGA QARAB KUYLASH Do`stov Suxrob Fayzulloevich	131
26	PHOENITCS AS A BRANCH OF LINGUISTICS Raimkulova Mekhriniso Sharif kizi Umarova Zaynura	137
27	ПРОИСХОЖДЕНИЕ СОВРЕМЕННЫХ РУССКИХ ИМЁН Бердиева Хуршида Анарбаевна	142
28	ЧТО ТАКОЕ ИСКУССТВЕННЫЙ ИНТЕЛЛЕКТ И КАК ОН РАБОТАЕТ Зулунов Равшанбек Маматович	149
29	PHOENITCS AS A BRANCH OF LINGUISTICS Raimkulova Mekhriniso Sharif kizi Umarova Zaynura	154



30	«ЗНАЧЕНИЕ ОЦЕНКИ МОЗГОВОГО НЕЙРОТРОФИЧЕСКОГО ФАКТОРА BDNF У ПАЦИЕНТОВ С САХАРНЫМ ДИАБЕТОМ 2 ТИПА с ХРОНИЧЕСКОЙ БОЛЕЗНЬЮ ПОЧЕК на ПРОГРАММНОМ ГЕМОДИАЛИЗЕ» Холиков А.Ю УРМАНОВА Ю.М	159
31	MARKAZIY FARG'ONA MEVALI BOG'LARIDA CYDIA POMONELLA (LINNAEUS, 1758) (LEPIDOPTERA: TORTICIDAE)NING UCHRASHI Kimyonazarov. S.Q	162
32	ТЎҚИМАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ БОШҚАРИШ МАСАЛАЛАРИ Умарходжаева Муяссархон Ганиевна	170
33	ЎЗБЕКИСТОН МИНТАҚАЛАРИДА ТЎҚИМАЧИЛИК САНОАТИНИНГ ЭКСПОРТ САЛОҲИЯТИНИ ОШИРИШ Умарходжаева Муяссархон Ганиевна	176
34	FAOL MEHNAT YOSHDAGI ERKAKLARDA ARTERIAL GIPERTENSIYA RIVOJLANISHI XAVF FATORLARINI BAHOLASH MEZONLARI Haytimbetov J.Sh., Solixov M.U., Alikulov I.T	183